

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO'JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



F A L S A F A

(Uslubiy qo'llanma)

TOSHKENT 2007

Falsafa fanidan uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida tayyorlangan bo'lib, falsafa fani bo'yicha talabalarning bilimlarini kengaytirishga, seminar mash'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishga oid uslubiy maslahatlar, referat mavzulari, tayanch tushunchalar va takrorlash uchun savollar, mavzuga oid adabiyotlar ro'yhatini qamrab olgan.

Tuzuvchilar: professor I. Xo'jaumarodov
professor: N. Eshmetov

Taqrizchilar: falsafa fanlari
doktori, professor Xaydarov X.F
falsafa fanlar
doktori, professor Imomalieva R.M

Ushbu uslubiy qo'llanma Gumanitar fanlar kafedrasining (2006 yil 30 may 10- sonli bayonnoma) va universitet Gumanitar ta'lim Kengashining (2006 28 iyundagi 5- sonli bayonnoma) yil ilishida muhokama qilinib, nashr etish uchun tavsiya etilgan.

**Falsafa fanidan ma'ruza va amaliy mash'ulot uchun mavzular,
ajratilgan soatlar hamda tavsiya etilayotgan adabiyotlar**

№	Mavzular	Ajratilgan soatlar	Tavsiya etilayotgan adabiyotlar
1	1 Falsafaning predmeti, fanlar sistemasidagi o'rni, muammolari va vazifalari	2	1,2,3,4,5,6,7,10 15,25,28,29
2	Qadimgi Sharq va antik dunyo falsafasi	2	1,4,7,17,18,19,20,28,29
3	O'zbekiston hududidagi ilk urta asrlar va temuriylar davri falsafasi uning jahon madaniyatidagi o'rni	2	1,3,5,6,7,21,26,28,29
4	XVI-XX asrlardagi jaxon falsafiy tafakkuri	2	1,2,6,7,17,18,20,25,29
5	Olam va odam: falsafiy talqin	2	1,2,6,7,17,18,20,20,26,29
6	Borliq va uning falsafiy tahlili	2	2,7,17,18,22,23
7	Tabiat falsafasi	2	2,7,17,18,20,23
8	Taraqqiyot va aloqadorlik tamoyillari va talqinlar falsafada metod muammosi	2	8,9,10,17,18,20,26,29
9	Rijoplanish va o'zaro aloqadorlikning umumiy qonuniyatlari. Falsafiy qonunlar	2	4.7.17.18.20.24,26,28
10	Mavjudlik, o'zgarish bo'likning asosiy shakllari. Falsafiy kategoriyalar	2	11,12,17,18,20,25,27
11	Ong va ruhiyat: falsafiy talqin	2	10,13,14,17,18,20,23,25
12	Bilish falsafasi	2	1,10,13,14,17,18,20,23,25
13	Jahon sivilizatsiyasi va O'zbekiston istiqbolining falsafiy masalalari	2	6,7,13,14,15,16,24,27,29

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi». T., «O'zbekiston, 1992
2. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» T., «O'zbekiston» 1998 y
3. Karimov I.A. «Ma'naviy yuksalish yo'lida». T., «O'zbekiston» 1999 y
4. Karimov I.A. «Milliy istiqbol mafkurasini xalq e'tiqodi va buyuk kelajaka ishonchidir» T., «O'zbekiston», 2000 y
5. Karimov I.A. «Istiqbol va ma'naviyat» T., «O'zbekiston 1994 y
6. Karimov I.A. «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman» «Fidokor», 2000 yil 8- iyun
7. Karimov A «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» T., «O'zbekiston», 2000 y.
8. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T., «O'zbekiston», 1998 y
9. Karimov I.A. «Bunyodkorlik yo'lidan» T., 4 -tom. «O'zbekiston», 1996 y
10. Karimov I.A. «Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi» T., 5- tom «O'zbekiston», 1992.
11. Karimov I.A. «O'zbekiston milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura» T., «O'zbekiston» 1996 y
12. Karimov I.A. «Jamiyatimiz mafkurasini xalqni- xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin» T., «O'zbekiston», 1998 y
13. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T., «O'zbekiston», 1997 y

14. Karimov I.A. «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot provard maqsadimiz» T., «O'zbekiston» 2000 y
15. Karimov I.A. «O'zbekiston bozor islohatlarini chuqurlashtirish yo'lida» T., «O'zbekiston», 1995 y
16. Karimov I.A. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» T., «O'zbekiston», 1997 y
17. Falsafa (Ma'ruzalar matni). T., 2000 y
18. Falsafa (o'quv qo'llanma) T., «Sharq» 1999 y
19. Falsafa o'quv qo'llanma. T: 1999
20. Falsafa asoslari. T., «O'zbekiston», 2005
21. Falsafa. T., «Sharq» 2005
22. Falsafa (Qomusiy lu'at), T., «Sharq», 2004
23. «Milliy istiqlol 'oyasi» Darslik. T., «Akademiya», 2005
24. "Ma'naviyat yulduzlari" T.. "Uzbekiston", 1999 y
25. Filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar M., "Nauka", 1999 y
26. Osnovo' filosofii. T., «Uzbekiston», 1998 g
27. "Milliy istiqlol 'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar». (Oliy ta'lim muasasalari uchun qo'llanma) T., «O'zbekiston», 2001
28. Abu Nosir Farobiy «Fozil odamlar shahri» T., «Fan» 1993 y
29. Abu Rayxon Beruniy. «Tanlangan asrlar» T., «Fan», 1968 y

1- MAVZU: FALSAFANING PREDMETI, FANLAR SISTEMASIDAGI O'RNI, MUAMMOLARI VA VAZIFALARI

Reja

1. «Falsafa» atamasining mohiyati va mazmuni.
2. Dunyoqarash tushunchasi va uning tarixiy tiplari
3. Falsafa fanining predmeti va asosiy muammolari
4. Falsafiy muammolar bilan bo'liq oqim va ta'limotlar

1. Aziz talabalar! Siz falsafa fanini o'rganishga kirishdingiz. Avvalo falsafa o'zi nima? degan savolga to'xtalib o'taylik. Falsafa insoniyat tarixidagi nazariy bilishning birinchi tarixiy shakli sifatida qadimgi Sharq mamlakatlarida quldorlik tuzumining paydo bo'lishi va rivojlanishi davrida tarkib topgan. Falsafaning vujudga kelishi bilim kurtaklarining paydo bo'lishi bilan nazariy tadqiqotga ehtiyotning shakllanishi ila tarixan bir davrga to'g'ri keladi.

«Falsafa» atamasining mohiyati va mazmuniga kelsak, bu atama qadimgi Yunon tilidagi «Filosofiya» so'zidan olingan va «Donishmandlikni sevish» («Filo»- sevaman, «sofiya»- donolik) degan ma'noni anglatadi. Falsafa paydo bo'lishi bilanoq insonlarni qiziqtiradigan turli tuman savollarga javob qidirishga harakat qilgan. Xususan, bizni nima qurshab olgan va kim tomonidan yaratilgan? Olam qanday qonunlar asosida rivojlanadi? Inson, o'simliklar va hayvonot dunyosi qanday paydo bo'ldi? Inson ongining, ruhining tabiatga, materiyaga munosabati qanday? Inson dunyoni bilishga qodirmi yoki yo'qmi? kabi boshqa savollar shular jumlasidandir. Falsafiy savollarning xilma- xilligi va qiziqarliligini e'tiborga olib yunonlar uni donolik fani yoki donishmandlik deb ataganlar.

Falsafa donishmandlik haqidagi ta'limot ekan, u xolda donishmandlikning o'zi nima? Qadimgi Yunon faylasufi Diogen (taxminan E.O. 400-325)dan donishmand kim?- deb so'rashganda u «haqiqiy donishmand xudodir, biz insonlar donishmandlikni sevuvchilar, donolik tafakkuri bilan dunyoni, o'zligini bilishga intiluvchilardir»- deb javob bergan.

Qadimgi Yunon donishmandi Sokrat (E.O. 470-399 y) iborasi bilan aytganda «o'z- o'zini erga urish tubanlashish, o'zligini anglash, o'zligini yuqori tutish esa donishmandlikdir». Boshqacha aytganda insonni razillik va tubanlikdan, insonni barkamolikka ko'taruvchi barcha narsalar donishmandlikdir. Donishmandlik o'zligini, o'z tarixini, o'z qadriyatlarini, o'z mohiyatini chuqur bilish orqali dunyoni inson, insoniylik ko'zgusi bilan anglab etishdir.

Falsafa voqelikdagi narsa va hodisalarning eng umumiy bo'liqligi, aloqadorligi va rivojlanishi qonuniyatlari, ularning mohiyatini bilishga qaratilgan fandir. Falsafa to'risida buyuk qomusiy olim Farobiyning quyidagi so'zlari alohida e'tiborga sazavordir. «Mavjudot haqidagi bilish qo'lga kiritilsa, shu haqda ta'lim berilsa, mavjudotdan bo'lgan narsaning zoti bilinsa, narsaning ma'nosi tushunilsa, ishonchli dalil hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch tasavvur paydo bo'lsa, mana shu ma'lumotga doir fanni falsafa deymiz...» (Abu Nosir Farobiy. «Fozil odamlar shahri» T., 1993 yil 183-184 betlar). Nemis klassik falsafasining yirik vakili Gegelning fikricha, falsafa donishmandlikning o'zidir. Har qanday falsafa o'z davrining mahsuli sifatida shu davr ijtimoiy taraqqiyoti ehtiyojlarini ifodalaydi. Shuning uchun insoniyat tarixida turli falsafiy qarashlar mavjud bo'lgan va shunga mos ravishda uning mavzui va vazifalari ham o'zgarib borgan. Qadimgi dunyoda aniq fanlar mustaqil tarmoqlarga ajralib tariqiy topmagan vaqtda falsafa barcha bilimlarni o'z ichiga qamrab olib, fanlarning fani «umumiy sistema» vazifasini bajargan. O'z davrining buyuk Entsiklopediyasi olimlari Arastu, Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar faqat falsafa bilan shu'ullangan emas, ayni paytda ular buyuk tabiatshunoslar ham bo'lishgan. Tabiatga falsafiy yondoshish, tabiat sirlarini ilmiy tushuntirib berishga qaratilgan soha «naturfilosofiya» deb nom olgan. Naturfilosofiya falsafiy tafakkurning birinchi tarixiy shakli bo'lib, u tabiiy fanlar yutuqlariga asoslanib, tabiatni yaxlit o'rganishga, yaxlit tasvirlab berishga qaratilgan oyaga suyangan holda, kishilik jamiyatining ilk bosqichida keng tarqalgan mifologik- afsonaviy tasavvurlarni siqib chiqarishga asos yaratdi.

Falsafa avallo Yunonistonda, Markaziy Osiyoda va bir qator Sharq mamlakatlarida so'ngra Evropa mamlakatlarida alohida bilim sohasiga aniqro'i «fanlarning otasi», ya'ni asosiy fanga aylangan. Sharqda «ikkinchi Arastu», «ikkinchi muallim» deya etirof etilgan buyuk mutafakkir Farobiy «filosofiya» so'zini «qadrlash» deb talqin etgan. Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida «donishmandlikni sevis» degan mazmun bilan birga olam sirlarni bilish, hayotni va insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarini

e'zozlash ma'nosida ishlatilgan. Bu haqda quyidagi adabiyotlarni o'qishingizni va muhim joylarini qisqacha konspekt qilishingizni tavsiya qilamiz. Falsafa Toshkent- «O'qituvchi», 2005 yil, 8-11 betlar. Falsafa. Qomusiy lu'at. Toshkent- 2004; Falsafa asoslari . Toshkent, «O'zbekiston», 2005 yil, 6-8 betlar.

2. Aziz talabalar!. Shuni yodda tutingki falsafa, insonning tafakkur madaniyatini, olamning rivojlanish va bilish qonuniyatlarni dunyoqarashning shakllantiruvchi fandir. Dunyoqarash tushunchasi va uning shakllari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishini istagan talabalarga Falsafa asoslarikitobining T. «O'zbekiston», 2005 yil, 18-26 betlarini o'qib konspekt qilishni tavsiya etamiz. Dunyoqarash tizimining rivojlanish darajasi jamiyat taraqqiyotiga mos keladi va uni ifodalab turadi. «Dunyoqarash» tushunchasi o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, tarixiy xotira, ma'naviy barkamollik kabi tuy'u va tushunchalar bilan uzviy boliq xolda shakllanadi. Chunki dunyoqarash aynan ana shu ruhiy - ijtimoiy hodisalar orqali oydinlashadi, umuminsoniy qadriyatlarining tarixiy bir bo'lagiga aylanadi. Endi dunyoqarashning tarixiy shakllariga qisqacha to'xtalib o'taylik.

Mifologik dunyoqarash. Mifologik (yunoncha- mifos- naql, rivoyat, logos- tushuncha ta'limot) dunyoqarash - ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlan'ich davriga xos bo'lgan, qadimgi zamon kishilarining o'zaki ijodi - naql va afsonalarida o'zlariga munosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Ezgulik va haqiqat uchun kurash goyalarining ifodasi bo'lgan afsona va rivoyatlarda millatning muayyan ruhiy xolati, kelajakka ishonchi, vatanga muhabbati, insoniy kamolatga intilishi badiiy vositalar, afsonaviy qahramonlar timsolida ifoda etilgan.

Mifologik dunyoqarashda olamning kelib chiqishi, uning taraqqiy etish qonuniyatlari, fazo, tabiat, jamiyatdagi narsa va hodisalarning uy'unligi, bir-biri bilan bog'liqligi, ularning abadiyligi haqida so'z yuritiladi.

Mifologik dunyoqarashda voqealar, turli hodisalar, afsonaviy xudolar, qahramonlar obrazlari jozibali va jonli turda kishilarga qattiq ta'sir ko'rsatadigan shaklda berilgan. Afsonalarda kishilarning voqelikka bo'lgan qahramonlardan tashqari ularning turli xatti - harakatlari, sa'nati, urfu- odat, an'analari ham tasvirlangan.

Ma'lumki, din urf - odat, afsonalar bilan bir qatorda kishilik jamiyatining ma'naviy qadriyatlarining tarkibiy qismini tashkil etadi. Dastlabki vaqtlarda afsonalar diniy an'analari, diniy udumlar bilan uzviy bo'liq bo'lib, diniy dunyoqarashni rivojlanishiga asos solgan. Keyinchalik mifologik dunyoqarashda kishilarni falsafiy, siyosiy, huquqiy, badiiy va boshqa qarashlar kurtaklari ildiz otadi va rivojlanadi. Bu esa mifologik, diniy, falsafiy, siyosiy, badiiy qarashlarning o'zaro tutashib ketganligidan dalolat beradi. Ayniqsa badiiy obrazlarda mifologik qarashlar ko'proq o'z aksini topgan. Halq ogzaki ijodining mahsuli bo'lgan O'rta Osiyo

halqlarining «Alpomish», «Manos», «Go`r- o`li», «Avazxon», «Hasanxon» kabi epos va dostonlarida badiiy obrazlar afsonaviy obrazlar bilan tutashib ketgan. Mifologik dunyoqarashda diniy dunyoqarashning ham kurtaklari mavjud. Mifologiyada ham, diniy ta`limotlarda ham olamning yaratilishini afsonaviy xudolar bilan boglab ko`rsatadi.

Diniy dunyoqarash. Diniy dunyoqarashning o`ziga xos xususiyati shundaki, u tabiiy va ijtimoiy hodisalar mohiyatini ularning o`zidan emas, balki ilohiy kuch- xudoning qudrati bilan tushuntiradi. U hamma narsada va har erda ilohiy kuchlarning ta`siri, mu`jizaviy kuchi bor deb uqtiradi. Diniy dunyoqarashning mohiyati dindorlar uchun muqaddas bo`lib hisoblangan diniy adabiyotlarda o`z aksini topgan. Mifologik dunyoqarash afsonaviy kuchlarni e`tirof etish bilan bo`liq bo`lsa, diniy dunyoqarash ilohiy qudratlarga e`tiqod qo`yish bilan bogliq. Shuning uchun ham bu dunyoqarash shaklini inson qalbidagi quyidagi xolatlar belgilaydi: A) Emotsional - ruhiy xolatlar; B) Iymon - e`tiqod; V) Iymon e`tiqodning xatti- harakatlarda ifoda etilishi. Bular ayni paytda diniy dunyoqarashning asosiy tamoyillarini ham tashkil qiladi. Diniy dunyoqarashning asosini diniy e`tiqod tashkil qiladi. Diniy e`tiqod- ilohiy mavjudodlarga siginishdir. Diniy e`tiqod dinga ishonuvchi kishilar ruhiyatining tarkibiy qismi sifatida intellektual, hissiy va iroda tomonlarini o`z ichiga qamrab olgan murakkab hodisalardir. Diniy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishida diniy dasturlarning ishlab chiqilishi, turlicha diniy bayramlar, marosimlarning o`tkazilishi katta ahamiyat kasb etadi. Diniy dunyoqarashning tarkibiy qismida «Muqaddas joy»larni ziyorat qilish katta o`rin tutadi. Diniy dunyoqarash har bir davrda muayyan ijtimoiy vazifani bajarib kelgan. «Din, shu jumladan islom dini ham, ming yillar davomida barqaror mavjud bo`lib kelganining o`ziyoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganidan, uning o`ziga xos bo`lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma`naviy hayotining muayyan sohasi bo`lgan din, umuminsoniy ahloq me`yorlarini o`ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq atvor qoidalariga aylantirgan» (I. Karimov. Buyuk kelajak sari. T., «O`zbekiston» 1998, 441 bet).

Jamiyat hayotida har qanday, shu jumladan, diniy dunyoqarashning o`rni va ahamiyatini ham sun'iy ravishda mutloqlashtirish salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Bu xol ayniqsa, diniy fundamentalizm va ekstremizm insoniyat uchun jiddiy xavfga aylangan hozirgi davrda yaqqol namayon bo`lmoqda. (Bu haqda to`liqroq ma'lumot olish uchun I.Karimovning «O`zbekiston XXI asr bo'sasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», T.,1997, kitobini o`qishni tavsiya etamiz.

Bugungi kunda diniy dunyoqarashning asosiy vazifalari orasida uning hayot ziddiyotlarini bartaraf qilish bilan bo`liq reguliyativ faoliyati nihoyada muhimdir.

Falsafiy dunyoqarash. Falsafiy dunyoqarash, sodda qilib aytadigan bo'lsak bu olamhaqidagi yaxlit va sistemalashtirilgan bilimlar yig'indisidir. Falsafiy dunyoqarashning boshqa dunyoqarashlardan farqi shundan iboratki, u kishilarga tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga olamni, uning taraqqiyot qonunlarini bilish mumkinligini, bilish esa murakkab, ziddiyatli jarayondan iboratligini ta'kidlaydi. Mifologik va diniy dunyoqarashdan farqli ravishda, falsafiy dunyoqarash tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining qonuniyatlarini ilmiy asosda tushuntirib beradi. Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar mavjud olamdagi hamma narsa va hodisalar, jarayonlar o'zidan boshqa narsalar bilan ichki zaruriy, muhim va asosiy aloqadorlikda, tas'ir va aks ta'sirda ekanligini chuqur anglab oladilar. Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar jamiyatning tabiat bilan uzviy birligi, inson va insoniyat taqdirlarining mushtarakligi, turli-tuman xalqlar madaniyatining xilma-xilligi va birligi haqida ishonch hosil qiladi.

Falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundan iboratki, u dunyo qanday bo'lsa, uni shundayligicha hech bir qo'shimcha va mubola'asiz tushuntiradi. Dialektik tafakkur, falsafiy fikrlash olamning narsa va hodisalarini doimo o'zaro aloqada, harakatda, o'zgarish va rivojlanishda deb qaraydi. Hamma hodisalar o'zaro bo'liq bo'lib, biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Dunyo abadiy harakat, o'zgarish va rivojlanishda bo'ladi.

Falsafa o'z mavzusining xilma-xilligi bilan turli falsafiy to'ralarning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Bu, o'z navbatida, olam haqidagi rang-barang manzaralarni yaratishga olib kelmoqda. Dunyoni ilmiy bilish va boshqarishda bugungi kunda falsafa fanining roli tobora oshib bormoqda. Hozirgi zamon ilmiy-texnika inqilobi natijasida fan mavjud olamning eng murakkab sohalariga tobora chuquroq kirib bormoqda. Shuning uchun ham xususiy fan vakillari oldida falsafiy dunyoqarashni ijodiy egallash vazifasi kundalang bo'lib turibdi. Falsafiy dunyoqarash kishilarda keng va teran fikrlash qobiliyatini vujudga keltirish asosida ba'rikenglik, o'zaro murosa, har qanday ziddiyatlarni madaniy yo'l bilan hal qilish, kelajakka umid va ishonch ruhini shakllantirishga yordam beryapti. Ushbu savol bo'yicha kengroq ma'lumot olish uchun, Siz aziz talabalarga quyidagi adabiyotlarni o'qib konspekt qilishlaringizni tavsiya etamiz. Falsafa asoslari. T., «O'zbekiston» 2005, 18-27 betlar; Falsafa. T., «O'qituvchi», 2005, 11-16 betlar. 3. Falsafa fani tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy taraqqiyot qonunlarini o'rganuvchi fan. Boshqacha qilib aytganda falsafa voqelikdagi narsa va hodisalarning eng umumiy bo'liqligiga, o'zaro aloqadorligi va rivojlanishi qonuniyatlarini, ularning mohiyatini bilishga qaratilgan fandır. Falsafa fan va texnika taraqqiyotida ilmiy bilishning ahamiyati, bilish jarayonining asosiy bosqichlari, ilmiy bilishda aniq fanlarda qo'llanadigan uslublarning roli, fan va texnika taraqqiyotida mantiq, tafakkurlashning qonuniyatlari va shakllari kabi masalalar bilan shu'ullanadi.

Shuningdek, inson va jamiyat, inson erki va huquqlariga, ahloq odob muammolari ham keng o'rin oladi. Fan va texnikaning tez suratlar bilan taraqqiy etib borishi, jamiyatning turli sohalarida ro'y berayotgan jarayonlar falsafa fanining rivojlanishiga va uning muammolar doirasini yanada kengayishiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Hozirgi vaqtda falsafa fanining e'tibor markazida turgan masala inson muammosidir. Inson va insoniyat, ular taqdirining mushtarakligi, insonning istiqboli, fan va texnika yutuqlaridan oqilona foydalanish, har qanday urushning oldini olish, tabiatni asrash, ochlikning, turli kasalliklarning oldini olish, insoniyatni, uning madaniyatini saqlash, jamiyat taraqqiyotini oldindan ko'ra bilish, mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni tinch yo'l bilan xal qilish, xalqaro terrorizm va diniy aqidaparastlikka qarshi izchil kurash olib borish kabi masalalar falsafaning dolzarb muammolari hisoblanadi.

Olam va odam munosabatlari, dunyoning mavjudligi, borliqning voqeligi, undagi o'zaro aloqadorlik va taraqqiy etish, insoniyat hayotidagi adolat va haqiqat, yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, umrning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining asosiy tamoyillari bilan bo'liq ko'pdan- ko'p masalalar falsafa va falsafiy bilim sohalarining azaliy muammolari sirasiga kiradi.

Voqelikning eng umumiy aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatlarini, ularning inson ongida aks etish yo'llarini o'rganishga qaratilgan falsafa fani yaxlit ilmiy bilim tizimini tashkil etib, muayyan fundamental qoidalarining yi'indisiga asoslanadi. Bu qoidalar falsafa fanining o'zagini tashkil etuvchi diektik nazariyasida o'z aksini topadi.

Dialektik nazariya o'z ichiga bir- biri bilan bo'liq bo'lgan quyidagi muammolarni qamrab oladi.

1. Borliq va uning rivojlanish muammolari. Borliq olamda mavjud bo'lgan, inson atrofni qurshab turuvchi voqelikni ifodalovchi tushuncha bo'lib, u murakkab va ko'pqirralidir. Moddiy borliq, gederal borliq, inson borli'i va hokazolar. Moddiy borliq narsa va predmetlar ko'rinishida bo'lib, materiya harakatining har xil shakllarida namoyon bo'ladi. Ideal borliq insoniyat ma'naviy qadriyatlarini, fan yutuqlarini o'z ichiga qamrab oladi. Inson borli'i esa o'ziga xos manfaatga ega bo'lgan ma'lum bir ijtimoiy guruhlar va sinflarga tegishlidir.

2. Dialektika nazariyasi borliq muammosi bilan bir qatorda voqelikning o'zaro aloqadorligi, bo'liqligi va rivojlanish qonuniyatlari, ularni inson ongida aks ettirish haqidagi ta'limotdir. Dialektika- olamning bilish uslubi va rivojlanish nazariyasidir.

3. Voqelikni bilish nazariyasi moddiy olamni inson ongida aks ettirish murakkab dialektik jarayon bo'lib, uni chuqur bilish uchun falsafa fani in'ikos nazariyasini ishlab chiqqan. Bu nazariya, bilish jarayonida ob'ekt bilan sub'ketning aloqadorligi, bilishning asosiy bosqichlari va shakllari, haqiqatga

erishish dialektikasi va shu kabi ko'plab murakkab masalalarni chuqur anglab olishga yordam beradi.

Yuqorida qayd qilingan bu uchta muammolar falsafa fanining barcha tarixiy tiplar va yo'nalishlari markazida turgan muammolar xisoblanadi. Falsafaning vazifasi xilma-xil bo'lib, uning eng muhim xususiyati kishilar ongida olam haqida bir butun dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgandir. Shuningdek, falsafa metodologik harakterga ham egadir. U hamma fanlar vakillarini ilmiy bilishning asosiy shakllari, uslublari va tamoyillari bilan qurollantiradi. Falsafa gnoseologik vazifani ham bajaradi. U tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni bilishning qonuniyatlarini, bilish jarayonida ob'ekt va sub'ekt dialektikasini atroflicha ochib beradi. Falsafa fanini o'rganish natijasida shaxsning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi shakllanadi. Shu bilan birga, falsafa shaxsda jamiyat oldidagi ijtimoiy ma'suliyat hissini uy'otadi. Falsafaning bu xususiyati hozirgi davrning dolzarb masalalari- ona sayyoramizda tinchlikni saqlash, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi izchil kurashish, ekologik va boshqa umumbashariy muammolarni insoniyat manfaatlarini nuqtai nazaridan hal etish zaruriyati tufayli yanada chuqur ahamiyat kasb etmoqda.

Falsafaning 'oyaviy- siyosiy, tarbiyaviy uslubiy, gnoselogik, evristik vazifasini ham alohida qayd qilish lozim. Bu haqda «Falsafa asoslari». Toshkent, «O'zbekiston», 2005, kitobining 33-35 betlarini o'qishingizni tavsiya etamiz.

Falsafaning oliy maqsadi insonparvarlikdir. Shuning uchun inson, insoniyat, insoniylik hozirgi zamon gumanistik falsafaning asosiy masalalari umuminsoniy qadriyatlar to'risidagi ta'limot asosiy o'ringa chiqdi. Bu soha umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlarning uy'unligini ko'rsatish, ularning mazmunini tushuntirish vazifasini qo'yadi.

4. Aziz talabalar! Falsafiy muammolar bilan bo'liq bo'lgan oqim va ta'limotlarning paydo bo'lishini olam va odam munosabatlaridan, olamning asosida nima yotadi, uni voqe etib turgan narsaning mohiyati nimadan iborat degan savolning falsafa tarixini o'rganish va echimini topishdan izlamoq kerak.

Qadimgi Yunonistonda bu masala «Substantsiya» tushunchasi va uning mazmuni qanday tushunishiga qarab o'ziga xos ifodalangan. Substantsiya deganda olamdagi narsalarning mohiyati haqidagi fikr va mulohazalar tushunilgan. Qadimgi Yunoniston matematigi va faylasufi Pifagor hamma narsa sonlardan tashkil topgan degan bo'lsa, Platon (Aflotun) Substantsiya - 'oyalardan iborat degan, Demokrit esa olamning asosida atomlar - mayda bylinmas zarrachalar yotadi deb ta'kidlagan. Bu masalalarni qay tarzda 'al qilinishiga, echimiga qarab falsafa tarixida turli oqim va yo'nalishlar paydo bo'lgan. Masalan, olamning asosida nima yotadi, uning mo'iyati nimadan iborat degan savolning echimiga qarab falsafa tarixida monizm, materializm, idealizm, plyuralizm kabi qator falsafiy ta'limotlar shakllangan.

Monizm - (yunoncha- monos,ya'ni yakka ma'nosini anglatadi) - olamning asosi yakkayu- yagona sababga, bitta asosga ega deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot.

Materializm - olamni asosida moddiy narsalar,ya'ni materiya yotishini e'tirof etadigan,moddiylikni birlamchi deb qaraydigan falsafiy ta'limotdir.

Idealizm - olamning asosida ong, ru?, `oyalar(ideyalar) yotadi,dunyo voqeligi va olam rivojida `oyalarni ustivor deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot.

Dualizm - (lotincha - dua,ya'ni ikki degan ma'noni ifodalaydi) - olamning asosida modda va materiya bilan birga ru? va `oya,ya'ni ideya yotadi deb qarovchilar.

Plyuralizm- (lotincha- plyural, ya'ni ko'plik) - olamning asosida ko'p narsa va ideyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limot. Falsafada olamni bilish mumkinmi?,uning umumiy qonunlarini anglashga inson qodirmi?, degan savollarga javob berish ?am mu?im a?amiyatga egadi. Bu savollarni echimi bilan falsafaning gnoseologiya (yunoncha- gnosis - bilish, logos- ta'limot) degan maxsus so?asi shugullanadi. Dunyoni bilish mumkin,inson olamni bilishga qodir deb xisoblaydigan faylasuflarni Gnostiklar deb atashadi. Olamni bilish mumkin emas, inson bilimlari olam sirlarini to`ri va aniq bilolmaydi deyuvchilarni agnostiklar (yunoncha-a «yo`q», gnozis - «bilim». Bilib bo`lmaydi) deb atashadi.

Tayan ch tushunchalar.

Falsafa, faylasuf, falsafiy muammolar, dunyoqarash, mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafaning umuminsoniyligi, materializm, idealizm, dualizm, monizm, substantsiya, plyuralizm, agnostitsizm, gnostiklar.

Takrorlash uchun savollar.

1. Falsafa atamasining lu`aviy ma'nosi nima? Bu haqda Sokrat va Farobiy fikrlarini aytig.
2. Dunyoqarash tushunchasi nima?Dunyoqarashning tarixiy tiplari va ularning bir biridan farqi nimada?.
3. Falsafaning predmeti nimadan iborat?
4. Falsafaning baxs mavzulari nimalardan iborat?
- 5.Falsafaning asosiy vazifalarini qanday tushunasiz?
6. Falsafaning umuminsoniyligi deganda nimani tushunasiz?
7. Falsafiy muammolar bilan bo`liq qanday oqim va ta'limotlarni bilasiz?

Adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.,«O`zbekiston», 1998 yil
2. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk keljakka ishonchdir. T., «O`zbekiston», 2000 yil.
3. Falsafa (o`quv qo`llanma) E.Yu. Yusupovning umumiy taxriri ostida. T., «Sharq», 1999 yil, 7-46 betlar.
4. Falsafa (ma`ruzalar matni) T., 2000 yil 8-35 betlar.
5. Karimov I.X. Falsafa fanidan ma`ruza (leksiya) matnlari. T., 2003 yil, 10-18 betlar.
6. Tulenov J., Falsafa fani va uning xususiyatlari I- bo`lim TDPU nashryoti, 2001 yil ,3-35 betlar
7. Falsafa: Qomusiy lu`at.,T, 2004 yil
8. Falsafa asoslari T., «O`zbekiston», 2005 yil, 6-45 betlar.
9. Falsafa T., «O`qituvchi», 2005 yil, 8-35 betlar.

2-MAVZU: QADIMGI SHARQ VA ANTIK DUNYO FALSAFASI

Reja:

1. Vatanimiz hududidagi eng qadimgi falsafiy qarashlar
2. Qadimgi Bobil, Misr, Hindiston va Xitoy falsafasi
3. Antik dunyo va Yunoniston falsafasi
4. Qadimgi Sharq va Antik dunyo falsafasini o'rganishning ahamiyati, uning jahon madaniyatiga ta'siri.

1. Aziz talabalar! Shuni yodda tutmoq lozimki, tarixni bilish, undan to'ri xulosa chiqarish inson ma'naviy kamoloti uchun nihoyatda muhim. Tarixni falsafasiz to'ri tushunib bo'lmagani kabi, falsafani ham tarix haqiqatisiz to'ri anglab bo'lmaydi. Shularni nazarda tutib aytish lozimki, Markaziy Osiyo jahonning ilm- fan, falsafa, adabiyot va san'at uzoq o'tmishda rivojlangan, tarixi boy mintaqalardan iridir. Iqlim sharoiti va geografik muhiti qulay bo'lgan shu muqaddas zaminda odamzodning o'troqlik turmush tarzi erta boshlangan. Shu sababli olam va odam haqidagi ilk falsafiy tasavvurlar boshqa Sharq mamlakatlari qatori Markaziy Osiyoda ham ertaroq vujudga kelgan. Markaziy Osiyo hududida yashagan avlod ajdodlarimizning qimmatbaho falsafiy fikrlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishimizda «Avesto», «Behistun», «Denkard» kabi yozma yodgorliklar muhim tarixiy hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. «Avesto» da aks etgan asosiy falsafiy `oyalar, diniy dunyoqarashlar zardusht nomi bilan bo'liq bo'lib, din ham shunday nom bilan ya'ni zardushtiylik deb ataladi.

«Avesto» haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish istagida bo'lgan talabalarga quyidagi kitoblarni o'qib qisqacha konspekt qilib olishlarini tavsiya qilamiz. «Avesto» T., «Sharq», 2001; Tilab Mahmudov. «Avesto» haqida T., 2000 y; «Avesto»da zamin va zamon talqini. T.: 2001 y. «Avesto»da o'tmish ajdodlarimizning falsafiy- diniy tasavvurlari, olamning yaratilishi bilan bo'liq afsona va rivoyatlar, qadimgi Turon o'lkasining tarixi, geografisi, ilmi- fani, tabiati, iqlimi, suvi, er tuzilishi, o'simliklar va hayvonot dunyosi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. «Avesto»da odamlarni mehr- oqibatli, iymonli bo'lishga, tanani pokiza tutishga, yomon niyat, yomon so'z, yomon ishlardan tiyilishga da'vat etadigan axloqiy qoidalar va falsafiy `oyalar nihoyatda ko'p. «Avesto»dagi eng muhim falsafiy fikrlardan biri dunyoning moddiy asosi deb hisoblangan olov, tuproq havo va suv muqaddaslashtiriladi. Er, suv va havo shunday e'zozlanganki erni, havoni bul'ash, ifloslantirish, hayvonlar o'ligi u yoqda tursin insonlar jasadini ham erga ko'mish, suvga oqizish, olovda yoqish gunohi azim hisoblangan, marhumlar erni, suvni, havoni zaharlab qo'ymasliklari uchun ularni jasadlarini maxsus sapol idishlarga qo'yib ko'mish rasm bo'lgan.

Zardushtiylik diniga amal qilgan ajdodlarimiz olovga va suvga sajda qilganlar, quyoshni ilohiy mavjudod deb bilganlar. «Avesto»da qayd etilgan

yana bir muhim falsafiy `oyalardan biri - insonlarni mehnat qilishga, moddiy boyliklar yaratib, farovon hayot kechirishga da'vat etilganligidir.

«Avesto»da dehqonchilik bilan shu`ullanishga alohida e'tibor qaratilgan. Baraka uru`ini erga sepib mo`l hosil etishtirish, mevali daraxtlar ekib bo`lar yaratish o`n ming marta ibodat qilish va yuzlab jonivorlarni qurbonlikka so`yishdan afzal hisoblangan. «Avesto»da yozilishicha ekin o`stirish erdagi yovuzliklarga barham berish demakdir. Hosil erdan unib chiqqanda,- deyiladi «Avesto»da devlar larzaga keladi, `alla yanchib un qilinayotganda, devlar qocha boshlaydi, xamir qilinayotganda esa ular mahv bo`ladi. ~allaning mo`l- ko`l bo`lishi.go`yo devlarning badaniga qizitilgan temir bosganday ulargaazob berib tumtaraqay qiladi.

Shunday qilib, «Avesto» dunyoda eng qadimgi din bo`lgan zardushtiylikning muqaddas kitobi bo`lishi bilan birga ajdodlarimizning uzoq o`tmish tarixi va tafakkuri taraqqiyotining qomusiy yi`indisi, yozuvi, tili, falsafasi, madaniyatining manbai hamdir.

Zardushtiylik dinining Markaziy Osiyo mintaqasida paydo bo`lishi jahon ma'naviy madaniyati rivojida muhim bir bosqich bo`ldi. Uning `oyalari ta'siri ostida hozirgi jahon dinlari shakllanadi. Miloddan avvalgi so`ngi asrlarda hamda eramizning I-II asrlarida manixeylik harakati va ta'limoti vujudga kelgan. Uning asoschisi asli Iroqlik diniy faoliyatini Markaziy Osiyoda davom eetirgan Moniydir. (216-277). Moniy zardushtiylik, yahudiylilik va xristianlik dinlarini qorishmasidan iborat yagona din yaratish uchun harakat qildi. Uning ta'limotiga ko`ra, borliq ikki substantsiyaga ega. birinchisi yoru`lik, yaxshilik va ruh olamidan iborat bo`lib, uning asoschisi xudodir. Ikkinchisi yovuzlik, zulmat va materiya (moddiy olam) bo`lib, unga shayton rahnamo bo`ladi. Moniy ta'limotiga ko`ra odamzot nur va zulmat farzandidir, u nur kuchlariga yordam bersa, ravnaq topadi. Moniylik ta'limotida adolat, erkinlik, mehnatga intilish kabi `oyalar tar`ib qilinadi.

Moniylik mehnatkash xalq ommasi manfaatlarini himoya qiluvchi ta'limot bo`lgani sababli o`z davrining hukmron mafkurasi qarshiligiga duch kelgan. Bu haqda falsafa asoslari kitobining T.: «O`zbekiston», 2005 y, 49-50 betlarni o`qib chiqing. V-VI asrlarga kelib zardushtiylikka, hukmron ruhoniylarga qarshi mazdakizm ta'limoti shakllandi. Uning asoschisi Mazdak (470-529)dir.

Dastlab Eronda, so`ngra Markaziy Osiyoda tarqalgan Mazdakizm ta'limotiga binoan, olamda bo`ladigan jarayonlar ongli va biror maqsadni ko`zlab harakat qiluvchi ezigulik, yoru`lik manbai bilan ko`r- ko`rona va tasodifiy harakatlanuvchi qoron`ulik, johillik manbai o`rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurashda yaxshilik, ezigulik yomonlik- johillik ustidan `alabasi bilan tugallanadi.

Mazdakizm boy- badavlat oilalar, kamba`al- nochor oilalarga moddiy yordam berishlari kerakligi `oyasini ilgari surganlar Mazdakchilar

dehqonlarning huquqlarini himoya qilib, jamiyatda adolat, erkinlik, teng huquqlilik tamoyillarini qaror toptirishga da'vat etgan.

Aziz talabalar! Ijtimoiy- falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi xususida yuqorida qayd etib o'tilganlarning hammasi, ayrim tadqiqotchilarning, falsafiy bilimlar Sharqda rivojlangan emas, falsafiy ta'limot ~arbda boshlangan degan asossiz davolari tarixiy haqiqatga mutloq zid ekanligini falsafa tarixini o'zi ko'rsatib va isbotlab turibdi.

2. Sharqning o'ziga xosligi unga mansub madaniy taraqqiyot jahon sivilizatsiyasining beshigi dunyo xalqlari rivojiga qo'shilgan munosib hissa ekani hech kimga sir emas. Bu hol jahonning barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e'tirof etiladi. Qolaversa, Vatanimiz sivilizatsiyasining Sharq sivilizatsiyasi qucho'ida voyaga etgani va uning qadriyatlarini o'zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta'sir ko'rsatganini doim esda tutishimiz lozim. Sharq madaniyati taraqqiyotining ilk davrlari deganda ko'pgina mutaxassislar bizning Vatanimiz o'tmishini, Misr, Bobil va insoniyat arixining eng qadimgi sivilizatsiyasining biri bo'lgan Shumer avrlarini esga oladi.

Ko'xna Sharq sivilazatsiyasining beshiklaridan biri bo'lgan Misr, qadimgi zamonda ilk o'troq hayot va o'ziga xos dehqonchilik an'analari oshlangan Nil daryosi bo'ylaridagi yuksak madaniyat jahon olimlari iqqatini o'ziga tortib kelmoqda. Qadimgi Misr va Bobil madaniyati. Eramizdan avvalgi to'rtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki afsonaviy diniy va falsafiy fikrlar, olam haqidagi fanlar kurtaklari, ya'ni matematika, astronomiya, kosmologiya, mifologiyaga oid qarashlar bir muncha rivoj topgan. Fan kurtaklarining paydo bo'lishi, tabiiy- ilmiy, diniy va falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi, ikki yo'nalishda borgan. Birinchi yo'nalish olam haqidagi tasavvurlarning rivoji bilan bo'liq ekani, ikkinchi yo'nalish esa, bu tasavvurlarning mifologiya bilan bo'liq bo'lganini ko'rsatadi. Birinchi holda, asosan, tabiiy bilimlarga tayanilgan, kundalik hayotda duch kelinadigan voqea- xodisalar aniq dalillar asosida taxlil etilgan, o'rganilgan ulardan tegishli xulosalar chiqarilgan. Bu- o'sha davr uchun tabiiy hol edi. Ya'ni u- davrning inson ongida aks etishi, kundalik turmush hodisalarining oddiy bir tarzda ifodalanishi edi. Aynan ana shu xol tabiiy bilimlar rivojiga garchand sodda tarzda- bo'lsa-da, askariyat hodisalarining falsafiy asosda izohlanishiga sabab bo'lgan. Ikkinchi holatda esa hali tabiat kuchlarining qarshisida nihoyatda o'jiz bo'lgan odamzod albatta tevarak atrofdagi voqea- hodisalarni mifologik izohlash tabiiy bir xol edi. Misrliklar o'simliklarni shifobaxshlik xususiyatlarini o'rganishga, kasalliklarni keltirib chiqaradigan sabablarni aniqlashga bo'lgan qiziqishlari farmakologiya va tibbiyot fanlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Misrliklar o'zlarining dunyoviy, diniy va falsafiy asarlarida odamlarning bu dunyoning barcha noz- ne'matlaridan to'la bahramand bo'lib yashashga,

shod- xurram hayot kechirishga, o'lim, oxirotda haqida xadeb uylayvermaslikka chaqirgan.

Qadimgi Misr mifologiyasida hamma narsa suvdan paydo bo'lgan va hamma narsada havo bor, deyiladi. Shuning uchun ham Misrlilar suvni odamga oziq ovqat beruvchi ulu' ne'mat deb bilganlar. Misrlilarning xalq o'zaki ijodida, ayniqsa, diniy- mifologiya asarlarida tabiat hodisalari va tabiat kuchlari ilohiylashtirilgan.

Qadimgi Misrda falsafiy fikr kurtaklarining shakllanishi va rivojida tabiatshunoslik fanlarning paydo bo'lishi ham sabab bo'lgan. Osmondagi yulduzlarni doim kuzatish natijasida sayyorlarni yulduzlardan ajrata bilganlar va yulduzlar xaritasini ham tuzganlar. Misrlilar falakiyotga oid bilimlari asosida alohida taqvim tuzganlar. Taqvim yili 12 oyga bo'lingan. Har bir oy 30 kundan iborat bo'lgan, yil oxiriga esa yana 5 ta bayram kuni qo'shilgan. Shunday qilib bir yil 365 kun bo'lgan.

Qadimgi Misr va Bobilda shakllangan falsafaning eng asosiy xususiyati shundan iborat edi, ular, bir tomondan xudolarga ishonch ilohiy kuchlarning tabiat va jamiyatga ko'rsatadigan ta'sirini mutloqlashtirish xususiyati ustuvor bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan afsona va rivoyatlar tarzida bo'lsa-da, dunyoviy bilimlar, ilmiy qarashlar ham asta-sekin shakllana boshlagan. Umuman, bunday xususiyatni, qadim zamondagi barcha sivilizatsiyalarga xos deyish mumkin. Qadimgi Hindiston falsafasi. Qadimgi Hindiston ham insoniyat tsivilizatsiyasining beshiklaridan biridir. Unga xos dastlabki ta'limotlar yozma manba- «Veda»larda o'z aksini topgan. «Veda»lar eramizdan bir yarim ming yil oldin yozilgan bo'lib, hindular uchun oliy muqaddas ilm va bashorat kitobidir. Hindular «Veda»ni oliy tangri Braxma tomonidan aytilgan so'zlar deb biladi. «Veda»da hindularning qadimgi tarixi, iqtisodiyoti, dini, falsafasi, axloq va nafosatga oid ko'plab fikrlari aks etgan, «Veda»lar bizgacha to'rtta to'plam (samxit)lar shaklida etib kelgan. Bular «rigveda», «samaveda», «Yajurveda», «Adxarvaveda»dir «Veda»da borliqning bosh manbai, moddiy ibtidoiy deb hisoblangan suv, olov, havo, tuproq, yoru'lik hamda fazo, vaqt haqidagi, shuningdek, olamni tuzilishi va uni boshqaruvchi qonunlar, inson bilimining manbalari kabi bir qator falsafiy masalalar yoritilgan.

Hind falsafasi asoslari «Upanishadalar» nomi bilan mashhur bo'lgan manbaalarda ham o'z aksini topgan. «Upanishadalar» sirli bilim degan ma'noni anglatib, «Veda»larning falsafiy qismini tashkil etadi.

«Upanishadalar» yaxlit kitob yoki falsafiy risola bo'lmay, balki turli vaqtda turli mavzuda ijod qilgan noma'lum mualliflarning mantlaridan iborat.

Qadimgi hind falsafiy oqimlaridan biri- «Charvaka» nomi bilan ataladigan oqimdir. Bu oqim tarafdorlari dunyoni, tabiat hodisalarini qanday bo'lsa o'shanday tushuntirmoq kerak degan talabni ilgari surgan edilar.

Ularning nuqtai nazaricha, butun olam suv, havo, tuproq, olov yì`indisidan iborat, inson ham ana shu to`rt unsur birikmasidan tashkil topgan.

Chorvakalar olamni hech kim yaratgan emas, balki uning zaminida moddiy elementlar birikishi yotadi deb hisoblashgan. Qadimgi hind falsafasini chuqurroq o`rganishni istagan talabalarga buyuk bobokolonimiz Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asarini o`qib chiqishlarini tavsiya qilamiz. Abu Rayhon Beruniy, Tanlangan asarlar II tom, Toshkent, «Fan», 1965. Qadimgi Hindistondagi falsafiy ta`limotlarni batafsil o`rganishni xohlasangiz quyidagi kitoblarni o`qib chiqishingizni tavsiya qilamiz. Falsafa asoslari. T., «O`zbekiston», 2005 y, 54 bet. Falsafa. T.: «O`qituvchi», 2005 y, 37-38 betlari.

Qadimgi Xitoy falsafasi. Qadimgi Xitoydagi dastlabki falsafiy ta`limotlarda olam abadiy, u besh unsur suv, olov, er, daraxt va metaldan tashkil topgan deb uqtiriladi. Eramizdan oldingi VII-VI asrlarda Xitoyda Dao qonuniga binoan harakat qiluvchi Pi elementining mavjudligi haqida fikr yuritildi.

Xitoy faylasuflari fikricha, olam hodisalari SI degan moddiy zararlardan tarkib topib Dao degan qonunga bo`ysunadi. «Daosizm» «dao» so`zidan olingan bo`lib «yo`l», «taraqqiyot», «dunyo negizi» degan ma`nolarni bildiradi.

Daosizmning asoschisi Lao- szi bo`lib, u dunyo abadiy harakat va o`zgarishda bo`ladi deb hisoblagan. Olam va tabiatning paydo bo`lishini o`ziga xos tarzda tushuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o`z ta`sirini o`tkazgan.

Bunday ruhdagi falsafiy `oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy (55-479) ijodida yaqqol aks etgan. Konfutsiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. Osmon irodasi- taqdirdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtai nazarga ko`ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini aks ettiradi. Konfutsiyning ta`kidlashicha, shaxs faqat o`zi uchun emas, balki jamiyat uchun yashashi kerak. Konfutsiy ta`limotida insonning hayotidagi ijtimoiy o`rni nihoyatda ulu`, o`ziga ravo ko`rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko`rmasligini, o`ziga ravo ko`rgan narsani boshqalarga ham ravo ko`rishi lozim. Konfutsiyning qarashlari keyinchalik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlik, erkinlik `oyalari takomilida muhim o`rin tutgan. Bu ta`limot Xitoyda ikki ming yil davomida davlat dini darajasiga ko`tarilgan va xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Konfutsiy ta`limoti haqida batafsil ma`lumot olish istagida bo`lgan talabalar quyidagi adabiyotlarni o`qib chiqsalar yaxshi bo`ladi. Konfutsianstvo. Filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar M., 1999 y, 278-279 betlar. Falsafa T., «O`qituvchi», 2005 y, Falsafa asoslari T.: «O`zbekiston», 2005 y, 55-56 betlar. Qadimgi Yunoniston va Rim falsafasi. Qadimgi davr falsafasining yana bir sulolasi Yunoniston va Rimga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar- antik davr falsafasi deb yuritiladi. Yunonistonda dastlabki falsafiy ta`limotlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlar o`rtasida Melit shahrida rivojlangan. Milet

maktabi vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimanlardir. Uning asoschisi Fales eramizdan avvalgi (624-547 yillarda yashagan) U yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, o'z davrining etuk faylasufi bo'lgan. Fales ta'limotiga ko'ra tabiatdagi, turli tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi va bu moddiy birlik doimiy o'zgarishda bo'ladi. Anaksimandr (Falesning shogirdi) eramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI asr o'rtalarida yashab ijod etgan. Fales olamning asosiga suvni qo'ygan bo'lsa, Anaksimandr dunyo- cheksiz, gazsimon apiyondan iborat, issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik apiyondan ajralib chiqib, moddaning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Uning ta'limotini vatandoshi, shogirdi Anaksiman davom ettirdi. Anaksiman (eramizdan avvalgi 588-525 yillar) havo- olamining asosi deb bilgan. Uningcha havoning quyuqlashishidan suv, er, tosh kabi moddalar tashkil topgan, siyraklashishdan esa olov paydo bo'lgan. Yana bir yunon faylasufi Geraklit (eramizdan avvalgi 520-460 yillar) u stixiyali dialektikaga asos solgan, olov- olamning asosi, deb bilgan. Uning fikricha olamda hamma narsa harakatda. «Oqar suvga ikki marta tushish mumkin emas, chunki suv har daqiqada yangilanib turadi». Harakat butun tabiatga, barcha jism va hodisalarga hosdir. Abadiy harakat-abadiy o'zgarishdir deb hisoblagan.

Geraklitning qarashlari falsafiy tafakkur rivojiga katta ta'sirko'rsatgan. Pifagor (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) U qadimgiyunonistonda diniy mafkuraviy falsafiy maktab ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Uningcha dunyoni bilish jarayoni, avvalo raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra olamning asosini ideallashgan raqamlar tashkil qiladi. Pifagorchilar birinchi bo'lib Yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashuchun miqdor kategoriyasini ilgari surishdi.

Eley falsafiy maktabi namoyandasi Ksenafant (eramizdan avvalgi VI-V asr) shoir va faylasuf bo'lgan. U kichik Osiyoda dunyoga kelgan. Ilm olish maqsadida Yunonistonga janubiy Italiyaga sayohat qilib umrining so'ngi yillarini Eley shahrida o'tkazgan. Ksenafant ko'p xudolikka, hamda insonlarga hos sifatlarni hayvonlarga, o'simlik dunyosiga dahildor deb biluvchi ta'limotga qarshi chiqib mifologiyani rad etishga harakat qilgan. Uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, tabiat- o'zgarmas va harakatsizdir, «hamma narsa erdan unib chiqadi va pirovardida yana erga qaytadi». Ksenafant qadimgi yunon faylasuflaridan birinchi bo'lib, bilishning imkoniyati va chegarasi haqida fikr yuritgan. Bu qadimgi yunon Gnoseologiyasining rivojiga turtki bo'ldi. Qadimgi yunon madaniyatida sofistlar falsafasi katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (Inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'rtisidagi fan) muammolari bilan shu'ullangan. Sofistlar yangi kasblarning mohir ustalari, ya'ni o'qituvchilar, diplomatlar, notiqalar, sud mahkamalarida ishlovchi mutaxassislaridan iborat bo'lib, haqiqat, osoyishtalik, adolat o'rnatishga xizmat qilgan. Ularning ta'limoti

Suqrot falsafasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Suqrot (eramizdan oldingi 469-399 yillar) (asli- Sokrat) qadimgi yunon faylasufi. Afinaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etganyoshlar tarbiyasi bilan shu'ullangan, hur fikrli inson, kamba'aldan chiqqan tosh kesuvchilarning o'li, o'ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo'lgan.

Suqrot va uning tarafdorlari jamiyat qonunlariga, ular qanday bo'lishidan qa'tiy nazar so'zsiz itoat etishini tar'ib etganlar. Suqrot o'z ta'limotini o'zaki rashida ko'cha- ko'yda, maydonlarda, hiyobonlarda shogirdlari va izdoshlari bilan shakllantirgan va xalq ongiga singdirishga harakat qilgan, lekin birorta ham asar yozmagan uning falsafiy, axloqiy ta'limotlari mohiyatini shogirdlari Ksenafant, Aristafan va Aflotunlarning asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Ksenafant «Suqrot haqida estaliklar» asarida o'z ustoziga haqida iliq so'zlar aytib uni oliy janob, axloq odob borasida haqqoniy fikr yuritgan inson sifatida ta'riflagan. Aflotun esa chuqur mulohazali, insonni ulu'lovchi donishmand, deya ta'riflagan. Uning falsafiy qarashlarini o'z asarida Suqrot nomidan bayon etgan. Suqrotning fikricha, falsafaning markazida axloq masalalari turmo'i lozim. Suqrotning shogirdi Aflotun (asli- Platon) jahon falsafasi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomadir. U nafaqat faylasuf olim, balki san'atkor, shoir va dramaturg bo'lgan, o'z 'oyalarini dialoglar tarzida bayon qilgan. O'zidan keyin 35 dan ziyod dialog shaklidagi asarlar yozib qoldirgan.

Aflotun «~oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» ta'limotining asoschisidir. Uningcha, 'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo esa uning soyasidir. Haqiqiy o'zgarish va taraqqiyot 'oyalar dunyosiga hos, soyalar dunyosidagi harakat esa uning aksidir. ~oyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bilolmaydi. Ularni biladigan zotlar nihoyatda kam uchraydi, ular ulkan aql egasi bo'ladi va tarixda chuqur nom qoldiradi. Aksariyat kishilar esa soyalar dunyosi bilan kifoyalanadilar.

Aflotunning jamiyat va davlat to'risidagi ta'limoti uning dunyo qarashida markaziy o'rinlardan birini tashkil etadi. U antik davr falsafasi- Ontologiya va gnoseologiyaning klassigi bo'lib qolmay, mumtoz antik siyosiy nazariya va pedagogikaning bilimdoni ham bo'lgan.

Aflotun ijtimoiy- siyosiy masalalarga doir bir necha asarlar yozib qoldirgan. Uning «Davlat» nomli asarida jamiyat haqida, uning ideal siyosiy tuzum va davlat to'risidagi orzulari negizida adolat 'oyasi yotadi.

Aflotun ta'kidlashicha odil jamiyatdagi qonun va qoidalarga bo'ysunishi ijtimoiy- taraqqiyotning garovidir. Aflotunning shogirdi va safdoshi Arastu (384-322 yillar) asli Aristotel qadimgi Yunonistonning buyuk entsiklopedik olimi va faylasufi o'zining betakror, jahonni lol qoldirgan ilmiy merosi bilan mashhurdir.

Makedoniya podshosi Filipp II ning taklifiga binoan, uning o'li Aleksandr ga 3 yil mobaynida saboq berib muntazam ustozlik qilgan.

Keyinchalik dunyoni zabt etib, johongirlik maqomiga ko'tarilgan Aleksandr Makedonskiyning Sharqda Iskandar Zulqarnayning kamolotida Arastuning xizmatlari beqiyos bo'lgan.

Qadimgi dunyoning eng buyuk mutafakkiri Arastu zabardast olim bo'lib falsafa, notiqlik san'ati, tabiiy fanlar bo'yicha o'lmas bebaho asarlar yozib qoldirgan. Uning barcha asarlari borliqni o'rganishga qaratilgan. Arastu moddiy olam abadiy va ob'ektiv xususiyatiga ega bo'lib, u hech qanday «oyalarga» muxtoj emas, tabiat o'zgarishda rivojlanishda deb qaraydi.

Arastu kategoriyalar tushunchalar, mulohaza va xulosalar to'rtinchi ta'limotlarni kashf etdi, falsafa tarixida birinchi bo'lib kategoriyalar tizimini ishlab berdi. Shuning bilan birga u kategoriyalarning bir-biri bilan aloqadorligini, bir-biriga o'tishini isbotlab berdi.

Arastu qadimgi yunon faylasuflari orasidagi eng mashhur, etuk olim sifatida jamiyatga oid muhim masalalar haqida ham ajoyib fikrlar bildirgan. Mantiqqa oid asarlarning barchasini «Organon» (Qurol) nomli asariga jamlagan. Faylasuf barcha fanlarni ikki turga - nazariy va amaliy fanlarga bo'lgan.

Qadimdagi Yunonistonning eng mashhur faylasuflaridan biri. Demokritdir (mill. avvalgi 460-370 yillar) Demokritning nuqtai-nazaricha dunyo moddiy bo'lib abadiy va poyonsiz cheksiz chegarasiz reallikdir, olam eng mayda zarachalardan ya'ni atomlardan va bo'shliqdan iborat deya ta'lim beradi. Atomlar va bo'shliq o'zaro yaxlit abadiy ibtidodir. Atomlar bo'linmas va o'zgarmas sifat jihatdan bir xil uning miqdori shakli singari behisobdir, harakat degan edi.

Demokrit atomlardan iborat moddaning abadiy tabiiy xolatdir degan Demokrit tasodifiy inkor etgan. U ong va ruh ham atomdan iborat deb hisoblagan. Demokritning falsafiy qarashlarida axloqiy ta'limot muhim o'rin tutadi. Demokrit qadimiy Yunonistonning qomusiy olimi edi.

Demokritning merosida insonparvarlik, vatanparvarlik, axloq-odob, e'tiqod, vijdon, or-nomus va boshqa oliyanob insoniy fazilatlarni shakllantirishga oid qimmatbaho fikrlar mavjuddir. Donolik deydi- Demokrit yaxshi fikrlash, yaxshi so'zlash, yaxshi harakat qilishdir.

Epikur (341-270 yillar)- qadimgi Yunon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori po'onaga ko'targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta'limotiga ko'ra, olam moddiy, abadiy va cheksiz, atomlar jism va bo'shliqdan iborat. Atomlar doim bo'shliqda harakat qiladi, harakat esa mangudir.

Epikur olam cheksiz, son- sanoqsiz bo'lib ba'zilar biz yashayotgan dunyoga o'xshasa, ba'zilar o'xshamaydi degan edi. U dinning ashaddiy dushmani bo'lgan.

Epirun ta'limotini Rimlik Lukretsiy Kar (eramizdan avvalgi 99-55 yillar) davom ettirgan. U «Narsalarning ta'limoti to'rtinchi» nomli asari bilan mashhur bo'lgan. Uning fikricha yashashdan maqsad baxtli hayot kechirishdan iboratdir. Jamiyat ham xuddi tabiat kabi o'z qonunlariga ega hamda tabiat qonunlariga

tayangan holda rivoj topadi deydi. Lukretsiy uning falsafiy qarashlari o'sha davr va o'rta asr Evropa falsafasi rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Lukretsiy Kar fikricha (materiya)- abadiy, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib, shaklini o'zgartirib yashash - uning xossasi. Olamdagi barcha narsalar ikkita - oddiy va murakkab turga bo'linadi. Lukretsiy Kar atom harakatining uchta turini sanab o'tgan. Bular- narsaning o'irlikka ega bo'lgani uchun to'ri chiziqli harakati, narsaning o'zicha o'ish harakati, narsaga turtki bo'lgan asosga qaratilgan harakat. Lukretsiyning nazariyasi mohiyatan sodda bo'lsada tabiatshunoslik rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Tayanch tushunchalar

«Avesto», zardushtiylik dini, Moniy, Mazdak ta'limoti, «Veda», Chorvaka, Konfutsiy ta'limoti, Daosizm, millet Maktabi, Eley maktabi, «~oyalar dunyosi va soyalar dunyosi».

Takrorlash uchun savollar

1. «Avesto» haqida nimalarni bilasiz?
2. Zardushtiylik va «Avesto»da aks etgan falsafiy `oyalarnigapirib bering
3. Moniy va Mazdak ta'limotlarining mohiyati nimada?
4. Qadimgi Misr va Hindiston falsafasiga xos xususiyatlarni gapirib bering.
5. Konfutsiylik nima?
6. Laosizm falsafasini gapirib bering.
7. Milet va Eley falsafiy maktablari vakillari to'risida nimalarni bilasiz.
8. Aflotunning `oyalar dunyosi haqidagi ta'limotining mohiyati nimadan iborat?
9. Demokrit, Geraklit, Sokrat, Arastu, Epikurlarning ta'limotlari mohiyati nimadan iborat.
10. Lupretsiy Kar kim?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., «O`zbekiston», 1998.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., «O`zbekiston»,1994.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 1996.
4. «Avesto» T., «Sharq», 2001.
5. Abu Rayxon Beruniy. Tanlangan asarlar. II tom T.,
6. Yo`ldoshev S Antik falsafa T., 2001
7. Falsafa asoslari. T., 2005.
8. Falsafa T. 2005.
9. Falsafa qomusiy lu`at. T.: 2004.
10. Tulenov J. Falsafa fani va uning xususiyatlari. TDPUnashriyoti, 2001 y.

3- MAVZU: O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI ILK O'RTA ASRLAR VA TEMURIYLAR DAVRI FALSAFASI, UNING JAHON MADANIYATIDAGI O'RNI.

Reja:

1. Ilk o'rta asrlarda dunyoviy bilimlar rivoji va falsafiy tafakkur
2. Xorazmiy, Far`oniy, Farobiy, Beruniy va Ibn Sinolarning tabiiy- ilmiy va falsafiy qarashlari,ularning jahon fanlari rivojiga qo'shgan hissalar.
3. Temuriylar davri va o'rta asrlar falsafasi.
4. Ulu'bek, Navoiy va Bobur o'rta asrlar madaniyatining atoqli vakillari.

1. Aziz talabalar! Mazkur mavzuga asos bo'lgan davr arab istilosiva Markaziy Osiyoda islom dinining taraqqiy etishi bilan uzviy bo'liqdir. Bu davrda madaniy jonlanish va yuksalish jamiyat hayotining barcha sohalariga

kirib bordi, ma'naviy hayotda tub burilish yasadi. Ijtimoiy taraqqiyotning ana shu davrida Markaziy Osiyo farzandlari ulu' bobokalonlarimizning islom diniga, islom falsafasiga, butun arab dunyosi va jahon faniga katta ta'sir ko'rsatadigan ta'limotlaridunyoga keldi. Mintaqamizning jahon madaniyati taraqqiyotining yirik va markaziy o'choqlaridan biriga aylanishi shu davrga to'g'ri keladi. Bu Amudaryo va Sirdaryo bo'ylarida yashagan xalqning dahosi eng yuksak darajaga ko'tarilgan, uning atoqli vakillari jahon madaniyati sahifalariga o'zlarining uchmas nomlarini muhirlab ketgan davr fani va falsafasidir.

Mazkur mavzuni o'rganishdan maqsad Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, «Yosh avlod qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota- bobolarining muqaddas qadriyatlarini asrab- avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirishdan iborat»

Islom Karimov. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz». 8- jild T., «O'zbekiston», 2000 y 49 bet). Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo xududi Xorazm, So'd, Ushrushana, Far'ona, Cha'oniyon kabi ulkalardan tashkil topgan bo'lib, gavjum Sharq bilan arab mamlakatlarini bo'lab turuvchi «Buyuk ipak yo'li» markazida joylashgan va madaniy jihatidan ancha rivojlangan, savdo- sotiq aloqalari avj olgan mintaqalardan biri edi. VIII asrning oxiriga kelib, Osiyoda Arab xalifaligi o'z hukumronligini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi.

Movarounnahrda arablar bosqini bilan birga islom dini ham kirib keldi. Islom so'zi arabcha so'z bo'lib tangriga o'zini topshirish, itoat, bo'ysunish, tinchlik kabi ma'nolarini anglatadi. Islom dini bayro'i ostida keng hududda arab qabilalari birlashgan, tarqoqliklarga chek qo'yilgan, yagona markazlashgan arab xalifaligi tashkil topgan. Qur'oni Karim va hadislarda islom falsafiy ta'limotining asosi bayon etilgan. Qur'on- islom dinining muqaddas kitobi. Unda Islom qonun qoidalari, iymon e'tiqod talablari, huquqiy va ahloqiy me'yorlar o'z ifodasini topgan. Qur'on 114 sur'a va ular tarkibidagi oyatlardan tashkil topgan.

Islom falsafasida 18 ming olamni yaratguvchi Alloh deb ta'lim beriladi. Islomda davlatni boshqarish- san'at, ammo u ijtimoiy adolat ta'limotiga amal qilmo'i zarur. Ijtimoiy adolat esa teng huquqiylikka amal qilish tufayli barqaror bo'la oladi, deb hisoblanadi.

Islom falsafasiga ko'ra, insoniyat istiqboli komil insonni shakllantirish orqali yuzaga keladi, ahloq- odob esa inson tafakkurining ajralmas tarkibiy qismidir.

Vatanimiz sivilizatsiyasining sharq xalqlari, arab madaniyati va islom falsafasi rivojiga ta'siri nihoyatda katta bo'lgan. Islom falsafasi rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan buyuk vatandoshlarimiz Abu Mansur Moturudiy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom iso Termiziy, Imom Moturudiyning xizmatlarini alohida qayd qilmoq lozim. O'sha davrda jahon

miqyosida Vatanimizning ma'naviy intellektual nufuzi ortib bordi. Vatanimiz jahondagi yirik madaniyat va ilm- fan markaziga aylandi. Islom falsafasi rivojiga buyuk xissa qo'shgan vatandoshlarimiz haqidagi batafsil ma'lumotni «Dinshunoslik» darsligidan Toshkent, «Mehnat» 2004 y o'qib olasiz.

2. IX- XI asrlarda Sharq mamlakatlari, birinchi navbatda Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy taraqqiyotida tub burilish davri bo'ldi. Bu davrda Markaziy Osiyo xalqlari orasida o'zining aql idroki va tafakkuri bilan, dunyoqarashining kengligi va qomusiyligi bilan jahonni lol qoldirgan fan olamining so'nmas yulduzlari mashhur matematik, astronom, minerolog, tabbiyotchilar, yozuvchi, shoir va sa'natshunoslar, so'z sa'natining toji hisoblangan tilshunos va adabiyotchilar, dunyo tan bergan faylasuf va tarixchilar, 'azal mulkining sultonlari «Shayxur rais» va «Muallimi soniy»lar birin- ketin saf tortib etishib chiqdilar. Buyuk tafakkur egalari butun bir avlodi etishib chiqqan. Olam uzra dovu' taratgan, jahonni ilm, ma'rifat va ma'naviyat nuri bilan yoritgan davr, adolat talabi bo'yicha, Sharq tarixida oltin asr Uy'onish davri deb ataladi.

Uy'onish davri mutafakkirlari ham faylasuf olim, ham jamiyatshunos, musiqashunos, mantiqshunos, matematik, astronom, tarixchi, geograf, geolog, kashfiyotchilar, xullas ilmning hamma sohasidan xabardor bo'lgan, fanning bir necha sohalarida qalam tebratganliklari, qomusiy olim bo'lganliklari bilan ajralib turadilar. Sharqning ulu' siymolari bir necha tillarni mukammal bilganlar, o'z davrida buyuk kashfiyotlar qilganlar. Ular fanda yangicha yo'nalishlarni, yangicha tafakkur uslublarini ixtiro qildilar. Markaziy Osiyoning jahonga mashhur genial matematik olimlaridan biri Abu Abdulla Muhammad ibn Muso Xorazmiydir. Algebra» va «Algoritm» so'zlari uning tabarruk nomi bilan bo'langan.

Bu haqda O. Fayzullaevning « Muhammad Xorazmiy» risolasi, Toshkent, «Fan». 1965) o'qib chiqsangiz batafsil ma'lumotga ega bo'lasiz. Xorazmiyning hayoti haqida biografik ma'lumotlar kam. U taxminan 780 yillarda Xorazmda to'ilib, 850 yillarda Bo'dodda vafot etgan, deyiladi. Xorazmiyning ko'p qirrali ilmiy izlanishlari matematika, geografiya, astronomiya, tarix va boshqa fanlarga oiddir. Uning nomini jahonga tanitgan asarlaridan biri - «Al-jabr val muqobila» dir. Bu asar jahon olimlariga algebra fani bo'yicha dasturi amal bo'lib xizmat qildi. Xorazmiyning matematikaga oid asarlari asrlar davomida mol-mulkni taqsimlashda, sud ishlarida, savdo- sotiq muammolarida, erlarni o'lchashda, binolar qurishda, kanallar qazishda katta xizmat qiladi.

Xorazmiy «Kitob surat al arz» («Er surati») degan asarida Ptolomeyning «Geografiya» nomli kitobini butunlay qayta ishlab chiqadi, iqlimlarni geografik kengliklar bo'yicha klassifikatsiya qiladi. Bu kitobda mamlakatlar, shaharlar nomi ko'rsatiladi, 600 dan ortiq muhim joylar, 209 ta to'larning geografik tafsiloti, daryolar, dengizlar va okeanlar xavzasining shakli ularda joylashgan

orollar, Orol dengizining ham tasviri berilgan. Xorazmiyning «Astronomik jadvallar», «Quyosh soati to'risida risola», «Hind hisobi to'risida risola», «Zij» («Astronomik jadvallar»), «Tarix bo'yicha risola» va boshqa nodir asarlari uning ilmiy tafakkurining benihoya kengligi, qomusiy olim ekanligini, nafaqat o'z davrining balki hamma zamonning eng buyuk olimi ekanligini ko'rsatadi.

Xorazmiy o'zining o'lmas asarlari, buyuk kashfiyotlari bilan jahon fani taraqqiyotiga keng yo'l ochib berdi, eng muhim, murakkab masalalarni ilmiy ravishda hal etdi. U ilm - fan va madaniyat olamida nafaqat buyuk matematik va tabiatshunos olim, balki mashhur faylasuf sifatida ham ma'lum va mashhurdir. Buyuk vatandoshimiz Xorazmiyning nodir asarlari, ilmiy kashfiyotlari, ijtimoiy, falsafiy qarashlari, hozirgi avlod uchun bitmas tuganmas xazina, mustaqilligimiz uchun xizmat qiladigan bebaho ma'naviy boylik ekanligini talabalar teran anglashlari va uning asarlarini o'rganishlari zarur.

Sharq xalqlari orasida «Buyuk matematik» unvoniga sazovor bo'lgan Axmad al Far'oniy matematika va astronomiya sohalarida ajoyib kashfiyotlar muallifi. Uning «Astronomiya asoslari», «Samoviy jisimlar harakati va yulduzlar faning majmuasi haqida kitob» asarlarida koinot xaritasini tuzgan. Er va fazoviy sayyoralar hajmi, iqlimlar, geografik kengliklar haqida ma'lumotlar berilgan, ilm fanning yangi yo'nalishlariga asos solingan. Far'oniy qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni umumlashtirish, tadqiqotda hissiy va aqliy mushohada mushtarakligi allomaga xos xususiyat ekanligi uning dunyoqarashida yaqqol namoyon bo'ladi. Abu Nosir Farobiy (870-950) nafaqat Markaziy Osiyo va Sharqning, balki butun dunyoning asrlar osha e'tirof etilgan va benihoya katta hurmatga sazovor bo'lib kelayotgan buyuk mutafakkiri, qomusiy olimi, mashhur faylasuflaridan sanalanadi. Farobiy fan olamining barcha sohaları bo'yiga ijod qiladi, buyuk asarlar yozdi. Farobiy mashhur faylasuf, mantiqshunos, tilshunosgina emas, shu bilan birga tibbiyotchi, ruhshunos, jamiyatshunos, musiqa ilmining nazaryotchisi sifatida faoliyatida 160 dan ziyod turli sohalarda qimmatli asarlar yozadi. Shular jumlasiga «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Falsafani o'rganishda nimalarni bilish kerak»? «Logika», «Shoirning she'r yozish sa'nati qonunlari haqida», «Musiqa haqida so'z», «Ohanglar tasnifi haqidagi kitob», «Masalalar bulo'i», «Aql to'risida», «Ilmning kelib chiqishi to'risida», «Inson a'zolari haqida», «Davlat haqida», «Fozil odamlar shahri» va boshqalar. Farobiy haqida chuqur ma'lumot olishni istagan talabalarga quyidagi adabiyotlarni tavsiya etamiz:

M. M. Xayrullaev. Uy'onish davri va Sharq mutafakkirlari. T. 1971; M. M. Xayrullaev. Abu Nasr al - Farobiy. M., 1983; M. M. Xayrullaev. Farobiy va uning falsafiy risolalari. T, 1973, Farobiy yozgan har bir asar, u shu'ullangan har bir soha, yangi davr va hozirgi zamon olimlari taxsini va e'tiboriga sazovor bo'lib kelmoqda.

Uning asarlari o'rta asr ilmining deyarlik hamma sohalarini o'z ichiga qamrab olgan. Farobiyning ilmiy ishlarini, asarlarini shuning uchun ham o'z davrining ko'zgusi, qomusi deyish mumkin. Qadimgi Sharq va Yunon falsafasini chuqur va mukammal bilish, tarjima qilish, ilmiy sharhlar yozishda Farobiyga tenglashadigan donishmand bo'lgan emas. Farobiy qadimgi Sharq va Antik dunyo olimlarining yirik asarlarining umumiy mazmuni va yo'nalishlarini ilmiy taxlil qilib maxsus asarlar yaratadi. Aristotelning (Arastuning) ko'plab asarlarini (Ritorika, Metafizika, Poetika, Analitika, Etika va boshqalar) tarjima qildi.

Farobiy o'rta asr fani rivojiga katta xissa qo'shdi, o'z davridagi ilmlarni sistemaga solib turlarga bo'ldi. Sharqning mashhur tarixchisi Ibn Xallikonning yozishicha, til bilishda Farobiyga tenglashadigan olim bo'lmagan u etmishdan ortiq tillarni bilgan. Buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ni insoniyat jahon fani va madaniyatining yuksak cho'qqisi uy'onish davrining yirik arboblardan biri sifatida biladi va e'zozlaydi. O'zining ellik etti yillik umri davomida Ibn Sino 400 dan ortiq asarlar yozdi. Uning yozgan asarlari ilm - fanning barcha sohalariga talluqlidir. Shundan 80 tasi falsafa, ilohiyot, tasavvufga, 43 tasi tabobat, 26 tasi ruhshunoslik, 19 tasi mantiq, 16 tasi she'riyat, adolat, ahloq-odob, musiqa, huquq, din, tarix va boshqa sohalariga ba'ishlangan. Ibn Sino o'z asarlari bilan Markaziy Osiyo xalqlarimadaniyatini jahon madaniyatining oldingi safiga olib chiqdi.

Shuning uchun ham Ibn Sinoni «Shayhur - rais» - «Olimlar boshli'i» deb atashgan. Mavloni ustozning asosiy falsafiy asarlari «Donishnoma», «Najot», «Kitob ul insof» («Adolat kitobi»), «Kitob at shifo», «Davolash kitobi», «Kitob al qonun fit-tib» («Tib qonunlari kitobi») va boshqalar. Shuni alohida ta'kidlash lozimlik besh kitobdan iborat «Tib qonunlari» 125 bosma taboqdan iborat bo'lib jahon tibbiyot ilmining durdonasi hisoblanadi. «Donishnoma» nomi bilan mashhur bo'lgan falsafiy kitobi besh xil ilmni - tibbiyot, mantiq, astronomiya, musiqa va ilohiyotni o'z ichiga oladi. Ibn Sinoning fikricha, falsafa borliq haqidagi fandir. Borliq esa abadiydir, u shaklini o'zgartiradi, bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tishi mumkin, lekin uning o'zi (materiya) yo'q bo'lib ketmaydi. Alloma xudoni e'tirof etadi, uni borliqning birinchi sababi va manbai deb biladi.

Ibn Sino hamma narsaning mohiyatini materiya tashkil etadi, materiya 4 unsurdan- havo, olov, suv, tuproqdan tashkil topgan deydi. Uning fikricha har bir narsaning sababi va oqibati bor, olamda hech bir narsa hodisa o'z -o'zidan sababsiz sodir bo'lmaydi. Ibn Sino inson ob'ektiv voqelikni bilishi mumkinligini, uni ochish va mohiyatiga etishga erishish uchun qunt bilan ilmiy izlanishlar olib borishga da'vat etgan.

Uning fikricha, Har qanday kasallik muayyan bir sababning oqibatidir. Ibn Sino ta'limotini, uning ilmiy, falsafiy qarashlarini mukammal bilishni istagan talabalarga quyidagi adabiyotlarni o'qishni tavsiya etamiz.

Jo'raev Sh. Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy qarashlari. T,1980; Abu Ali Ibn Sino. 1000-letiyu so dnya rojdeniya T.,1980; Baratov M. B.Velikiy mo'litel Abu Ali Ibn Sino. T. 1980; Abdusodiq Irisov. Hakim Ibn Sino hayoti va ijodi.T, 1992. Xorazmlik buyuk entsiklopedik olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) nafaqat Sharq va Markaziy Osiyoda, balki jahon fani va madaniyati tarixida ham eng ulu' va buyuk mutafakkirlardan hisoblanadi.Beruniy o'z zamonasidagi olimlar peshvosi bo'libgina qolmay, balki hamma davrlarning ham eng ulu' mu'tabar siymosidir Beruniyning zamondoshi, mashhur tarixchi Abul Fayz Bayhaqiy fikricha, bu odam ilmiy adabda, narsalar mohiyatini aniqlashda, falsafada shu qadar bilimdon ediki, uning zamonida unga teng keladigan olim yo'q edi. Beruniy butun kuchi, hayoti, aql- idroki va tafakkurini olam sirlarini, ilmu fan asoslarini o'rganishga sarfladi.

Beruniy o'z ilmiy ijodi davomida 150 dan ortiq asar yozgan. Uning asarlari geografiya, geodeziya, minerologiya, astronomiya, matematika, fizikaga, dorishunoslikka, tarix va etnografiyaga, adbiyotga, ritorika va musiqaga, xullas, ilmning hamma sohalariga bo'ishlangan. Uning mashhur «Hindiston», «Qadimgi xalqlaridan qolgan yodgorliklar», «Geodeziya», «Minerologiya» kabi asarlari shular jumlasandir. Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida, «Olam azaliy falak cheksiz bo'shliqqa joylashgan», deydi.

Beruniy ta'limotiga ko'ra tabiat azaldan hozirgi xolatda bo'lgan emas, bundan keyin ham shunday xolatda qolmaydi. Tadrijiy o'zgarishlar natijasida erimizning tashqi qiyofasi, o'simliklar va hayvonot dunyosi, iqlimi o'zgarib turadi, to'lar emiriladi, quruqlikda bir vaqtlar bo'lmagan ko'llar, dengizlar hosil bo'ladi, ba'zilar esa yo'q bo'lib ketadi. Tabiiy sabablar tufayli tabiat o'zgarib turadi. Beruniy koinotda bizning sayyoramizdan tashqari yana ko'plab boshqa dunyolar mavjud, er quyosh atrofida aylanadi degan xulosaga kelib olamning geleotsentrik nazariyasini yoqlashga intildi. Beruniyning eng katta xizmatlaridan biri,u Galiley va Kopernikdan bir necha asr oldin erni sharsimon shaklida ekanligi va quyosh atrofida aylanishi haqidagi faraz o'rtaga tashladi. O'zining Geografiya, geologiya, astronomiya, gidrostatika sohalaridagi ajoyib ilmiy bashorati, Okean ortida qit'aning mavjudligi haqidagi taxmini bilan ma'lum va mashhurdir. Buyuk aql va iste'dod sohibi ta'limotiga ko'ra, Olamni bilish jarayoni sezgilardan boshlanib tafakkurga ko'tariladi, ma'lum narsalardan noma'lum narsalar va hodisalarni bilishga tomon rivojlanib boradi. Beruniyning jamiyat, uning istiqboli, kelajak sari rivojlanib borishda mehnatning, ilm- fan, madaniyat va ma'naviyatning, inson omilining roli va ahamiyati borasida bildirilgan fikr - mulohazalari ham bebodir.

Beruniy haqida uning jahon fani va madaniyatida tutgan o'rnini bilishni istasangiz quyidagi adabiyotlarni o'qishingizni tavsiya qilamiz. Umarov G.Ya. Beruniy, Kopernik i sovremennaya nauka. T. 1973; Sharipov A. D. Velikiy

mo'slitel Beruniy. T., 1972; Beruniy tanlangan asarlari T. I 1969; Xayrullaev M.M. Uy'onish davri va Sharq mutafakkirlari T. 1971; Ma'naviyat yulduzlari. T. 1999. 3. Markaziy Osiyoning mo'ullar tomonidan bosib olinishi natijasida jabr, zulm, zo'rovonlik kuchaydi, madaniyat, san'at, iqtisod va ilm- sohasida tanazzul ro'y berdi.

Mo'ullar zulmiga qarshi xalq ommasining noroziligi, sarbadorlar boshchiligida ommaviy qo'z'olonlar, ayniqsa sohibqiron Amir Temur faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Amir Temur, Ibn Tara'ay Bahodir (1336-1405) ning asosiy tarixiy xizmatlari shundan ibortki, u mo'illar bosqinchiliklariga qarshi kurashib Markaziy Osiyoni ulardan xalos etdi. Mayda feodal va mulkdorlari o'zaro izolariga barham berib, kuchli markazlashgan qudratli davlat barpo qildi. U o'z hayotini xalqning farovonligi, tinchligi, obodonchiligi uchun sarfladi. Uning davrida hashamatli binolar, maktab va madrasalar, masjidilar qurildi, go'zal bo'lar barpo qilindi. Bu davrda me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Temur Bibixonim, Shohizinda madrasasini va Ko'ksaroy masjidini qurirdi. Keshda (Shaxrisabz) Oqsaroy barpo qildi.

Amir Temurning yana bir ulkan xizmati shundaki, u madaniyat va ilm fan xomiysi sifatida mashhur bo'ldi, o'z saroyiga madaniyat fan va din arboblari to'pladi, ichki va tashqi savdoni rivojlantirdi, Sharq va ~arb mamlakatlari bilan aloqalarini mustahkamladi. XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda Temuriylardan Shohruh, Ulu'bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirozolar davlatni boshqarishda, ilm - fan, madaniyatni rivojlantirishda Temur an'alarini izchil ravishda davom ettirdilar. Ilm fanning ko'p sohalarida yuksalish yuz berdi. Jahonga mashhur olimlar va shoirlar etishib chiqdi. Ayniqsa, badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik rivoj topdi.

«Gul va Navruz» muallifi Lutfiy (366-1465), «Yusuf va Zulayxo» muallifi Durbek, «Behruz va Bahrom» muallifi Binoiy (1453-1512) va boshqalar, o'sha davrda yashab ijod etganlar. Temuriylar davrining mashhur tarixchilari Mixond (1433-1498) va Xondamir edilar. O'sha davrning atoqli allomalari, mantiq fanining yirik vakillari Sa'diddin Taftazoniy (40 dan ortiq asar yozgan) va Mir Sayid Sharif Jurjoniy (50 dan ortiq risolalar yozgan)dir. Ushbu savol bo'yicha artoflicha bilim olishlari uchun talabalar mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlarni o'qisalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Temuriylar sulolasidan nomi faqat Sharq musulmon olamidagina emas, ~arb Xristian dunyosida ham necha asrlar davomida yod etilib, e'zozlanib kelayotgan buyuk falakiyotchi olim va davlat arbobi, Amir Temurning suyuqli nabirasi Shohruh Mirzoning o'li- Muhammad Tara'ay Mirzo Ulu'bek (1394-1449) dir. Mirzo Ulu'bek yoshligida ilm bilan qiziqdi. Unga taniqli olimlar Qozizoda Rumi va ~iyosiddin Jamshid ustozlik qildilar. U garchi davlat arbobi bo'lsa ham, madaniyat, ilm- fan ravnaqiga ko'p kuchini sarfladi astronomiya, matematika, tarix, kimyo va boshqa sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

Olimning dunyoqarashida Arastu, Aflotun, Ptolomey, Ahmad Far'oniy, Muso Xorazmiy, Abu Nosir Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqalarning asarlari muhim o'rin egalladi.

O'tmish ajdodlaridan xususan Markaziy Osiyo qomusiy aqlegalaridan qolgan madaniy meros Ulu'bek, ilmiy- falsafiy dunyoqarashi rivojida manba bo'lib xizmat qildi.

Ulu'bek zamonida Samarqandda «Shohi zinda», «Go'ri Amir»maqbarasi, bir qancha shifoxona, hammom va kutubxonalar, Buxoro, Samarqand va ~ijduvonda madrasalar qurildi. Ulu'bekning ulkan ishlaridan biri uning Samarqand yaqinidagi Ko'han tepaligida Obi Rahmat anhuri bo'yida rasadxona barpo etganligidir. Jahon olimlarining e'tiroflarga bu rasadxona, o'zining jihozi, ilmiyyutumlari bilan unga tenglasha oladigan rasadxona na undan oldin, na undan keyin ham yaratilgan emas.

Bu rasadxona aholi o'rtasida «Naqshi jahon» nomi bilan shuhratqozongan. Qomusiy olimning eng muhim asari «Ziji jadidi Qo'ro'niy»dir. Bu asar unga shonu- shuhrat keltirgan bo'lib, uning yigirma yillik ilmiy izlanishlarining natijasidir. Bundan tashqari Ulu'bek matematikaga oid «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», astronomiyaga ba'ishlangan «Risolayi Ulu'bek» va tarixiga oid «To'rt ulus tarixi» nomli asarlar yozib qoldirdi. Ulu'bekning «Ziji jadidi Ko'ra'niy» asari ikki qism, muqaddima va 1100 dan ortiq yulduzlarning o'rni va xolati aniqlab berilgan jadvallardan iborat. Ulu'bek hayoti va amaliy faoliyatini ilm fan taraqqiyotiga ba'ishlagan edi. Uning ilmiy kashfiyotlari va ta'limotlari hozirgi zamon ilmiy tafakkuri rivojida muhim rol o'ynamoqda. Mirzo Ulu'bek ilmiy kashfiyotlarini, uning ta'limotlarini chuqur bilishni istagan talabalar quyidagi adabiyotlarni o'qishlarini tavsiya qilamiz: Ahmedov A. «Ulu'bek hayoti va ijodi» T., 1994; Qori Niyoziy T.N. «Ulu'bek astronomiya maktabi» T., 1950; Qori Niyoziy T.N. «Ulu'bek va uning ilmiy merosi» T., 1971; Xayrullaev M.M. «Uy'onish davri va Sharq mutafakkirlari. T., 1971; Ma'naviyat yulduzlari. T., 1999 y. «Falsafaasoslari» T., 2005 y, 85-86 betlar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Ulu'bek Quyosh va Oy harakatlarini, ularning tutilishi sabablari va vaqtini aniq hisoblabchiqgan. U o'z atrofiga qobiliyatli olimlarni to'plagan, o'zining maktabini tuzgan.Ana shunday olimlardan biri ~iyosiddin Jamshid al Koshiydir.Uning asosiy asarlari «Miftoh ul- hisob» («Hisob- kalidi»), «Risola al Muhitiya» («Diora haqida risola») va boshqalar. Fanda Ali Qushchi nomi bilan tanilgan Ulu'bekning shogirdi va do'sti Alouddin Ali Ibn Muhammad Qushchi (1403-1471) dir. Uning asarlari «Astronomiga oid risola», «Arifmetika ilmi haqida risola», «Mantiq risolasi» va boshqalar.

Ali Qushchi o'z asarlarida astronomiya va matematika fanlarining rivojiga katta hissa qo'shdi, Oy va quyosh tutilishi qonuniyatlarini, jismlar harakatini, tabiat sirlarini ochib berishda o'z fikrini ilgari surdi. XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Hirot shahri madaniy va ilmiy markazga aylandi.

Temuriylardan Husayn Boyqaro hukmronligi davrida bu erda ilm- fan, adabiyot sohasida yuksalish yuz berdi. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkirlar etishib chiqdi.

O'rta asr mumtoz adabiyotining vakili, ulu' shoir mutafakkir Abdurahmon Jomiy (1414-1492) ni Alisher Navoiy o'z ustoz deb hisoblagan. Jomiy o'zining ijtimoiy siyosiy va ahloqiy qarashlarida mukammal jamiyat adolatli shoh to'risida orzu- umidlarini ilgari suradi, erkinlik, tenglik, insof va diyonatga asoslangan davlat tuzumi haqida o'z fikrlarni bayon etadi. «Yusuf va Zulayho», «Xiradnomayi Iskandariy» kabi dostonlarida ishq va muhabbat, do'stlik va brodarlik, mehr- shafqat, adolat, soflik va poklik, o'zaro yordam, sabr- qanoat va boshqa insoniy qadriyatlarni tasvirlaydi. Barcha musulmon mutafakkirlari kabi Jomiy ham xudo abadiy, dunyoning yaratguvchisidir deb hisoblaydi. Uning falsafiy qarashlari insonparvarlik o'yalari bilan chambarchas bo'lanib ketadi, mutafakkirning ko'pgina asarlarida inson, adolat, muhabbat, ezgulik o'yalari tasvirlanadi.

Jahon madaniyati ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolaridan biri, ulu' o'zbek shori va mutafakkiri Nizomiddin MirAlisher Navoiy (1441-1501) dir. U Temuriylar xonodoni taalluqli bo'lib otasi ~iyosiddin Shahrisabzdan Qobulga borib qolgan beklaridan edi. Alisher Navoiy Hirotda Husayn Boyqaro saroyida turli

lavozimlarda, 1472 yilda esa bosh vazir bo'lib ishladi. Buyuk shoirmamlakat obodonchiligi, ravnaqi va osoyishtaligi yo'lida ko'p ishlar qildi. Maktab va madrasa, masalan «Ixlosiya», «Nizomiya», «Shifoia», «Xusraviya» madrasalari masjid va shifoxonalar, ko'priklar qurirdi. Kamba'allarga yordam berdi, olimu shoirlarga homiylik qildi. Bo'banchilik, chorvachilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishga katta e'tiborini qaratdi. Navoiy butun olamni xudo tomonidanyaratilganligini e'tirof etdi. Olamning yartilishidan bosh maqsadi insondir. Inson butun borliqning, hamma mavjudodlarning ko'rki va sharafigidir. Navoiy asarlarida inson yuksak darajada ulu'lanadi, oliy mavjudod deb ta'riflanadi. U butun mavjudodning toji, oliy nuqtasi bo'lgan insonni bezaydigan go'zal hislat va fazilatlar sifatida odob- ahloqli, o'zgalarga yordam beruvchi, shijoatkor va jasur, aqli va bilimdon, to'ri so'z, sofdil, kamtar, mehnatsevar, sabr- toqat, nafsni tiyish, oliyanoblik va sahiy bo'lishni alohida ta'kidlaydi. Navoiy xalq orasida insonparvarlik o'ylarini taraqqatadi, millatlararo do'stlikni ulu'laydi, mukammal jamiyat haqida fikr yuritadi. Xalqni farovonlikka, baxt- saodatga eltuvchi, hamma teng, zulm- zo'rovonlikdan xoli bo'lgan davlat tuzishni orzu qildi.

Navoiy asarlari markazida turgan belgilovchi va yo'naltiruvchi boshmasala- inson, xalq, Vatan. Uning yaxshilik, do'stlik, adolat, tinchlik va osoyishtalik, ezgulik, muhabbat va boshqa go'zal fazilatlar, ma'naviy axloqiy qadriyatlar haqidagi qimmatli fikrlari O'zbekiston Mustaqilikka erishganidan

so'ng ham barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Alisher Navoiyning ijodi, ijtimoiy falsafiy qarashlari va Navoiy gumanizmi haqida chuqur tasavvurga ega bo'lish uchun talabalarga quyidagi adabiyotlarni o'qishni tavsiya etamiz. Vohidov V.I. «Alisher Navoiyning `oya va obrazlari olami»T., 1961; Zohidov A. «Alisher Navoiyning komil inson to'`risidagi qarashlarining hozirgi zamon uchun ahamiyati» J. «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» 1991 №11; Xayitmatov A. «Alisher Navoiy dunyosi», «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» 1991 №2. Navoiy davrida Hirotida «Sharq Rafaeli» deb nom olgan Kamoliddin Behzod 1456-1535) va shoh Muzaffar kabi dunyoga mashhur rassomlar yashab ijod qilishdi.

Temuriylar davrining ko'zga ko'ringan mutafakkirlardan biri Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy (tax. 1440-1505) bo'lib, Markaziy Osiyo va Xurosonda ahloq falsafasining yirik vakili hisoblanadi. U Navoiy va Jomiy bilan do'stona aloqada bo'lgan, ilmning ko'p sohalarida ijod qilgan. Uning ilohiyot, falsafa, ahloq, adabiyot va pedagogika sohalarida ilmiy ishlari bor. Mutafakkirning asosiy ishlari uning risolalarida «Ahloqiy muqsinii», «Risoliyi Xotamiya», «Zanul» va boshqalarda o'z aksini topgan. Husayn Voiz Koshifiyning falsafiy, ijtimoiy va ahloqiy `oyalari bizning davrimizda ham o'z tarbiyaviy qimmatini yo'qotgani yo'q. Chunki mutafakkir o'z asarlarida davlatni oqilona boshqarish, insonga go'zal hulq- odob qoidalarini singdirish, ilm- fan, kasb- ho'narni egallash, ta'lim - tarbiya sohasida himmatli fikrlarni ilgari surgan.

O'z davrining murakkab va ziddiyatli hayotida muhim o'rin tutgan yirik siymolardan biri Temur avlodidan bo'lgan Zahriddin Muhammad Bobur (1483-1530) eng ma'rifatli davlat arboblardan biri edi. Andijonda Umarshayx Mirzo xonodonida tavallud topgan Bobur keyinchalik Hindistonda ulkan saltanatga asos soldi. Bobur davrida Hind diyori gullab yashnadi, undagi madaniyat yuksak darajaga ko'tarildi. Hindistonning XX asrdagi eng atoqli davlat arboblari Mahatma Gandi va Javaharlal' Neru, Bobur va boburiylar, Shoh Jahon, Avrangzeb va Akbar kabi Temuriyzodalarga juda katta baho berganlar. Bobur ilm-fan, san'atga katta qiziqish bilan qaragan, yuksak aql egasi, qomusiy bilimga ega bo'lgan davlat arbobi, olim va shoirdir. Boburning xizmati shundaki, u Hindistonni markazlashgan davlatga aylantirdi, mamlakatda tinchlik, osayishtalik o'rnatdi, karvon saroylar, me'moriy yodgorliklar, maktablar, kutubxonalar barpo qildi, qurilish ishlari va obodonchilikga katta ahamiyat berdi. Zahriddin Muhammad Bobur ilm- fan, adabiyot va san'atga katta qiziqish bilan qaragan, yuksak aql egasi, qomusiy bilimga ega bo'lgan olim, shoir va davlat arbobidir.

Boburni jahonga tanitgan eng muhim asari «Boburnoma» sidir. U qomusiy asardir. Unda murakkab ijtimoiy - tarixiy voqealar bilan birga ilm- fan, madaniyat va ma'naviyatning, ijtimoiy hayotni, savdo munosabatlari, ju'rofiyasi, hayvonot va nabotot olamini, iqlimi, qabila va elatlarning urf- odatlari, marosimlari va turmush tarzini aks ettirgan asardir. Bobur o'zining lirik

she'rlarida ishq muhabbat, Vatan so'linchi, mehr, vafo, do'stlik, insoniylik, yaxshilikni kuylaydi. Temur va Temuriylar davridagi madaniy yuksalish hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ular mustaqil davlatimizni mustahkamlashda, madaniy- ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda, milliy o'ya va mafkurani shakllantirishda ma'naviy oziqa vazifasini o'tamoqda.

Tayanch tushunchalar

Arab istilosi, islom falsafasi, Qur'on, Hadis, Far'oniy, Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Temur, Ulu'bek, Navoiy, Bobur, «Boburnoma»

Takrorlash uchun savollar

1. Ilk o'rta asrlar falsafasining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Xorazmiy, Far'oniy, Beruniy va Ibn Sinolarning jahonfanlari rivojiga qo'shgan hissalarini gapiribbering?
3. «Oltin asr», uy'onish davrini tushuntirib bering?
4. Temurning hayoti faoliyati, jahon va Vatantarixidagi o'rnini gapirib bering?
5. Mirzo Ulu'bek haqida nimalarni bilasiz?
6. Alisher Navoiyning falsafiy qarashlarini gapiribbering?
7. Bobur va «Boburnoma» haqida nimalarni bilasiz?
8. O'rta asr va Temuriylar davri falsafasini o'rganishning ahamiyati nimada?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir T., 1996.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998.
3. Karimov I.A. Amir Temur - faxrimiz ururimiz T., 1996.
4. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat T., 1994.
5. Amir Temur o'g'itlari T., 1992.
6. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar T., 1968.
7. Axmedov A. Ulu'bek hayoti va ijodi. T., 1994
8. Abdusodiq Irisov. Xakim Ibn Sino hayoti va ijodi T. 1992
9. Baratov M.B. Velikiy mo'slitel Abu Ali Ibn Sino T., 1980
10. Mo'minov I.M. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rnini va roli T., «Fan», 1993.
11. Ma'naviyat yulduzlari. T., 1999.
12. Xayrullaev M.M. Uy'onish davri va Sharq mutafakkirlari. T., 1971.
13. Xayitmetov A. Alisher Navoiy dunyosi. «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» 1991 y, №2
14. Farobiy. «Fozil odamlar shahri» T., 1995.
15. Jo'raev Sh. Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy qarashlari. T., 1980.

4- MAVZU: XVI-XX ASRLARDAGI JAHON FALSAFIY TAFAKKURI

Reja:

1. O'rta asrlarda Evropa madaniyati va falsafasi.
2. Evropada uy'onish davri va undagi falsafiy tafakkur takomili
3. XVII- XIX asr Evropa falsafasidagi oqimlar vafalsafiy maktablari
4. XX asr falsafasi va uning asosiy oqimlari.

1. Aziz talabalar! Siz tarix fanidan bilasizki o'rta asrlarda jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va ma'naviy hayoti to'liq feodalarni qo'lga o'tdi. Qadimgi sivilizatsiya, qadimgi falsafa, siyosat va huquqshunoslik, ma'naviy bilim ixtiyori poplar qo'lga o'tdi. Diniy rasm-

rusumlar va qoidalar har qanday tafakkurning asosi bo'lib qoldi. Falsafa to'la ravishda dinga bo'ysundirib qo'yildi.

Ammo fan taraqqiyotiga dinning har qancha to'sqinlik qilishiga qaramay feodalizm davrida fan, madaniy- ma'naviy taraqqiyot rivojlanishi to'xtamay rivojlana boshladi.

Fedoelizm sxolostik (yunoncha- maktab) falsafasida o'rta asrlar davomida ikki asosiy oqim- nominalizm (lotincha- nomeknom) u umumiy tushunchalarni faqat ayrim predmetlarning nomlari deb hisoblaydigan ta'limot va realizm o'rta asr sxolostikasidagi (maktabidagi) umumiy tushunchalar aniq mavjudlikni tashkil etadi, aniq narsalar esa ularning ifodalanish shaklidir, deb hisoblaydigan falsafiy yo'nalishi o'rtasida keskin kurash davom etdi. Bu ikki oqim o'rtasidagi kurashning asosiy masalasi umumiy tushunchalar mohiyati masalasi edi.

O'rta asrlarda italiyalik xudo jo'y faylasuf Foma Akvinskiy (1225-1274) realizmning mu'tadil namoyondasi sifatida maydonga chiqdi va xudoning birlamchiligi, ruhning ulmasligi kabi 'oyalarni tar'ib qiluvchi tomizm falsafasiga asos soldi. Uning ta'limotiga ko'ra dunyo fazoda chegaralangan, vaqtda cheklangan bo'lib, u faqat tabiatdan tashqaridagi kuch orqali harakat qilishi mumkin. Foma Akvinskiyning ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi mavjud narsa va hodisalarni bilish mumkin, ularni sezgilar vositasida aqlga joylash mumkin, lekin insonni mohiyati, ya'ni umumiy tushuncha - Xudoni bilish mumkin emas.

Akvinskiyning «Ilohiy summalar» asari 3000 maqoladan iborat bo'lib, 600 masalani yoritishga bagishlangan. U ilohiyotning sistemali bayon qilinishi vazifasini bajardi. «Ilohiy summalar» - ning birinchi qismi Xudoning mavjudligi va borligi masalasida baxs yuritadi. Ikkinchi qismi « Xudoga qarab harakat» haqida hikoya qiladi. XXI asrning ikkinchi yarmida Foma Akvinskiyning bu falsafiy ta'limoti katolik cherkovining rasmiy nazariyasi deb e'lon qilindi, uni bilish har bir dindor uchun majburiy bo'lib qoldi. Feodalizm davrining mashhur faylasuflaridan biri Vilyam Okkam (1309 - 1349) dir. Uning fikricha, ilohiyot aqidalari ratsional (aql) yo'li bilan isbotlanishi mumkin emas. Ular faqat Muqaddas kitob nufuzi tufayligina qabul qilinishi mumkin. O'sha davrning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan yana biri Rodjer Bekon (1214 - 1292) dir. U o'z faoliyatini ilmiy tajribalarga bagishlagan. Ular yordamida u tajribaviy fanga asos soldi. Haqiqatni topishda tabiatni tajribaviy o'rganish metodini qo'llash Bekon qarashlariga to'liq mos kelardi.

O'rta asr Evropa falsafasini rivojlantirishda universitetlar muxim o'rin tutadi. Ular bilim va ma'rifatning o'chogi sifatida 1200 yillarda vujudga keldi. 1400 yillarga kelib Evropada 25 dan ortiq universitetlar faoliyat ko'rsatishgan. Universitetlarning vujudga kelishining sababi mashhur olimlarning faoliyatidir.

2. Uy'onish davri bu Evropada yuz bergan eng buyuk il'or taraqqiyot davridir. Uy'onish davrida hayotning hamma tarmo'ida muhim, il'or, hatto aytish mumkinki, inqilobiy o'zgarishlar yuz berayotgan edi. Uy'onish davrida

Evropada falsafiy tafakkur rivojiga katta hissa qo'shgan faylasuflardan biri nemis Nikolay Kuzinskiy (1401- 1464) dir. Uning ta'limotiga xudo hamma narsalarda mavjud, shuningdek, hamma narsalar xudoda mavjud. Kuzinskiy xudoni borliqning oliy va yagona asosi deb hisoblaydi. Fan va falsafa rivojiga eng katta hissa qo'shgan uy'onish davrining yirik mutafakkirlaridan biri polyak olimi Nikolay Kopernik (1473- 1543) dir. Kopernik olamning geletsentrik sistemasi yaratdi. Uning ta'limotiga olamning markazi quyosh bo'lib, uning atrofiga boshqa sayyoralar bilan bir qatorda er ham aylanib turadi. Uning bu ta'limoti Ptolomeyning geotsentrik ta'limotini puchga chiqardi. Bu nazariya, shuningdek olamni yaratilganligi haqidagi diniy afsonaga ham zarba berdi.

Kopernikning geletsentrik nazariyasi materialistik dunyoqarash umumiy rivojlanishining tabiiy ilmiy zamini bo'ldi. Kopernikning geletsentrik ta'limotidan chuqur ilmiy xulosalar chiqargan Nemis astronomi Iogann Kepler (1571-1630) dir. U sayyoralar xolatini kuzatish asosida sayyoralar harakatining qonunini paydo qildi. Bu Kopernikning quyosh sistemasi tuzilishi manzarasini aniqlashtirishga va butun olamning tortilishi qonunini ochishga zamin yaratdi.

Italiyalik olim Jordano Bruno (1548-1600) ham «Uy'onish davrining» yirik vakilaridan bo'lib, sxolastik falsafaga va Rim katolik cherkoviga qarshi kurash olib bordi. Bruno tuproq, havo, suv, olov va efirdan iborat er bilan osmon olamning fizikaviy yakka jipsligini tasdiqlaydi, deb uqtiradi.

Boruno ta'limotiga quyosh sistemasidan tashqari yana sanoqsiz dunyolar, quyoshlar, erlar mavjud, dunyo bepayon, moddiy olam uning kichik bir qismidir, er esa bepayon olamning zararchasidir. Brunoning ta'limoti cherkov tomonidan qattiq tanqid ostiga olinib, cherkov invizitsiyasi hukmi bilan 1600 yil 17 fevralda Rimdagi gullar maydonida gulxonda yoqib o'ldirilgan. Italyan olimi Galileo Galiley (1564-1642) ham «Uy'onish davri» ning buyuk olimlaridan biridir. U olamdagi barcha narsalar moddiy asosga, olam, materiya abadiy, tabiat yagona bo'lib mexanika qonuniyatlariga bo'ysunadi, deb tushungan. Galiley qadimgi yunon olimi Demokritni o'zining ustozlari deb tan olib, olamdagi narsa va hodisalarning moddiy asosini atom tashkil qiladi degan o'yni qo'llab quvvatlagan. Ilmiy tajribaga asoslangan matematik usulning asoschilaridan biri bo'lgan. Galiley mexanika va astronomiya sohasida bir necha ilmiy kashfiyotlar qilgan. Uning kashfiyotlari geliotsentrik nazariyaning to'g'riligini, olamni cheksizligi o'ynasini, tabiatning mavjud qonunlari va ularni bilish mumkinligini isbotlab bergan. Galiley 1632 yili «Olam tuzilishining ikki asosi - Ptolomey va Kopernik sistemasi haqida dialog» nomli asarini nashr qiladi. Uning asari nashrdan chiqqandan keyin Galiley cherkov sudiga berilgan. Inkvizitsiyaning siquvi ostida Galiley majburiy ravishda o'z o'ylaridan kechganligi haqida so'z berib o'limdan qutilib qoladi.

Evropa uy'onish davri mutafakkirlari haqida to'laroq ma'lumotiga ega bo'lishni istagan talablariga «Falsafa. Qomusiy lu'at» T. 2004; Filosofiskiy

entsiklopedicheskiy slovar» Moskva. 1989; «Falsafa asoslari», T., 2005; «Falsafa» T., 2005 kitoblaridan mutafakkirlar haqidagi ma'lumotlarni topib o'qishlarini tavsiyaqilamiz.

3. XVII-XIX asr ~arbiy Evropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Bu asrlarda Angliya, Frantsiya va boshqa Evropa mamlakatlarida kapitalistik munosabatlar tez sur'atlar bilan rivojlana boshlaydi. Dengizda savdo munosabatlarining rivoji, kemasozlikning taraqqiyoti, yangi zavod va fabrikalarning qurilishi, astronomiya, matematika, fizika, kimyo va mexanikaga bo'lgan ehtiyojni

kuchaytiradi. Ushbu davr falsafasi ham oldinga katta qadam tashlaydi. Fanda qo'lga kiritilgan yutuqlarning falsafiy izohlanishi, kashf etilgan ilmiy usul va uslublarning falsafaga tadbiiq etilishi odatiy xolga aylandi.

O'sha davr falsafasining yirik vakillaridan biri ingliz olimi Frensis Bekon (1561-1626) dir. Bekon ingliz materializmining asoschisidir. U o'rta asr sxolastik falsafasiga va din ta'limotiga qarshi kurash olib bordi. Haqiqiy falsafa, uning fikricha, amaliyot bilan mustahkam aloqada bo'lishi lozim.

Bekon o'zining «Yargi Organon», «Yangi Anlantida» nomli asarlarida o'rta asr sxolostikosini tanqid qildi va tabiatni materialistik tushunishni asosladi. Uning ta'limoticha, fanning yangi binosini qurish uchun to'ri fikrlashga o'rganish kerak. Bilishning birdan bir to'ri yo'li uning fikricha, tajriba (eksperiment), taxlildir.

Metafizik materialist bo'lgan, Bekon bilish jarayonida hissiy bilish bilan aqliy bilishning o'rtasidagi aloqadorlik dialektikasining to'ri ochib bera olmadi. Bekon fikricha moddiy dunyoni asosini materiya tashkil qiladi. Uning ta'biricha, materiya xilma- xil sifatga ega. Bekon o'zining ijtimoiy- siyosiy qarashlari bo'yicha kuchli markazlashgan davlat tarafdori bo'lgan Tomos Gobbs (1588-1679) materiya birlamchi, ong esa ikkilamchi, deb hisoblagan Gobbs faqatgina bor jismlar mavjud, qolganlari esa to'qib chiqarilgan tasavvurlar deb tushuntiradi.

Materiya abadiy, ayrim jismlar esa vaqtinchalik. Ular vujudga keladi va yo'q bo'ldi. Gobbs din insonlarga ta'sir etishning alohida uslubidir, deb hisoblaydi. U matematik bo'lgan, shuning uchun borliqni namoyon bo'lishini geometriyasida emperik edi. Gobbs mutloq monarxiyani davlatning eng yaxshi shakli deb hisoblaydi. Ingliz falsafasida Jon Lokk (1632-1704) dunyoqarashi alohida o'rni tutadi. U ham materializmning yirik namoyondalaridan biridir. Lokk inson bilimining asosiy manbai tajribadir, deb hisoblaydi. Lokkning ta'limotiga ko'ra, bilish inson bilan tabiat orasidagi jarayondan iborat bo'lib, kishi `oyalarning, tushunchalarning moddiy olam predmetiga mos kelishi haqiqatdir. Lokk o'zining ijtimoiy, siyosiy qarashlarida davlatning quyidagi tamoyillarini ta'riflaydi: 1. Qonun chiqaruvchi organlar 2. hokimiyatning ijro etuvchi organlari 3. ittifoq federativ xokimiyati. Lokkning mazkur `oyalari o'z ahamiyatini hanuzgacha yo'qotgani yo'q.

XVII asr materializmi o'rtaga qo'ygan barcha falsafiy fikrlar XVIII asrda Frantsiyada shakllangan milliy materialistik falsafiy maktab vakillari tomonidan yanada rivojlantiriladi. Bu borada Lammetri (1709-1751), Gelvetsey (1715-1771), Didro (1713-1784), Golbax (1723-1784) va Robine (1735-1820) qarashlari nihoyatda muhim. O'rta asrlardagi Evropa falsafasi taraqqiyotida Frantsiyada shakllanayotgan milliy falsafa maktabi nihoyatda katta o'rin tutadi. Frantsuz materialistiklari hamma moddiy jismlar atomlardan (Golbax) yoki molekulalardan (Didro) tashkil topgan deb hisoblaydilar, ularning ta'kidlashicha materiya harakatsiz, harakat esa materiyasiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Ularning ta'limotiga ko'ra harakat materiyaning mavjudlik usulidir, materiya harakati abadiy va mutloq. Ular faqat mexanik harakatni tan olganlar. Shu bilan birga Frantsuz materialislari bir qator evolyutsion 'oyalarni ham ol'a surganlar, ular organik duyoni, noorganik dunyodagi, yuqori organizmlar quyi organizmlardan kelib chiqqan degan fikrni aytganlar. Olamni bilish masalasida Frantsuz materialistlari sensualist edilar. Ular barcha bilimlarning manbalarni moddiy predmetlarning sezgi a'zolariga ta'siri natijasida hosil bo'ladigan sezgilardan iborat deb bildilar.

Frantsuz materialistlari izchil determinist edilar, ularcha, olamda birorta sababsiz voqea hodisa mavjud emas. Ular ob'ektiv olamda faqat zaruriyat mavjud deb tasodifni butunlay rad etdilar. Frantsuz materialistlari o'zlarining asarlarida dinga qarshi chiqib, uning mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni xaqida o'z fikrlarini bayon etdilar. Ular din peshvolarini tanqid qilib, kishilarning qo'l - oyo'ini kishanlab qo'ygan din zarjirlarini parchalab, insoniy, ijodiy qobiliyatga keng yo'l ochish lozim deb hisoblaydilar. Frantsuz materialistlari ijtimoiy hodisalarni tushinishda ham bir qator qimmatli 'oyalarni ilgari surdilar. Ularning fikricha, xarbir inson erkin tu'iladi, shuning uchun hamma baxtga, ozodlikka, adolatga bab - barovar haqlidir. Shuning uchun jamiyatning asosiy vazifasi - hamma kishilarni adolatli ravishda baxt huquqi bilan ta'minlashdir.

Frantsuz materialistlari tabiatni falsafiy izohlashda materialist va ateist bo'lsalar-da, lekin jamiyatni idealizm nuqtai nazaridan tushuntirganlar. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida falsafa fanining rivojlantirishda nemis faylasuflarining hissasi katta. Nemis falsafasining asoschisi Immanuel Kant (1724 - 1804) bo'lib, uning falsafiy ta'limotida materialistik va idealistik ta'limotlar birgalikda uchraydi. Kant falsafasining xususiyati shundaki, u materializمنى idealizm bilan kelishtirishdan iboratdir. Kant faqat faylasuf bo'lib qolmasdan, yirik tabiatshunos olim hamdir. U 1785 yilda yozgan eng yirik asari « Butun umumiy tabiiy tarixva osmon nazariyasi»da Quyosh sistemasi koinotdagi gaz xolatdagi ulkan tumanlikni aylanma harakat qilish natijasida kelib chiqqan degan nazariyasi hozirgi davr astronomlarini ham diqqatini tortmoqda. Kantning fikricha narsa, predmetlar bizning ongimizdan tashqaridamavjud. Biroq ular nimadan iborat ekanligini biz hech qachon

bilolmaymiz. Kant inson aqlining cheksiz qudratiga ishonchsizlik bilan qarab agnostitsizmga keng yo'l ochib beradi.

Kant ta'limoti bo'yicha makon va zamon real emas, balki faqat tushunchada, `oyalardadir. Kantning vafotidan keyin nemis falsafasining rivoji Gegel ijodida o'zining yuksak cho'qqisiga erishadi.

Gegel (1770 - 1831) falsafasi nemis idealizmining cho'qqisi va nihoyasidir. Gegel ob'ektiv idealizm nuqtai nazarida turib « Olam ruhi»,» Olam aqli», «Mutloq goya» bilan ifodalangan qandaydir ruxiy ibtido tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalarning asosidir,real dunyodan tabiat va jamiyatdan ilgari ruhiy ibtido, « utloq goya», Xudo mavjud bo'lgan deb hisoblaydi. Gegel ta'limoti bo'yicha mutloq `oya o'z ta'limotiga uch bosqichni: tezis, antitezis, sintezni bosib o'tadi.

1. Ideyaning o'z ba'rida rivojlanishi bosqichi; tafakkur jarayonida,dialektika kategoriyalari va qonunlari tizimida o'z mazmunini, mohiyatini namoyon qiladi. Bu bosqich Gegel falsafasining mantiq bosqichidir.

2. Ideyaning «o'zga shakl» - ko'rinishida,ya'ni tabiat shaklida rivojlanishi.

3. Ideyaning tafakkurda va insoniyat tarixida rivojlanish bosqichi. Bu bosqich ruh falsafasi bosqichidir. Mana shu yakuniy bosqichda «Mutloq ideya» o'ziga qaytadi va inson ongi va faoliyatining turli ko'rinishlarida o'z mazmunini payqab oladi.

Rivojlanish `oyasi Gegel falsafasining markazida turadi va uning mohiyatini tashkil qiladi. Uning ta'kidlashicha, rivojlanish doimo quyidan yuqoriga qarab boruvchi jarayondir. Mana shu jarayonda miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tishi yuz beradi. Rivojlanishning manbai esa har qanday o'z - o'zidan harakatning sababi bo'lgan qarama qarshilikdir. Gegelning dunyodagi barcha hodisalar « Mutloq `oya»ning «Ruh»ning turli ko'rinishlaridan iborat degan fikr dunyoni xudoyaratgan deb hisoblovchi diniy ta'limotning boshqacha bayon qilinishi edi. Gegel Kantning «narsa o'zida» va dualizm `oyalarini qattiq tanqid qilib, bilish jarayonining xususiyatlari, haqiqatga erishish dialektikasi kabi masalalarni har tamonlama asoslab berdi. U dialektika qonunlarini tabiat va ijtimoiy fanlarga tadbqiq etib falsafaning hamma sohalarida chuqur iz qoldirdi.

Gegel umumjahon tarixini to'rt bosqichga bo'ladi:

1. Sharq dunyosi. 2. Yunon dunyosi. 3. Rumo dunyosi. 4.German dunyosi. Gegel insoniyat tarixiga baho berar ekan ochiqdan- ochiq yo'qqhilikga yuz tutadi. Gegelning falsafiy sistemasi, u yaratgan metodi kamchiliklaridan xoli emas.

Nemis klassik falsafasining yirik vakili Lyudvig Feyerbax (1804-1872) dir. Uning tarixiy xizmati falsafani uzoq davom etgan idealizm botqo'ndan qutqarib, materializmni qayta tiklaganligidadir. Feyerbax falsafada antropologik yo'nalish tarfdori edi. Uning ta'biricha, inson tabiatning bir qismi, uning gultojidir. Shuning uchun dunyodagi hamma narsa insonga xizmat qilishi lozim. Feyerbax

tafakkurni borliqdan, ongni materiyadan ajratib qo'yuvchi idealistlarni keskin tanqid qiladi. Feyerbax insonni biologik mavjudod sifatida qarab uning ijtimoiy mavjudod ham ekanligini unutib qo'yadi.

Feyerbax Gegelning idealistik falsafasi din bilan yaqin aloqada deb hisoblaydi. Shu tufayli, uning fikricha, dindan qutilish uchun Gegel ta'limotidan mutloq ozod bo'lish lozim, chunki Gegelning «Mutloq 'oyasi» dunyodagi xudodir. Feyerbaxning 1841 yilda yozilgan «Xristianlikning mohiyati» asari bir zarba bilan Gegel falsafasidagi qarama-qarashiliklarni hal qildi va yangidan materializm 'albasini e'lon qildi. Biroq, Feyerbax Gegel falsafasini, uning idealizmini tanqid qilish jarayonida undagi «Ratsional ma'zini» ko'ra olmadi, ya'ni u Gegelning dialektik usulini, undagi o'zaro bo'lanish va taraqqiyot haqidagi ta'limotini uning idealizimi bilan birga rad etdi.

Feyerbax olam va uning qonunlarini bilish mumkinligini inkor qiluvchi Kant agnostitsizmini tanqidlandi. Feyerbaxning asosiy kamchiligi jamiyatning asosiy taraqqiyot qonunlarini tushunmasligi va bilmaganligi edi. Feyerbax ateist edi. U «Xudo odamlarni emas, balki odamlar xudoni yartagan degan fikrni bildirgan. Lekin u dinni tugatmoqchi emas, balki mavjud xristian dinning o'rniga yangi dinni yaratmoqchi bo'ladi.

Ushbu mavzuni chuqur o'rganishga qiziqqan talabalarga rus va o'zbek tillarda nashr qilingan falsafiy lu'atlardan faylasuflarni topib o'qishingizni tavsiya etamiz. Yana, «Falsafa asoslari»T. 2005 92-105 betlar; «Falsafa» T., 2005 83-95 betlar kitoblarini ham tavsiya qilamiz.

4.XX asr insoniyat falsafasi solnomasiga misli ko'rilmagan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy o'zgarishlar asri tarzida kirib keldi. Bunga tabiat, jamiyat va inson tafakkurining deyarli barcha jabhalarida erishilgan muhim yutuqlar asos bo'ldi. XX asr oxiriga kelib an'anaviy (klassik) tafakkur uslubi o'miga noan'anaviy (noklassik) tafakkur, uslubi tabiatshunoslikda o'zgarishlar yuz berdi. Tabiatshunoslik sohasida misli ko'rilmagan o'zgarishlar yuz berdi. Tabiatshunoslik rivoji shunchalik ilgarilab ketdiki, mikro va makro dunyoni tadqiq qilish, kosmosga odam uchirish kabi masalalar insonni hayratga solarli darajaga etdi.

XX asr ~arb falsafasi boshqa yo'ldan ketdi. Bir tomondan, falsafadagi borliq, ong, bilish, tarix falsafasi kabi an'anaviy masalalariga o'zgarish kiritib, ularni yangicha tahlil qildi. Ikkinchidan klassik falsafaga o'z munosabatini bildirib, ilgarigi falsafa yangi davrda ro'y berayotgan o'zgarishlarni izohlashga oqizlik qilayotganligini ko'rsatadi. Bugungi kunga kelib ko'pgina falsafiy oqimlar o'zlarning an'anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida nomlariga «Neo», ya'ni, yangi zamonaviylashgan degan ma'noni anglatuvchi qo'shimchani qo'shganlar. Masalan neotomizm, neopozivizm va boshqalar. Fanning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilashda zamonaviy falsafiy ta'limotlarni ikki yo'nalishga ajratish

mumkin. Ulardan biri Stsientizm (lot Snitsen fan) ya'ni, fan mavjud ekan barcha muammolarni xal qilish mumkinligini, ilm- fan insoniyat hayotida ijobiy rol o'ynashini tar'ib qiluvchi ta'limot.

Ikkinchisi- antistsientizm, ya'ni fan taraqqiyotiga jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi deyuvchi ta'limot. XX asr falsafasida inson, insoniylik va insoniyat, insonning ichki va tashqi dunyosini bilish jarayonining yangi qirralari kabi masalalarga keng o'rin berildi. Bu davrda bir qancha falsafiy oqimlar vujudga keldi. Shulardan biri sifatida «Hayot falsafasi» oqimning vakili nemis faylasufi Nitsshedir (1814-1900). U klassik falsafadigi mavhum tushunchalar bo'lgan materiya va ruh, borliq va ong o'riniga «hayot» tushunchasini kiritish kerakligini ko'rsatadi. Hayot deganda, u tabiiy- biologik tamoilni tushunish bilan bir qatorda insonning mukammallikka intilishini ham nazarda tutadi. Nitsshe bu intilishda iroda kuchiga alohida e'tibor beradi. Nitsshe Sharq falsafasini, ayniqsa, bundan 2700 yillar muqaddam bizning diyorimizda yaratilgan zardushtiylik falsafasini mukammal o'rganadi va «zardusht tavallosi» nomli asarni yozadi. Unda Sharq odami haqida fikr yuritadi, uni ~arb hayotiga singdiradi. Insonni uning yaxshiligini ulu'laydi. XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqimlardan biri Neotomizmdir. Bu oqim o'rta asrlardagi Foma Akvinskiyning ta'limotini qaytadan tikladi. Neotomizm vakillari fikricha, ilm etmagan joyda e'tiqod qo'llanishi kerak. Bu ta'limotga ko'ra xudo tomonidan berilgan ilm va e'tiqod o'rtasida to'la muvofiqlik bor.

Neotomistlar dunyoni, jamiyatni xudo yaratgan deyдилar. Neotomistlar. Bu ta'limot XX asrda paydo bo'lgan, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning hayoti o'zi uchun eng oliy maqsaddir. Shunday ekan, inson hayotidan kimdir o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida fodalanishi mumkin emas. Kant izdoshlari jamiyat manfaatiga qarshi bo'lgan, ungacha zid ish qilmaydigan, ammo o'z haq- huquqlarini yaxshi biladigan insonlarni qo'llab quvatlaydilar.

Neopozivitizm. Neopozivitizm, pozitivizmning tarixiy ko'rinishi tarzida bir vaqtda XX asrning 20 yillarida Avstriya, Angliya va Polshada paydo bo'ldi. Uning 'oyaviy otasi ko'zga ko'ringan Avstryalik mantiqshunos va fizik olim Morits Shilik (1893-1936) hisoblanadi. Neopozitivistlar fikricha falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo'la olmaydi. Falsafa- obektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya'ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o'rganib, ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kerak. Oxir- oqibatda pozitivizm vakillari falsafa bilimlarning haqiqiyiligini, mantiqiy lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak degan xulosaga keldilar. XX asrning 60-70 yillariga kelib, neopozitivizmning mavqei kamayib, asosiy o'ringa strukturalizm va germenevtika chiqdi.

Strukturalizm. Bu oqim vakillari bilish jarayonida strukturaviy usulni mutloqlashtiradi. Ular, narsa va xodisalarning strukturasini bilish, uning obektiv mohiyatini bilish demakdir degan xulosaga keldilar.

Germenevtika. «Germenevtika» yunoncha soʻz boʻlib «izohlayman», «tushuntiraman» degan maʼnolarni beradi. Bu oqim yunon afsonalaridagi xudolarning xoxish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun erga yuborilgan elchi Gershes nomi bilan ataladi. Demak, ermenevtika- tushunish, tushuntirish, tahlil etish `oyalariga asosiy iqqatini qaratadi. Oddiy kishilar tushunilmaydigan yozuvlar, `oyalar, ikmatlar (masalan Tavrot, Qur'on vah.k) ma'nosini izohlovchi kishi «Germenevt» hisoblangan. Hozirgi davrda bu ta'limotning ko'plab tarafdorlari mavjud. Ekzistentsializm. Ekzistentsializm lotincha «mavjudlik falsafasi» degan ma'noni anglatadi. Bu oqimning vatani dastlab Rossiya boʻlib, XX asrning 30 yillariga kelib Germaniya, Frantsiya, Italiya, Aqshda keng rivojlandi. Mavjudlik falsafasi nihoyatda xilma- xil yo'nalishdagi ta'limotlarni insonning ma'naviy dunyosi, inson taqdiri, huquq va erkinligi `oyalari asosida umumlashtirdi. Bu muammolarning talqin ayniqsa, ijodkor ziyolilar o'rtasida ommaviy tus oldi.

Ekzistentsializm vakillari dunyoviy- diniy yo'nalishlarga bo'linadi. Dunyoviy bo'linish vakillari Xaydeger, Sartr, Kamyularning ta'limotiga ko'ra, inson o'zining yaratish jarayonini o'zi amalga oshiradi. Inson oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkindir. Demak, inson o'z hayotini o'zi erkin belgilaydi, uning kim bo'lib etishishi faqat o'ziga bo'liq. Inson ozod va erkin hayot kechirishga haqlidir deb talqin qilishadi.

Diniy yo'nalish vakillariga Yaspers, Marsel fikricha inson o'z erkin faoliyati davomida xudoga qarab, unga etishish uchun, kamolat tomon harakat qiladi. Hayotda o'lim, qo'rqinch va dahshat tushunchalari bu ta'limotda markaziy o'rin egallaydi. Ekzistentsializm fikricha, olam ma'nosiz va uni bilib bo'lmasligi abadiy, inson umri o'tkinchi bo'lganligi uchun ham dahshatlidir.

XX asr falsafasining yana bir oqimi pragmatizmdir. Pragmatizm AQShda keng tarqalgan bo'lib, foydali faoliyatga undovchi, foydaga qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. Bu ta'limotning yirik namoyondalari Ch. Pirs, J. D'yui, U. Djems va boshqalar. Pragmatizm AQSh ijtimoiy madaniy hayotining qadriyatlarini ifoda etib, u erdagi ishbilarmonlar, menedjerlar, siyosatchilar va davlat arboblari o'rtasida keng tarqalgan.

Amerikaliklar bu ta'limotni halqni dunyoqarashini o'zgarishida, hozirgi «amerikacha» yashash va amerikacha hayot tamoyillarini keng ommaga singdirishda va jahonga tar'ib qilishida katta xizmat qilgan faylasuflar sifatida qaraydilar.

Tayanch tushunchalar:

Inkvizitsiya, sxolastika, nominalizm, realizm, Foma Akvinskiy, Rodjer Bekon, Uy'onish davri, Nikolay Kuzinskiy, Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Ingliz falsafasi, Frantsuz falsafasi, Nemis falsafasi, geotsentrizm, geleotsentrizm, stsiyentizm antiststsiyentizm, neotomizm, neopozivitizm, strukturalizm, germeneytika, ekzistentsializm, pragmatizm.

Takrorlash uchun savollar

1. Evropada uy'onish davri va undagi falsafiy tafakkur takomilini gapirib bering
2. XVII- XVIII asrlarda ~arbiy Evropada fan taraqqiyotining falsafaga ko'rsatgan ta'siri haqida so'zlang
3. Milliy falsafiy maktablar deganda nimani tushunasiz?
4. XVIII- XIX asr Evropa falsafasidagi oqimlar va falsafiy maktablarni gapirib bering
5. XX asr falsafasining xarakterli xususiyatlari nimalarda ko'rinadi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998
2. Karimov I.A. Biz qurish, yaratish yo'lidan boravramiz T., 1995.
3. Gorbachev V.G. Istoriya filosofii. M., 1998.
4. Zotov A.F. Sovremennaya zapadnaya filosofiya. M., 2001
5. Rossel V. Istoriya zapadnoy filosofii. M., 2002
6. Tulenov J. Hayot falsafasi T., 1997
7. Falsafa asoslari T., 2005, 92-105, 115-123 betlar
8. Falsafa T., 2005, 83-89, 95-106 betlar.

5- MAVZU: OLAM VA ODAM: FALSAFIY TALQIN

Reja:

1. Olam va odamning mavjudligi va yashashi bilan bo'liq muammolarning tarixiy ildizlari.
2. Olam tushunchasi. Uning ilohiy yaratilganligi, yoxud tabiiy yaratilganligi muammosi.
3. Olamning namoyon bo'lish shakllari

Bu mavzuni o'rganishda olamda odamning mavjudligi va yashashi, hayoti va faoliyoti bilan bo'liq holda shakllanganligini uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotning mahsuli ekanligini ko'z oldimizga keltirishni unitmasligimiz lozim. Qadim zamonlardan buyon odam o'zini anglagach, olamning tarkibiy qismi ekanligini tushuna boshladi. Olamning hayot kechiruvchi makon, tirikchilik vositasi ekanligini tushunib etib, uni avaylab - asrash, e'zozlash tuy'usi shakllana boshladi. Shu tufayli, olam asosida yotuvchi havoni, tuproqni, olovni va suvni muqaddaslashtirish singari `oyalar Antik dunyoda vujudga keldi hamda Olam haqidagi dastlabki sodda ta'limotlar va qarashlar paydo bo'ldi.

Ayrim kishilar olamni tirikchiligini ta'minlovchi narsalarni odam uchun, uning yashashi uchun xudo tomonidan yaratilgan ne'matlar deb qarashadi. Bunday qarashdan olam odam uchun yaratilgan degan ma'no kelib chiqadi.

Islom dinida esa olam bu ilohiy voqelikdir. Ya'ni 18 ming olamning yaratuvchisi Ollohdur. Bu borada vahdati vujud va vahdati mavjud ta'limotlari bo'lgan. Talabalar «Dinshunoslik» fanidan bu haqda ma'lum tasavvurga egalar. Islom diniga mansub mutafakkirlar Olam va Odam haqidagi ta'limotni har taraflama rivojlantirganlar. Masalan, Farobiy fikricha, ilk Olam azaliy Ollohning o'zidir. Olamning asosida bitta mohiyat - substantsiya yotadi, deb hisoblovchi ta'limotni monizm deb atashadi. Falsafa tarixida faylasuflar

substantsiya sifatida, biror jismni, hodisani, materiyani, `oyani yoki ruhni olishgan. Substantsiya sifatida moddiy jismlarni, materiyani asos qilib oluvchilar- materialistik monizm tarafdorlari. ~oyani, ruhni oluvchilar esa idealistik monizm tarafdorlari hisoblanadilar. Olamning asosida ham moddiy jism yoki materiya, ham ruh, `oya yotadi deb hisoblovchi faylasufni falsafa tarixida dualistlar deb atashgan. (lotincha dualist- ikkilangan) degan ma'noni anglatadi. Falsafa tarixida Arastu, Moniy, R. Dekrat va boshqalar dualistlardir. Olamning asosida yotuvchi mohiyatni axtarish tarixi, fanning uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Masalan, Qadimgi Misr, Hindiston, Markaziy Osiyo va Xitoyda, Bobilda va Yunonistonda. Ba'zi bir falsafiy ta'limotlarda esa, olamning asosida- olov, havo, tuproq va suv yotadi, barcha narsalar ana shu to'rtta unsurning birikishidan hosil bo'lgan, deyilgan. Qadimgi Yunon faylasuflari Demokrit, Levkipp va Epikurlar olamning asosida eng mayda zarachchalar- bo'linmas atamlar yotadi deb hisoblaganlar.

Bu mavzuni chuqurroq o'rganish uchun Falsafa asoslari kitobini T.,2005, 51-63 betlarini o'qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

2. Olam tushunchasidan keng qamrovli va keng yo'nalishli tushuncha yo'q. Olam bizga ma'lum bo'lgan va ma'lum bo'lmagan barcha elementar zarrachalardan tortib butun koinotni ham o'z ichiga qamrab oluvchi voqeiylik sifatida tushuniladi. Ba'zi kishilar Olam deganda barcha narsalarni, jismlarni, hodisalarni qamrab oluvchi universal sistemani tushunadi. Bu ma'noda olam kosmologik koinot tushunchasiga mos keladi.

Ayrimlar Olamni cheksiz chegarasiz, boshqalar esa koinot ma'nosidagi uni cheklanmagan ob'ekt sifatida tushuntirishga harakat qiladi. Talabalar shuni bilishi lozimki, chegarasizlik, cheksizlik tushunchalari nisbiy ma'noga ega bo'lib, bir sistemada chekli hisoblangan ob'ekt boshqa sistemada cheksiz bo'lishi mumkin.

Diniy qarashlarda olam ilohiy qudrat kuchi bilan yaratilgan deb talqin etiladi. Bu olamning yaratilganligiga, boshlanish davri bo'lib, uning chekli ekanligiga ishoradir. Islom dinidagi Olam haqidagi ta'limotlarda o'n sakkiz ming olam haqida gapiriladi va ilohiy qudratning hosilasi sifatida talqin qilinadi. Dinda olamni «bu dunyo» - o'tkinchi olam va «narigi dunyo»- abadiy olamga ajratib tushuntiriladi.

Bu dunyodagi mashaqqatlar evaziga inson narigi dunyoda rohat -faro'atda yashaydi, degan diniy `oyaga asoslaniladi. Falsafa fani olamni izohlashda hozirgi zamon tabiiy

fanlarining olam haqidagi kashfiyotlariga asoslanib umumlashgan xulosalar chiqaradi. Falsafadagi olam tushunchasi dindagi va boshqa bilim sohalaridagi olam haqidagi tasavvurlarga nisbatan boyroq, kengroq va sermazmunliroqdir.

Olam tushunchasi haqidagi turli tasavvurlarini quyidagi manbalardan o'qing. Falsafa. Toshkent - 2005., 108-135 betlar; Falsafa lu'ati. T., «O'zbekiston», 2002; «Olamning fizik manzarasi» T., 1999; 356- 358 betlar. Falsafa asoslari. T., 2005, 125-129 betlar

3. Olamning namoyon bo'lishi shakllari xilma-xil va turli tumandir. Olam quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Faqat moddiy jismlardan iborat bo'lgan olamni biz moddiy olam yoki fizik olam deb ataymiz.

2. Odamning ruhiy - ma'naviy dunyosini qamrab oluvchi olamni ma'naviy olam deyishadi.

3. Olamning mavjudligi shubhasiz bo'lgan va barcha e'tirof etadigan qismi real olam deyiladi.

4. Inson bilan birgalikda mavjud bo'lgan olam aktual olam deyiladi.

5. Kelajakda mavjud bo'lish imkoniyati bor, bo'lishi mumkin bo'lgan olam potentsial olam deyiladi. Masalan, sizning bugungi kundagi talabalik yoshligingiz aktual olamga mansub bo'lsa, kelajakda bilim olib mutaxassis bo'lib etishingizni esa potentsiol olamga mansub deyiladi.

6. Kelajakda mavjud bo'lishi ehtimol bo'lgan olam virtual olam (virtual, lotincha virtwalis - ehtimoldagi) deyiladi.

7. Aniq ma'lum bo'lgan olam konkret olam deyiladi.

8. Tasavvurdagi, idealdagi, orzudagi olam obrazi abstrakt olamga mansubdir.

9. Insoniyat jamiyatidagi ijtimoiy faoliyatlar o'zaro munosabatlari, ideallari, maqsadlari, orzu umidlari bilan birgalikda ijtimoiy olamni tashkil etishadi. 10. Individual olam, ayni paytda ijtimoiy olamni ham, tashqi olamni ham o'zida aks ettiradi. Bular bir biri bilan chabarchas bo'liqdir.

Xullas, Olam haqidagi turli - tuman tasavvurlar, borliqning eng umumiy falsafiy tushunchasi shakllanishiga asos bo'ladi. Olamning namoyon bo'lishi shakllarini Falsafa asoslari kitobining 128- 129 betlaridan o'qib o'rganishingizni tavsiya qilamiz.

Tayanch tushunchalar

«Olam» tushunchasi, substantsiya, fan va din, fizik olam, aktual olam, real olam, abstrakt olam, ijtimoiy olam.

Takrorlash uchun savollar

1. Olam tushunchasining va unda odamning o'rnini gapirib bering.
2. Olamning xilma-xilligi va murakkab tuzilishi deganda nimalar tushuniladi?
3. Olamda odamning o'rnini qanday?
4. Olamning namoyon bo'lish shakllarini aytib bering?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., 1996
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., 2000.
3. Karimov I.A. Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot provard maqsadimiz. T., 2000.

4. Mir filosofii M., 2001
5. Tulenov J.T. Hayot falsafasi T., 1997.
6. Xo'jamurodov I.R. Eshmetov N.H. Fanlarning falsafiy masalalari. T., 2003.
7. Falsafa asoslari T., 2005; 225-229 betlar.
8. Falsafa T., 2005, 108-111 betlar
9. Yusupov E.Yu. Inson kamolotining ma'naviy asoslari.T., 1999.

6- MAVZU: BORLIQ VA UNING FALSAFIY TAHLILI

Reja:

1. Borliq tushunchasi va uning falsafiy ma'nosi
2. Borliqning asosiy shakllari va turlari. Dunyoning moddiy birligi
3. Borliqning asosiy mavjudlik shakllari

1. Falsafaning borliq haqidagi ta'limotni izohlaydigan qismi- ontologiya deb ataladi. Borliq- ongga bo'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan ob'ektiv olamni ifodalovchi falsafiy tushuncha (kategoriya)dir. Ilmiy falsafa nuqtai nazaridan borliq tushunchasi sermazmun, ko'p qirrali bo'lib, insonga bo'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan ob'ektiv olamni o'rganish uchun ishlatiladi. Borliq tushunchasi yordamida kishilar o'z ongida dunyoning mavjudligi, uning cheksizligi, abadiyligi, yaxlit va bir butunligi haqida umumiy tasavvurga ega bo'ladi.

Ilmiy falsafa nuqtai nazaridan qaraganda bizni qurshab turgan olam doimo harakat qiluvchi borliq, materiya va uning turli hildagi shakllari va ko'rinishlaridan iboratdir. Diniy ta'limotlarda olamning asosi, uning mohiyati ilohiy kuch, ruh bilan bo'lab qo'yiladi. Ilk borliq bu olamdagi barcha narsa va hodisalarni yaratuvchi xudodir. «Ilk borliq ya'ni Tangri,- deydi Farobiy, o'zining asl mohiyati bilan boshqa barcha narsadardan farqlidir: u azaliydir. Chunki modda ham emasdur, sub'ekt ham emasdur, uning suvrati ham bo'lmaydi, uning bir o'zi bu borliqda yakkayu yagonadir, u shu jihatidan ham birinchidir». Gegel ta'ldimotiga ko'ra olamdagi hamma narsalar va hodisalar «Mutloq `oya» ning mahsulidir, shuningdek, boshqa diniy va falsafiy qarashlarda ham borliq muammosini maydonga tashlab unga turlicha talqin berganlar.

«Dunyo» hozir mavjud ekan, uning o'tmishi bo'lganmi, kelajagi ham bormi?» degan savol ularni qiziqtirgan. Bu savolga faylasuflar turlicha javob berganlar. Ba'zilar dunyo bo'lgan, bor bo'ladi, biroq o'tkinchi, deb qarasha, boshqalari dunyo bo'lgan, bor bo'ladi va u o'tkinchi emas, doimiydir degan fikrni ilgari suradi.

Aslida, borliq keng falsafiy tushuncha bo'lib o'ziga butun moddiy va ma'naviy olamni, uning o'tmishi, hozir va kelajagini ham qamrab oladi. Faylasuflar borliqni tushuntirish uchun yo'qlik tushunchani unga antipod qilib olishgan va shu asosda borliqni zaruriy mohiyatini ochishga intilganlar.

Borliq o'ziga obektiv va sub'ektiv reallikni, mavjud bo'lgan vamavjud bo'ladigan olamlarni, moddiylik va ma'naviylikni, o'tmish va kelajakni, o'lim va hayotni, ruh va jismni qamrab oluvchi ilmiy va falsafiy tushunchadir.

2. Olamda hech narsa yo'qki, u borliqning, materiyaning aniq shakli, uning muayyan holati yoki xossasi, uning qonuniyatli o'zgarishini, taraqqiyotining mahsuli bo'lmasin, butun borliq to'risida o'ylasak, makon va zamoning undagi borliqning cheksizligini tasavvur qilamiz. Butun borliq cheksiz, u makon va zamonda abadiydir, bundan borliqning birinchisi va asosiy tomoni kelib chiqadi. Dunyo mavjudmi, mavjud bo'lsa qayerda mavjud? Shu erda, hamma erda mavjud. Borliqning ikkinchi muhim tomoni quyidagicha: tabiat, inson, jamiyat, fikr, 'oyalar mavjuddir: farqi ularning turli shaklda bo'lishidir. Ular mavjudligi bilan cheksiz, doimiy bir butun dunyoni tashkil qiladi, boshqacha aytganda hamma borliq mavjud bo'lgan, bor, bu dunyo moddiy birligining shartidir. Dunyoning moddiy birligini quyidagilardan yaqqol ko'rish mumkin.

1. Borliq, materiya obektiv reallikdir, u inson ongidan tashqarida real mavjuddir.

2. Dunyo moddiydir, barcha narsalar va hodisalar materiyaning turli shakllaridan ko'rinishlaridan iborat.

3. Borliqdagi barcha narsa va hodisalar o'zaro chambarchas bo'liqdir.

4. Fazoda cheksiz va vaqtda abadiy harakatda bo'lgan materiya butun mavjudotning negizi va manbaidir.

5. Moddiy birlik butun borliqning umumiy qonunidir. Borliq shakllari uning reallik shakllaridir. Shunday ekan borliqning asosiy shakllarini ko'rib chiqaylik.

1. Tabiat borli'i moddiy dunyodagi barcha narsalar, eng mayda zarachallardan tortib to er, quyosh, butun koinotgacha insonlar tomonidan yaratilgan narsalar, buyumlar, inshootlar, texnik qurilmalar.

2. Inson borli'i u o'ziga xos betakrordir. Inson borliq sifatida tabiat bilan uzviy bo'liq. Chunki inson tabiat evolyutsiyasi natijasida vujudga kelgan va u bo'liq holda rivojlanadi. Inson tanasi tabiat jismlaridan iborat.

3. Ma'naviy borliq ('oyaviy- borliq). Unga inson tomonidan yaratilgan qadriyatlar majmui - ya'ni madaniyat, ilm, fan, til, ahloq- odob qoidalari kiradi. Ma'naviy borliq o'z navbatida individual va ijtimoiy ma'naviyatga bo'linadi.

4. Ijtimoiy borliq. U jamiyat hodisalarining barcha turlarini o'z ichiga qamrab oladi. Aziz talabalar endi borliqning asosiy mavjudlik shakliga to'xtab o'taylik. Ular: harakat, fazo va vaqtdir. Ilmiy falsafa nuqtai nazaridan harakat borliqning (materiyaning) eng muhim atributi- mavjudlik usulidir. Harakat tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan hamma jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. Harakat ham materiya kabi obektiv- realdir. Materiya o'ziga xos ichki qarama- qarshiliklarga ko'ra harakat qiladi, rivojlanadi. Materiya harakati va taraqqiyotning manbai ichki ziddiyatlardir.

3. Harakat real voqelikda ro'y beradigan hamma o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Rivojlanish deganda esa muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, faqat ilgarilanma yo'nalishga ega bo'lgan, miqdoriy va sifatiy o'zgarishlarni ko'zda tutamiz. Bu o'zgarish narsa va hodisalardagi qarama-qarshi tomonlar (ichki ziddiyatlar) ning natijasidir. Bunday o'zgarishlar natijasida eskining o'rniga yangisi paydo bo'ladi, quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga o'tish sodir bo'ladi. Shuning uchun «Harakat» tushunchasi, «Rivojlanish» tushunchasiga qaraganda keng tushunchadir. Harakat materiyaning (Borliqning) ichki mohiyatidan kelib chiqadigan ob'ektiv jarayon, u ikki turda namoyon bo'ladi:

1. Narsalarning mavjud sifatini saqlab qolish asosida ro'y beradigan o'zgarishlar.

2. Narsalarning mavjud sifatini o'zgarishi asosida sodir bo'ladigan jarayondir. Harakat turli tuman ko'rinishlarda bo'ladi. Ilgari harakatni asosan besh shaklga; mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy harakatlarga bo'lib o'qitilardi. Endilikda ularni uchta turga ajratish mumkin.

1. Jonsiz tabiatdagi harakat.

2. Jonli tabiatdagi harakat.

3. Ijtimoiy harakat.

Bular bir-birini to'ldirib, yuqorida ko'rsatilgan harakatlarning barcha shakllarini o'z ichiga qamrab oladi. Materiya harakatining hamma shakllari o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjudligini unutmaslik kerak. Borliq doim harakatda, o'sish va o'zgarishda va taraqqiyotda ekan, bu jarayonlar hamisha fazo, vaqtda yuz beradi. Harakat kabi fazo va vaqt ham materiyaning mavjudligini tub ob'ektiv shaklidir. Harakatni materiyaning ajratib bo'lmaganidek, fazo bilan vaqtni ham materiyaning ajratib bo'lmaydi. Harakat fazo bilan vaqtning mohiyati, birligidir. Fazoning o'ziga xos xususiyati va vaqtdan farqi uning o'lhoviga ega bo'lishidir. Vaqt esa bir o'lhovga ega bo'lib qaytarilmaydi. Moddiy narsalar fazoda har hil joylashishlari, turli tomonga harakat qilishlari mumkin. Lekin, vaqt hech qachon orqaga harakat qilmaydi, takrorlanmaydi. Harakat, fazo va vaqt cheksizdir. Ularning boshi ham oxiri ham yo'q va bo'lmagan bo'lmaydi ham. Ilmiy falsafa nuqtai nazaridan materiyaning xususiyatlar fazo va vaqtga ham xosdir. Materiya fazoda cheksiz va vaqtda abadiydir.

Tayanch tushunchalar

Borliq, materiya, mavjudlik, inson borli'i, ma'naviy borliq, sotsial borliq, harakat, rivojlanish, fazo va vaqt.

Takrorlash uchun savollar

1. Borliq tushunchasi ma'nosini aytib bering?
2. Dunyoni moddiy birligini qanday tushunasiz?
3. Borliqning asosiy mavjudlik shakli deganda nimani tushunasiz?
4. Harakat va rivojlanishni qanday tushunasiz.
5. Harakat, fazo va vaqt nima shu haqida so'zlab bering?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarxiy xotirasiz kelajak yo'q.T., «O'zbekiston»,1998.
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotprovard maqsadimiz T., «O'zbekiston»2000.
3. Mir filosofii M., 2001
4. Falsafa ma'ruzalar matni T., 2000
5. Falsafa. T., 2005, 107-118 betlar
6. Falsafa asoslari. T., 2005, yil 130-138 betlar

7- MAVZU: TABIAT FALSAFASI.

Reja:

1. Tabiat tushunchasi, uning tuzilishi, falsafiy mohiyati va mazmuni.
2. Tabiat va jamiyat, ularning o'zaro aloqasi.
3. Erda hayot va biosotsial evolyutsiya
4. Tabiatni falsafiy tushunishning ahamiyati, ekologik muammolar va ekologik tarbiya

Bu mavzuni o'zlashtirishda shunga ahamiyat berish kerakki tabiat va jamiyat haqidagi konkret fanlar borliqning u yoki bu xossalarini o'z predmetlari doirasiga mos keluvchi muayyan xususiyatlarini o'rganadi. Borliqning umumiy xossalarini esa falsafa fani o'rganadi. Tabiat benihoyat xilma- xil shakl va ko'rinishlarda bo'lib juda keng ko'lamda ishlatiladigan tushunchadir. Tabiat deganda keng ma'noda materiya, koinot tushunchalarini, tabiatda mavjud narsalarni, yulduzlar, galaktika, galaktikalar majmuasi, makon va zamondagi eng kichik zarrachalardan tortib atom, molekula, mikroorganizmlar, o'simliklar, hayvonot va insoniyat olami tushuniladi. Tabiat tushunchasining tor ma'nosi ham bor. Bu inson va insoniyat yashashining tabiiy sharoitlari majmui bo'lib, tabiiy muhit yoki geografik muhit deb ham yuritiladi. Tabiat tushunchasining ilmiy falsafiy mohiyati u moddiy borliq sifatida bo'lgan, bor, bo'ladi deb qarashdir. U insondan ilgari ham bo'lgan inson bilan ham, undan keyin ham abadiy mavjuddir. Biroq tabiatdagi ayrim narsalar, jarayonlar, hodisalarning borli'i o'tkichidir. U vaqtda cheklangan, fazoda o'lchovlidir. Masalan, har –bir inson to'g'rilida, voyaga etadi, o'z umrini tugatadi. Lekin u mutlaqo yo'q bo'lib ketgani yo'q, bir moddiy xolatdan ikkinchi xolatga o'tdi, xolos. Demak, tabiat abadiy, ya'ni bo'lgan, bor, bo'ladi. U insonning xoxish istaklariga bo'liq bo'lmagan holda mavjuddir. Endi ikki o'iz so'z tabiat ab'ektlarining tuzilishi haqida. Hozirgi zamon tabiat fanlarining xulosasiga ko'ra olamdagi har qanday jism molekulalardan tashkil topgan, molekular esa atomlardan tuzilgan. Atomlar murakkab tuzilgan yadro va elektron qobiqlaridan iborat.

Atomlarning yadrosi esa proton va neytronlardan tashkil topadi, proton neytronlar kvarklar va ularni tutashtirib turuvchi glyuonlardan tashkil topgandir. Tabiatdagi organik va anorganik moddalar molekula tuzilishibilan bir- biridan farq qiladi. Jonli organizmlar organik moddalardan tashkil topgan bo'ladi. Jonli organizmlarning tarkibi asosida hujayralar va hujayra sistemalari yotadi. Er shari atrofini qurshab turuvchi biosferani bir butun jonli sistema deb atash mumkin. Mikroorganizmlar, o'simlik dunyosi, hayvonot dunyosi va insonning

oʻzaro aloqadorliklari bu biosferaning mavjudligini taʼminlab turadi. Er shari, uning tabiiy yoʻldoshi oy bilan birga yilida bir marta quyosh atrofini aylanib chiqadi. Bu sistemaga ham biosfera oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Er yuzida mintaqalarning farq qilishi, fasllarning almashinuvi ana shu sistema harakati bilan boʻlanganidir.

Quyosh va uning atrofida harakatlanuvchi planetalar, ularning yoʻldoshlari, kometalalar, asteroidlar, meteriotlar bilan birgalikda quyosh sistemasini tashkil etadi. Quyoshdan eng uzoqda joylashgan planeta Pluton boʻlib quyosh atrofini 247,5 yilda bir marta aylanib chiqadi. Er yili 365,25 kunga teng boʻlsa- pluton yili 247,5 ta er yiliga tengdir.

Quyosh sistemasi millionlab yulduzlarni oʻz ichiga oluvchi galaktika (samon yoʻli) tarkibiga kiradi. Galaktikaning diametri 94,6 mln yoruʻlik yiliga teng. Undan keyingi sistema galaktikalar toʻpi boʻlib, uning diametri 1 megaparseka teng, u 30 tagacha galaktekani oʻz ichiga oladi (1 parsek 3.260000.000 yoruʻlik yili). Keyingi sistema galaktikalarining mahalliy toʻpi, unga 2 ta gipergalaktika va 27 ta mitti galaktikalar kiradi. Majmuada 500 tagacha galaktika boʻladi, uning dimetri5- megaparsek. Galaktikalar majmuasi, galaktikaning oʻta majmuasiga birlashadi, uning diametrik 40 megoparsek boʻlib oʻzida 10 mingdan ziyot galaktikani birlashtiradi. Oʻta yirik majmualar koinotning boshqa strukturaviy birliklariga kiradi. Koinotning radiusi 15-20 milliard yoruʻlik yiliga tengdir. abiatning biz yuqorida qayd etgan koʻrinishlaridan boshqacha koʻrinishdagi turlari ham boʻlishi mumkin, ularning tabiati hali fanga maʼlum emas.

Borliqdagi ob'ektlar miqyosi bilan farqlanuvchi uchta miqyosiy struktura darajalariga ajraladi. Ular: Mikrodunyo, makrodunyo va megodunyo. Mikrodunyo atom miqyosidan kichik boʻlgan dunyodir. Biz odatlangan oʻlchovdagi kattaliklarni makroskopik kattaliklar deb hisoblaymiz va bu makrodunyoni tashkil qiladi. Gravitatsion oʻzaro taʼsirlar birikib turgan dunyo megadunyo deb ataladi. Tabiat ob'ektlarining tuzilishi haqida batafsil bilishni istasangiz Falsafa asoslari kitobning 139-143 betlarini oʻqib chiqing. Talabalar koʻpincha birlamchi, ikkilamchi tabiat deganda bu nima ekan deb ajablanadilar.

Birlamchi tabiat moddiy olam insonga boʻliq boʻlmagan xolda mavjud boʻlib, oʻz- oʻzicha tabiat qonunlari asosida rivojlanadi. Ikkilamchi tabiat esa inson tomonidan yaratilgan buyumlar, narsalar, eng oddiy mehnat qurollaridan tortib to hozirgi zamon murakkab texnologiyasigacha boʻlgan barcha asboblarni,kiyim- kechak, uy - joy anjomlari, turli buyumlar va boshqalardan iborat. Tabiat uning tuzilishi va rivojlanishi haqida batafsil bilimga ega boʻlish uchun talabalar quyidagi adabiyotlarni oʻqishingizni tavsiya etamiz: Falsafa maʼruzalar matni. T., 2000 160- 167 betlar; Falsafa (oʻquv- qoʻllanma) T., 1999 235- 246 betlar; Falsafa asoslari. T.: 2005, 138-145 betlar; Priroda. Filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar M., 1999.

2.Ma'lumki, tabiat odamning va jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishining tabiiy shart- sharoiti va moddiy zaminidir. Jamiyat tabiatning tarkibiy qismi bo'lsa, inson uning evolyutsion taraqqiyotining oliy cho'qqisi hisoblanadi. Tabiatning tarkibiy qismi bo'lgan inson o'zining mehnati va o'zaro aloqasi natijasida sekin- asta ijtimoiy mavjudod sifatida shakllanadi. Shuni unitmaslik kerakki, odamlar dastlab yarim yovvoyi bo'lib yashaganlar, tabiiy kuchlar oldida ojiz bo'lganlar. Yashash uchun kurash, mehnat qilish ehtiyojini to'ldirdi. Mehnat tufayli inson hayvonot dunyosidan ajralib chiqib mehnat qurollarini yaratdi va uning yordamida tabiatga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Mehnat qurollarini yaratish insonga tabiatning in'omi emas, balki insonning shaxs sifatida shakllanishi, jismoniy va aqliy takomillashuvining oqibatidir. Insonlar ona er - tabiat farzandlari sifatida erda to'la tantana qildi. Odamlarga xos fazilatlarini o'z mehnati va tafakkuri bilan yaratdi. Jamiyat tarixining bunyodkori insonlardir. Lekin jamiyat, har doim tabiatning ajralmas qismi sifatida mavjud bo'lib tabiatga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan va o'tkazmoqda. Tabiat bilan jamiyatning o'zaro munosabati turli tarixiy bosqichlarda turlicha bo'lganligini seminar mash'ulotlarida tarixiy dallillar bilan ko'rib chiqishni tavsiya etamiz.. Ona tabiat insonlar uchun oziq- ovqat manbai, mehnat qurollarining xazinasidir. Mehnat boyligining «otasi» bo'lsa, Ona zamin uning «Onasi»dir.

Tabiatning jamiyat bilan yaqindan aloqa bo'laydigan, jamiyattaraqqiyotiga a ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatadigan qismi tabiiy muhit deb ataladi. Tabiiy muhitni er va er osti boylıkları, o'simliklar va hayvonot dunyosi, dengiz, okean, daryo va ko'llar, iqlim va boshqalar tashkil qiladi, qulay tabiiy muhit jamiyat rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Noqulay tabiiy sharoit jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir qilishini ham hisobga olishga to'g'ri keladi. Bu haqda aniq misollar keltirib o'tish lozim. Bu mavzuni o'zlashtirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak bo'ladi:

Tabiat bilan jamiyatning o'zaro aloqasi, insonning erda paydo bo'lgan davrdan yuzaga kelgan bo'lib, bu zaruriy aloqadorlik jamiyat mavjud ekan o'z ahamiyatni yo'qotmaydi. Tabiat bilan jamiyatning o'zaro aloqadorligi, ularning bir- biriga ta'siri, insonlar ongi va irodasiga bo'liq bo'lmagan ob'ektiv qonuniyatdir.

3.Tabiat jamiyatsiz mavjud bo'lgan, bor, bo'ladi. Jamiyatni tabiatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

4.Tabiat bilan jamiyatning o'zaro aloqadorligi, tabiiysharoitlarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri barcha xalqlar va mamlakatlar uchun umumiydir. Tabiiy muhit insonning moddiy xo'jalik yaratish va ishlab chiqarish faoliyatining zaruriy va abadiy manbaidir.

3.Tabiiy fanlarning, ayniqsa biologiya fanining to'plagan dalillari asosida shuni ta'kidlash lozimki, tabiatning uzoq million- million yillar davom etgan tadrijiy (evolyutsion) taraqqiyoti jarayonida jonsiz dunyodan jonli dunyo paydo

bo'lgan. Boshqacha aytganda Erda hayotning paydo bo'lishiga barcha tabiiy sharoitlar muhayyo bo'lishganidir.

Ilmiy falsafa jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o'rtasidagi o'tib bo'lmaydigan to'lar va o'vlar chegarasi yo'q deb, ta'lim beradi. Jonli tabiatning eng muhim xususiyati - moddalar almashinuvida, assimilyatsiya va dissimilyatsiyadan iborat. Tabiat taraqqiyoti yangidan yangi organik birikmalarni tashkil topishiga uning natijasida oqsil jismlarning yashash usuliga, pirovard natijasida eng sodda, hayot ko'rinishga mansub bo'lgan mikroorganizmlarni paydo bo'lishiga olib kelganligini hozirgi zamon bioximiya, biofizika, bioorganika, biologiya fanlarining amaliy tajribalari isbotlamoqda.

Murakkab organik birikmalarning bir necha million yillar davometgan tadrijiy taraqqiyoti, mikroorganizmlarni, bir xo'jayrali, ko'p xo'jayrali tirik mavjudodlarni, so'ngra o'simliklar va hayvonot olamining paydo bo'lishining natijasidir. Jonli tabiat, insonning hayvonot dunyosidan o'z mehnati va ongi tafakkuri tufayli ajralib chiqishga hamma zarur shart- sharoitlarni hozirlagan.

Tabiatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan odam tirik organizmlarning uzoq vaqt davomida sodir bo'lgan taraqqiyotning oqibat mahsulidir.

Ma'lumki, diniy ta'limotlarda odamning Alloh taolo tomonidan yaratilganligi qayd qilinadi. Masalan, Ulu'bekning «To'rt ulus tarixi» asarida, Tangri taolo odamni tuproq bilan suvdan yaratganligi aytiladi. Bu fikrlarni siz Mirzo Ulu'bekning «To'rt ulus tarixi», T., 1994 kitobidan o'qishingiz mumkin. Odamni yaratilganligi va erda tarqatilganligi haqidagi falsafiy mulohazalar Farobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida bayon etilgan. Bu haqda Abu Nosir - Farobiyning «Fozil odamlar shahri» T., 1993, kitobining 176- 187 betlarni o'qib, uning ta'limoti to'rtida kengroq tasavvur hosil qilasiz.

Inson tabiat farzandidir. Lekin, insonlarga xos fazilatni jamiyatdan oladi. Jamiyat tabiatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, unga o'z tasirini o'tkazmoqda. XX asr ilmiy - texnika taraqqiyoti insonning global masshtabda tabiat

ustidan hukumonligini o'rnatdi. Uning oqibatida inson bilan tabiat o'rtasidagi nomuvofiqlik to'xtovsiz o'sib bormoqda, uning sifat jihatdan har bir bosqichi tabiatga vayronkor ta'sir ko'rsatib, o'simliklar, hayvonlar va insonni makoni bo'lgan ona zaminga xatto havf solmoqda. Shuning oqibatida XX asrning 50- chi yillaridan boshlab atrof muhit bilan insonlarning o'zaro munosabati haqidagi ta'limot, ya'ni, ekologiya paydo bo'ldi.

4. Uzoq o'tmishdan yaqin kunlargacha tabiat insonlarni o'z ba'riga olib asragan bo'lsa, endilikda tabiat inson himoyasiga muhtojdir. Chunki, tabiatga insonning aralashishi bir tomonlama xarakterga ega bo'lishi bilan tabiat jiddiy zarar ko'rmoqda. Er, suv, havo borgan sari ifloslanmoqda, avtomobil gazlari, radioaktiv moddalar, turli ximikatlar bilan zaharlanmoqda. Er kurrasining sirtida iqlim, o'simliklar va hayvonot olami o'zgarib ketganligi bunga misol bo'la oladi. Ushbu mavzuning yuqorida qayd etgan masalalarni chuqur o'rganish va

keng mushohada qilishning ijtimoiy - siyosiy tomonidan tashqari, umumbashariy ahamiyati ham mavjud.

U hozirgi zamonda ekologik tanglikning miqyosi borgan sari kengayib borayotganligi bilan izohlanadi. Ekologik tanglikning oldini olish ob'ektiv zaruriyatdir. Birgina Orol dengizi taqdirini o'ylab ko'rsak, ekologik tanglikning naqadar keng ko'lamda kirib kelayotganini Orol misolida ko'rish mumkin. Ekologik tanglikni oldini olish kurrai zaminda hayotni, insonni saqlash bo'yicha jahon miqyosidagi xalqaro hamkorlik qilish, bugungi kunning bosh masalalaridan biri bo'lib qolganligini talabalar teran anglab olishlarini maslahat beramiz Bugungi kunda tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi muvozanatning buzilishini ekologik tanglik yoki ekologik muammo deyish odat tusiga kirgan. Ana shu ekologik muammoning oldini olishning qanday muammolari bor va ularni bartaraf etish yo'llari nimalardan iborat?

Bu savolni va uning turli jihatlarini amaliy mash'ulot darsida ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Buning uchun quyidagi adabiyotlarni o'qish lozim. Falsafa ma'ruzalar matni T., 2000 160-167 betlar; Falsafa (o'quv qo'llanma) T., 1999, 240- 246 betlar; Filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar M.; 1999 va boshqalar. Hozirgi kunda tabiatni asrash, ekologik muamolarni hal etish yo'lida jahon bo'ylab qator ishlar va muhim loyihalar ustida ish olib borilayotganligi hammaga ma'lum. Buning uchun

kishilar o'rtasidagi ekologik ta'limni amalga oshirish va ekologik tarbiyani yo'lga qo'yish kerak. Tabiatni asrash, yoshlarning ekologik ongini shakllantirish, ta'lim tarbiyaning muhim tomonlaridan biriga aylanib bormoqda. Insonda tabiatni sevish, unga aql-idrok bilan munosabatda bo'lishga qaratilgan qarashlar, bilim va e'tiqodlar majmuasi ekologik ong deyiladi. Ekologik ong, ekologik tarbiya asosida odamlarda go'zallik hissini tabiatga mehr- muhabbat, shafqat, xayrixoxlik hislarini uy'otmo'i lozim.

Aziz talabalar! Tabiat go'zalligini bir his qilib ko'rganmisiz? Unda go'zallikning sirli olami mavjud emasmi? Ona tabiatning mo'jizalarini kuzatishning o'ziyoq odamga olam- olam zavq bo'ishlaydi. Tabiat bilan yuzmayuz qolgan har qanday kishi olam go'zalliklaridan bahramand bo'lib dili yorishadi, unga mehr muhabbati yanada ortadi. Ona sayyoramiz qanday go'zal, qanday betakrorligiga, oydin kechalarda to' qirlarni, daryo, ko'l, suv jilvalarini, subhidamda esgan mayin shabadalarni, sahrolar sukunatini, xushbuy islarini, gullagan o'simliklar va mevazorlar jamolini, qushlarning yoqimli sadolarini, hashoratlar va hayvonot olami ovozi, qo'yingchi barchasini nozik xis qilib, mushohada qilgan har bir inson hayot go'zalliklaridan bahramand bo'lib bunga amin bo'lishi shubhasiz. Tabiat bugungi kunda inson himoyasiga muxtoj. Uning go'zalligini asrab avaylash va kelajak avlodga etkazish har birimizning vazifamiz ekanligini talabalar yaxshi bilishlari va tabiatni asrashga o'z hissalarini qo'shmoqlari talab qilinadi.

4. Aziz talabalar! Ona zaminimiz tabiatni asrab avaylash ishlari quyidagi dolzarb vazifalarni hal qilishga qaratilmo'li lozim deb o'ylaymiz.

1. Qishloq xo'jalik ekinlarini saqlash, tuproq eroziyasiga qarshi kurashni kuchaytirish.

2. Erlarni seldan, o'pirlishlardan, sho'r bosishdan, qaqrab qolishdan va zaharlanishdan himoya qilish.

3. Orol dengizi, Sirdaryo, Amudaryo va boshqa suv havzalari sadxini kamayishini oldini olish.

4. Zararli moddalarning atrof muhitga chiqarib tashlashni kamaytirish, suvni tozalaydigan uskunalar, tabiiy muhitning xolatini nazorat qiluvchi asboblardan avtomat stantsiyalar ishlab chiqarishni takomillashtirish.

5. O'rmonlarni yon'indan saqlash hamda ularni zararkundalardan turli kasalliklardan muhofaza qilish.

6. Issiqlik elektrostantsiyalarda mazutdan, ko'mirdan yoqil'mi sifatida foydalanishni kamaytirish, gidro elektr stantsiyalardan keng foydalanish.

7. Shaharlar, qishloqlar va ularning atroflarida yangi ko'kalamzorlarni yaratish, mavjud shunday zonalarini obodonlashtirish.

8. Ilmiy asoslangan qo'riqxonalar va milliy bo'larni, oromgohlarni vujudga keltirishni davom ettirish. Yovvoyi hayvonlarni munosib ravishda ko'paytirish hamda tabiiy ko'l, hovuzlar va suv omborlarida qimmatli baliqlar turlarini urchitib ko'paytirish tadbirlarini amalga oshirish.

Hozirgi zamon ekologik muammolarni hal qilishda barcha mamlakatlarning birgalikda hamkorligining zarurligi talab qilinmoqda.

Ushbu savol bo'yicha atroflicha ma'lumot olish uchun talabalar mavzuga oid ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qishlarini tavsiya etamiz

Tayanch tushunchalar

Tabiat, galaktika, Mikrodunyo, Makrodunyo, Megadunyo, Anorganik dunyo, organik dunyo, ijtimoiy dunyo, biosfera, noosfera.

Takrorlash uchun savollar

1. Tabiat deganda nimani tushunasiz?
2. Tabiat va jamiyat, ularning o'zaro aloqasini gapirib bering?
3. Mikrodunyo, Makrodunyo, Megadunyo nima?
4. Erda hayot va biosotsial evolyutsiyani gapirib bering?
5. Ekologik muammolar va ekologik tarbiya haqida gapirib bering?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot provard maqsadimiz T., «O'zbekiston», 2000.
2. Karimov I.A. Biz qurish, yaratish yo'lidan boraveramiz. T., «O'zbekiston», 1995
3. Vernadskiy I.V. Jivoe vechestvo M., 1973.
4. Jurnal «Priroda» 2006 y №4.
5. Farobiy. Fozil odamlar shahri. T.: 1995
6. Falsafa. Qomusiy lu'at. T., «Sharq», 2004
7. Falsafa asoslari T., 2005, 138-145 betlar.
8. Falsafa T.: 2005; 146-159 betlar.

8 - Mavzu: Taraqqiyot va aloqadorlik tamoyillar va talqinlar Falsafada metod muammosi.

Reja:

1. Harakat, rivojlanish, taraqqiyot va o'zaro aloqadorlik tushunchalari.
2. «Metod» va «metodologiya» tushunchalari.
3. Falsafada metod muammosi.

O'quv - uslubiy maslahatlar.

1. Borliq falsafasi mavzusida ta'kidlaganimizdek, harakat materiyaning mavjudlik uslubini ifodalovchi tushunchadir. Materiya harakatsiz o'zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi. Harakat tufayli tevarak - atrofimizdagi predmetlar va hodisalar o'zini mua'yan tartibini va birligini saqlab turadi. Harakat tufayli o'sish, rivojlanish, ul'ayish mavjuddir. Falsafiy ibora bilan aytganda, olamdagi hamma umuman har qanday o'zgarish harakatdir, harakat tufayli sodir bo'ladigan jarayonlardir. Harakatning manbai ana shu o'zgarishlarning asosida yotuvchi o'zaro ta'sirlar va ular orasidagi munosabatlar (ziddiyatlar) nazarda tutiladi. Harakat ya'ni o'zgarish keng tushuncha bo'lib u rivojlanishni o'z ichiga qamrab oladi. Rivojlanish deganda, muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit kompleks, hech qachon orqaga qaytarib bo'lmaydigan, faqat ilgari yo'nalishga ega bo'lgan, miqdoriy va sifatiy o'zgarishlari tushuniladi. Falsafiy dunyoqarash mavzusidan bilsizki u kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqidagi ma'lumot beradi. Shu bilan birga mavjud dunyoning narsa va hodisalarini faqat o'zaro aloqada va bir-birini taqoza qilishda doimo harakatda, o'zgarishda, rivojlanishda deb dunyoga dialektik qarash bilan birga, inson bilishini ham o'zaro aloqadorlikda va bo'lanishda, qarama-qarshiliklar birligi va kurashida, miqdor va sifat o'zgarishining bir-biriga o'tishida, eskini o'rnini yangi egallashda, xullas, ularning o'zgarib va rivojlanib turishida deb tushunishdir. Falsafa tarixidan bilasizki, olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi, bir xolatdan ikkinchi xolatga o'tib turishi rivojlanishi ular o'rtasidagi aloqadorlik, bo'lanish va o'zaro ta'sir kabi falsafiy ta'limotlar qadimdan turli bahs, munozara va tortishuvlarga sabab bo'lgan. Dunyoni falsafiy anglashda, taraqqiyot haqidagi ta'limotni ilmiy tushuntirib berishda dialektik usul katta ahamiyat kasb etadi. Dialektika atamasi qadimgi yunon faylasuflari Suqrat va Platon tomonidan qo'llanilgan bo'lib, ma'nosi baxs san'ati, baxs yordamida haqiqatga erishish demakdir.

Dialektikani baxs san'ati sifatida tushunish o'rta asrlarda ham davom etgan. Dialektikaga munozara san'ati sifatida qarash o'rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlariga xos bo'lib, hatto bu narsa Uy'onish davrida ham davom etgan. Vaqt o'tishi bilan, asta-sekin dunyoni dialektik tushunish, olamdagi narsa va hodisalarning o'zaro bo'liqligi va aloqadorligi, o'zgarish va rivojlanishning sabablari va mohiyatini ochib beradigan ilmiy metodologik qurolga aylana boshladi.

Falsafa tarixidan ma'lumki, dastlab kishilar rivojlanish to'rtida hech qanday tasavvurga ega bo'lmaganlar. Keyinchalik sodda tasavvurga, so'ngra ular dunyodagi narsa va hodisalarda yuz beradigan turli xil o'zgarishlarni anglab borib, dunyoni uzluksiz harakatda, o'zgarish va taraqqiyotda ekanligini tushuna boshlaganlar. Rivojlanishni yangi sifat o'zgarishi, eskini o'rnida yangini paydo bo'lishini Uy'onish davri Sharq va Markaziy Osiyo mutafakkirlari, keyinchalik esa O'rta asr xristian diniy va yangi zamon Evropa falsafasi mutafakkirlarining bir qator, tabiiy - ilmiy va falsafiy qarashlarida o'z aksini topganligini ma'ruza va amaliy mash'ulotlarda muhokama qilgansiz. Rivojlanish o'oyasini tushunishda muhim qadamni frantsuz tabiatshunosi va faylasufi Rene Dekart o'zining «Odam mashina» asarida qo'yadi. Uning fikricha olamni xudo yaratayotib, unga dastlabki turtki bergan va uni harakatga keltirgan. Dialektikani rivojlanish haqidagi har taraflama boy va mazmun jihatdan chuqur ilmiy ta'limot sifatida birinchi marta nemis klassik falsafasining buyuk vakili Hegel (Gegel) ishlab chiqdi. Hegelning buyuk xizmati shundan iboratki u falsafa tarixida birinchi bo'lib, butun tabiiy, tarixiy va ma'naviy dunyoni bir butun jarayon shaklida, ya'ni doimo harakatda bo'lib, o'zgarib, qaytadan tuzilib, taraqqiy qilib turadigan xolda ko'rsatdi va bu harakat bilan taraqqiyotning ichki bo'lanishini ochib berdi.

Hegelning taraqqiyot to'rtisidagi falsafiy bu qarashi dialektika haqidagi falsafiy ta'limotni yanada boyitdi. Hegelning falsafiy ta'limotlarini, uning falsafa tarixida tutgan o'rnini, buyuk xizmatlari va kamchiliklarini amaliy mash'ulotlarda batafsil muhokama qilib chiqishni tavsiya qilamiz.

2. Falsafada metod va metodologiya muammosi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Fan tarixida nom qoldirgan olim va faylasuflarning ilmiy merosini ko'p jihatdan ularning qaysi uslubga tayanganiga qarab baholash ham mumkin. Metod (yunoncha metodos- usul) keng ma'noda bilishga erishish yo'li, ijodiy faoliyatning har qanday shakli usuli kabi ma'nolarni anglatadi. Metod bilish usuli sifatida o'rganilayotgan ob'ektning jihatlari va xossalarini laboratoriyada, ilmiy tadqiqot moslamasida, sinov stendida, shuningdek, tadqiqotchining miyasida aks ettirish usulidir. Metodologiya - bu fanda foydalanadigan bilish vositalari, usullarining majmui, shuningdek, fanning ijodiy bilish va amaliy-o'zgartirish faoliyatini tashkil etish vositalari, shart- sharoitlari va printsiplarini o'rganuvchi ilmiy- falsafiy bilim sohasidir. Metodologiya nazariy bilimlar va amaliy faoliyat tamoyillarini, usullarini o'rgatadi. Metod muammosi doimo falsafiy va ilmiy olamning diqqat markazida bo'lgan. Ayniqsa, hozirgi davrda metodologiyadan turli yo'nalish va oqimlar, jumladan fan, falsafa, fenomenologiya, strukturalizm, postpozitivizm va shu kabilarda keng ko'lamda foydalanilmoqda. Metod u yoki bu shaklda ma'lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig'indisi hamdir. Metodning asosiy vazifasi faoliyatining bilish va boshqa shakllarini boshqaruvdan iborat. Har qanday metod ma'lum

nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi va boshqaruv quroli vazifasini bajaradi. Metod sub'ektdan tashqarida mavjud jarayon emas, balki u bilan chambarchas bo'liqdir. Boshqacha qilib aytganda «inson umum metodologiyaning markazidir» (Feyerbax).

Metodlar xilma-xilligiga qarab, turli mezonlar asosida klassifikatsiya qilinadi.

Metod metodikada konkretlashadi. Metodika daliliy materiallarni yig'ish va saralash vositasi, aniq faoliyat turidir. Ilmiy tadqiqot jarayoni tarixan ishlab chiqilgan metodlar asosida amalga oshiriladi. Hech kim hech qachon haqiqatni yo'qdan bor qila olgan emas.

Albatta, tadqiqotchi, olim izlanishlar, xatolar qo'rshovida harakat qiladi. Shunisi ham bo'ladiki, ba'zan bir narsani izlash jarayonida butunlay boshqa narsa yaratiladi. Metod o'z-o'zidan tadqiqotni muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlay olmaydi, chunki nafaqat yaxshi metod, balki uni qo'llash mahorati ham muhimdir. Ilmiy bilish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Fan metodologiyasi va manti'i yangi bilim olish shartlari va usullarini o'rganadi, fan metodologiyasi bu yangi bilim tuzish printsiplari va bunday bilimni olish usullarining falsafiy analizi, ilmiy bilishning umumiy va maxsus metodlari tizimidir. Turli fan sohalarida, turli konkret vazifalarni hal qilishning zaruriy shartlaridan biri universal xususiyatga ega bo'lgan umumiy falsafiy metodlarga murojaat qilishdir. Bu metodlar haqiqatni anglashda umumiy yo'lni ko'rsatadi. Mazkur metodlarga falsafaning qonun va kategoriyalari, kuzatish va eksperiment, taqqoslash, analiz va sintez, induktsiya, deduktsiya va h.k. talluqli metodlar umumiylik darajasi va amal qilish doirasiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi. 3. Har bir fan dunyoning u yoki bu tomonini o'rganar ekan, uning o'ziga xos tekshirish uslubiy metodi mavjud. Shunga ko'ra har bir fan o'zining ob'ektini o'rganish uchun turli metodlar ishlab chiqadi va uning yordamida o'sha sohani o'rganishga erishadi. Masalan, biologiya, psixologiyani o'rganish metodi bilan til adabiyot, iqtisodni o'rganishda farq bor. Falsafiy metod dunyoni bir butun bilish va o'rganish metodi bo'lganligidan u insonning o'ziga va dunyoga bo'lgan munosabatini bildiruvchi universal metod hisoblanadi. Mana shunday metodni ishlab chiqishda qadimgi yunon faylasuflari Suqrat, Platon, Aristotellarning xizmati katta. O'rta asr Sharq, yangi zamon Evropa faylasuflari fanda induktsiya, deduktsiya, empirik, mexanik, analiz, sintez kabi ilmiy bilishning asosiy shakllarini ishlab chiqqanliklarini falsafa tarixi mavzularini muhokama qilganingizda ko'rib chiqgansiz. Falsafa fanida dialektik metodni ishlab chiqishda Kant va Hegelning xizmati katta. Xegel dialektik metodni universal falsafiy metod sifatida rivojlantiradi, uning asosiy kategoriya va qonunlarini ishlab chiqadi.

Yuqorida dialektik tafakkur metod nimaligi haqida qisqacha izoh berib o'tdik. Endi dialektika va uning muqobillari haqida biroz to'xtalib o'tsak.

Falsafa tarixida turlicha tafakkur uslubiy mavjud bo'lgan. Tafakkurning sofistika, eklektika, metafizika metodlari dialektik tafakkur metodining muqobillari hisoblanadi. Ularning har birining inson tafakkuri jarayonida o'z o'rnini bor. Lekin ularning hammasi ham tarixiy taraqqiyot jarayonida davr talabiga javob bera olmaganligi uchun inkor etildi. Sofistik tafakkur ham shular jumlasidandir.

Sofistika tafakkur metodi sifatida dastlab qadimgi yunon falsafasida paydo bo'lib, keyinchalik o'rta asrlarda keng tarqaldi. Sofistika o'zining ijtimoiy ildizlariga ega. Sofistik tafakkur metodiga, ataylab, xatto asoslar asosida, bilib turib, yol'on xulosalar chiqarish xosdir.

Sofistika atamasini Farobiy «yol'ondaka donolik» deb atagan. Sofistik tafakkur metodi haqiqatni ataylab buzib, yol'on fikrni haqiqat sifatida ko'rsatishga asoslangan. Lekin Sofistik metodni faqat salbiy jihatdan ko'rish to'g'ri emas. Chunki Sofistik metod ilmiy bilimda, haqiqatni aniqlashda salbiy rol uynasa ham, san'atda, har hil komik vaziyatni yaratishda badiiy tasvirda ijobiy rol o'ynaydi. Undan tashqari, tafakkurning qaror topishida sofistlik tafakkurning o'ziga xos o'rnini ham bor.

Bu haqda Falsafa asoslari kitobining 195-196 betlarini o'qing. Eklektik metodi ham qadimgi yunon falsafasida paydo bo'lib, O'rta asr va yangi zamon falsafasida keng qo'llangan. Eklektika (yunoncha- tanlayman) turli qarama-qarshi tomonlarni, nazariyalarni, qarashlarni aralash- quralash qilib yuboruvchi uslubdir. Eklektikada narsa va hodisalarning asosiy va asosiy bo'lmagan xususiyatlari, ular o'rtasidagi bo'lanishlar mexanik ravishda qorishtirilib ifodalanadi. Eklektika olam, narsa va hodisalarning bir butunligini, umumiy asoslarini parchalab tashlash uslubiga tayanadi. Falsafa asoslari kitobining 196-197 betlariga qarang. Dialektikaga qarama- qarshi deb talqin qilinadigan uslublardan yana biri metafizik uslubdir.

«Metafizika» - yunoncha fizikadan keyin degan ma'noni anglatadi. Metafizik usul dastlab tabiatshunoslik zaminida tarkib topa boshladi. Tabiat predmetlarini mukammal o'rganish, ularning mohiyatini chuqurroq ochib berishga intilish- metafizik tafakkur uslubining ijobiy tomonini tashkil etadi. Uning ulkan tarixiy haqiqatligi ham shundadir. Metafizik tafakkur uslubidan faqat tabiatshunoslarga emas, balki XVII- XIX asr faylasuflari ham unumli foydalanganlar.

Metafizika olamdagi narsa va hodisalarni o'rganishda ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o'zgarmasdan, alohida turgan xolatiga diqqatini ko'proq qaratadigan usuldir. Metafizika Dogmatik (ya'ni metafizik) tafakkur uslubining asosiy kamchiligi shundan iboratki, tabiatdagi narsa va hodisalarni o'zaro bo'liqlikda, ularning doimo o'zgarish va rivojlanishida ekanligini ko'ra bilmasligidadir. Dogmatik tafakkur rivojlanishning miqdoriy tomonlarini tan olib, sifat o'zgarishlarini inkor etadi. Metafizik tafakkur, siyosatda juda

xavflidir. U sub'ektivizmga, amaliyotdan uzulishga, ijodiy jarayonlarni to'xtatishga, ijodiy o'oyalar, nazariya va ta'limotlardan voz kechishga, yangiliklarni o'z vaqtida payqamaslikka, istiqbolni oldindan ko'rishga to'sqinlik qiladi. Dialektik tafakkur uslubi metafizikaga qarshi ularoq narsa va hodisalarni doimo o'zaro aloqada, bo'liklikda, harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda deb ta'lim beradi. Hozirgi zamon fanida sinergetika metodi keng qo'llanilmoqda. Sinergetika so'zi yunoncha («Sinergetika») bo'lib, kelishuv, hamkorlik, o'zaro ta'sir kabi ma'nolarni anglatadi. Sinergetika- olamning o'z- o'zini tashkil etishi makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma- ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bo'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. Bu ta'limotni dialektika asosida shakllangan va uni to'ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi deyidiganlar ham bor. Ularga qarshi o'laroq, dialektika endi eskirdi, uni sinergetika bilan almashtirish lozim, deb hisoblovchilar ham yo'q emas. Sinergetikani hozirgi zamon tabiiy fanlarining falsafa sohasiga kiritayotgan eng katta yutu'laridan biri sifatida baholash mumkin. Ammo bu sinergetika dialektikani falsafadan butunlay siqib chiqaradi degani emas. Dialektikaning falsafadagi ahamiyatiga kelganda esa, uning ijtimoiy bilimlar sohasidagi o'rni, qadr qimmatini nihoyatda katta va u falsafaning asosiy metodlaridan biri bo'lib qolaveradi. Seminar mash'ulotlarida Dialektik tafakkur uslubining boshqa tafakkur usulublaridan farqini batafsil ko'rib chiqishni tavsiya qilamiz.

Tayanch tushunchalar

Harakat, rivojlanish, taraqqiyot, o'zaro aloqadorlik, metod, metodologiya, dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, sinergetika

Takrorlash uchun savollar

1. «Metod» va «Metodologiya» deganda nimani tushunasiz?
2. Dialektika metodining mohiyatini so'zlab bering?
3. Sofistika, eklektika, metafizika uslublarini gapirib bering?
4. Sinergetika haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999 y
2. Mantiq. Ma'ruzalar matnlari. T., 2001
3. Saifnazarov I.S. va boshqalar. Ilmiy ijod metodologiyasi T., 2004
4. Saifnazarov I.S. O'zbekiston istiqloli va yangi falsafiy ta'limot T., 2003
5. Tulenov J. Hayot falsafasi. T., 1993
6. Falsafa. Qomusiy lu'at T. «Sharq», 2004.

9- MAVZU: RIVOJLANISH VA O'ZARO ALOQADORLIKNING UMUMIY QONUNIYATLARI. FALSAFIY QONUNLAR

Reja:

1. O'zgarish va taraqqiyot jarayonida takrorlanish tamoyili. Qonun tushunchasi, uning mohiyati va falsafiy talqini.
2. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni
3. Qarama- qarshiliklar biriligi va kurashi qonuni.
4. Inkorni- inkor qonuni.

Aziz talabalar! Falsafa tarixidan sizlarga ma'lumki olamdagi narsa va hodisalarning harakat o'zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turishi, rivojlanishi, ular o'rtasidagi aloqadorlik va o'zaro ta'sir, takrorlanish jarayonlari kabi masalalar olimlar, faylasuflar o'rtasida turli bahs va munozaralarga sabab bo'lgan. Chunki, ular to'rtasida aniq bilimga ega bo'lmasdan turib, olam va uning taraqqiyoti, rivojlanish manbai, harakatlantiruvchi kuchlari to'rtasida, eng muhimi kelajak haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lish qiyin. Sizlar o'tgan ma'ruzalardan bilasizlarki, tevarak atrofimizdagi jamiki narsalar, eng mayda zarrachalardan tortib to oy, er, quyosh, cheksiz koinotgacha barchasi, shu jumladan kishilik jamiyati ham, doimo harakat, rivojlanish va o'zgarishdadir. Ular o'rtasidagi abadiy o'zaro bo'liklik, o'zaro ta'sir va aloqadorlik mavjud. Biz narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi va rivojlanishiga ular o'rtasidagi bo'linish va aloqadorlik, ta'sir va aks ta'sir asos bo'ladi deymiz. Albatta, olamdagi har qanday bo'lanish ham rivojlanishga sabab bo'lavermaydi. Chunki bu bo'lanishlarning ko'lami, mohiyati, ta'sir kuchi va doirasi turlicha. Bo'lanishlarning ana shu tashqi bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo'lmagan va hakazo bo'lanishlarga ajratish mumkin.

Endi qonun tushunchasiga izoh beradigan bo'lsak, qonun ob'ektiv asosga ega bo'lib, olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bo'lanishlar, o'zaro aloqalari va munosabatlarning namoyon bo'lishidir.

Qonunning belgilari quyidagilarda ifodalaniladi:

a)qonun turli- tuman aloqadorliklar, bo'lanishlardan faqat muhimlarini, ya'ni, shunday bo'lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mohiyatidan kelib chiqadi;

b)qonun- zaruriy bo'lanishlarni ifodalaydi;

v)qonun narsa va hodisalarning umumiy bo'lanishlarini ifodalaydi.

Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bo'lanishlarni ifodalaydi, ya'ni, bir safar yuz berib, ikkinchi safar yuz bermaydigan bo'lanishlarni qonun qamrab olmaydi. Masalan, 2006 yili qishdan keyin bahor kelib, 2007 yilda qishdan keyin yoz kelishi aqlga si'maydi. Chunki, bu tabiat qonuni fasllar o'zgarishi qonuni doirasiga kirmaydi. Tabiat qonunlarining yana eng muhim

xususiyati- u ob'ektiv harakterga ega, ya'ni u insonga ham, insoniyatga ham bo'liq emas.

Olamdagi har bir narsa va hodisa bir - birini taqazo qiladigan va shu bilan birga, bir- birini istisno qiladigan qarama- qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo'lishi ham abadiy xol.

2. Sifat. Narsaning umumiyligini, yaxlitligini uning nisbiy barqarorligini, bir- biriga o'xshashligi yoki o'xshamasligini ifodalaydi. U keng ma'noda narsalarning turli- tuman xossalari y'i'indisidir.

Sifatning o'zgarishi, muqarrar suratda, xossaning o'zgarishiga olib keladi. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi.

Narsalarning sifat muayyanligidan tashqari, bir- biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi.

Miqdor predmetning hajmi, o'lchovi, o'irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega. Miqdor va sifatning birligi, o'zaro bo'liqligi me'yor tushunchasida ifodalanadi. Me'yor bu miqdoriy munosabatlar va ob'ektiv sifatga mos tuzulmalarning muvofiqligidir.

Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'zaro chambarchas bo'lgan bo'lishiga qaramay, ular ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Chunonchi:

Birinchidan, miqdor o'zgarishlar doimo yuz berib turadi, sifat o'zgarishlariga o'tish faqat ma'lum bir davrda boshlanadi; Ikkinchidan, miqdor o'zgarishlari ma'lum vaqtgacha predmetga muhim ta'sir ko'rsatmaydi. Sifat o'zgarishlari hodisalarni tubdan o'zgartirib, uni boshqa hodisaga aylantirishni taqazo qiladi; Uchinchidan, miqdor o'zgarishlari asta- sekin o'tadi va ko'p xollarda sezilmasdan o'tadi. Sifat o'zgarishlari esa ancha tez, ayrim xollarda to'satdan sodir bo'ladi; To'rtinchidan, sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga qaraganda tub o'zgarishlar hisoblanadi. Bu qonunning mohiyatini chuqurroq bilish uchun Falsafa asoslari T., 2005 y, 150-153; Falsafa. T., 2005 y., 147-149 betlarni o'qishingizni tavsiya qilamiz. Shuni yodda tutmoq lozimki, dialektika qonunlari o'z mohiyati jihatidan umumiy aloqadorlik, bo'lanish, harakat, o'zgarish to'rtinchi ta'limot sifatida tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga xos eng umumiy aloqadorlik va bo'lanishlarni to'rti ochib berish asosida kishilarga dunyoni o'rganish, o'zlashtirish va o'zgartirish yo'llarini ko'rsatuvchi metodologik qurol bo'lib xizmat qiladi. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni falsafaning asosiy qonunlaridan biridir. Bu qonunda narsa va hodisalardagi sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin to'plana borib, rivojlanishning ma'lum bir bosqichiga kelib me'yornibuzadi, natijada narsa va hodisalarda tub sifatiy o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Narsa va hodisalarda sodir bo'ladigan tub sifatiy o'zgarishlarni falsafada sakrash deb ataladi. Sakrash nima? Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlarni anglatadigan falsafiy tushunchadir. Sifat deb- borliqdagi nisbiy

barqarorlik ba'ishlaydigan ularning ichki muayyanligini ta'minlaydigan, bir narsa va hodisalarni ikkinchi narsa va hodisadan farq qildiradigan barcha muhim belgi va xususiyatlarning birligiga aytiladi.

3. Qarama- qarshiliklar birligi va kurashi falsafiy qonunlar ichida markaziy o'rinni egallaydi. Dialektikada qarama- qarshilik deb, borliqdagi narsa, hodisa va jarayonlarning o'zaro bir- birini istisno qiladigan, shu bilan birga, bir- birini taqazo etuvchi tomonlari, tamoyillari va kuchlarning o'zaro munosabatlari tushuniladi.

Bu qonunga muvofiq borliqdagi har bir narsa bir- biri bilan uzviy aloqada bo'lgan va biri ikkinchisini istisno etuvchi qarama- qarshi tomonlarga, kuchlarga ega. Bu qarama- qarshi tomon va kuchlar o'rtasidagi kurash taraqqiyotning manbaini ifodalab, eskining yo'qolishi va yangining paydo bo'lishiga olib keladi.

Narsa va hodisalarning qarama- qarshi tomonlari o'rtasidagi munosabat ziddiyat deb ataladi, ziddiyatlar ichki va tashqi, asosiy va xususiy, zaruriy va tasodifiy shakllardan iboratdir. Narsa va hodisalarning harakat mohiyatidan kelib chiqadigan ziddiyatlarga ichki ziddiyat deb ataladi. Tashqi ziddiyatlar deb turli narsa va hodisalar o'rtasidagi qarama- qarshiliklarga aytiladi.

Ziddiyatlar xilma- xil shaklda bartaraf etilishi mumkin. Ulardan biri eskining emirilib, yangining qaror topishidir. Jamiyatdagi ziddiyatlarni bartaraf etishning samarali shakllaridan biri- konsensus (o'zaro kelishuv) dir. Konsensus qarama- qarshi kuchlar, tomonlar, ijtimoiy guruhlar, partiyalar, harakatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni umumiy manfaatlardan kelib chiqib hal etish yo'lidir. Bu qonun mohiyatini chuqur o'rganib o'zlashtirish uchun «Falsafa asoslari» T.: 2005, 147-150 betlarni va «Falsafa». 2005 y, 224-228 betlarni o'qib amaliy darsga konspekt qilib kelishingizni tavsiya qilamiz.

4. Borliqning hamma sohasida, doimo eski, umri tugagan narsa va hodisalarning barham topishi va yangi hodisalarning vujudga kelishi jarayoni doimo sodir bo'lib turadi. Bunday eskining yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi. «Inkor» atamasini falsafaga Hegel kiritgan. Uning nuqtai nazaricha, inkor o'yaning, fikrning rivojlanish bosqichidir.

O'zgarish va rivojlanish jarayonida o'z- o'zini inkor etish tamoyili nihoyatda muhim. Bunda vorislik- eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo'ladi. Ana shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi inkorni inkor qonunining mohiyatini bildiradi. Dialektikaning mazkur qonuniga muvofiq ob'ektiv olamdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi ro'y beradi. Biroq, butunlay inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi. Rivojlanish burma (spiral) shaklda, ma'lum nisbiy takrorlanishlar asosida, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga qarab boradi.

Inkorni dialektik tushunish yangining eski bilan oddiy almashinuvibolmasdan, balki eskining ba'rida vujudga kelib, undan foydalanib, qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorni muhim ikki jihati mavjud. Birinchisi, eskining o'rniga yangining kelishi tabiiy- tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangining eski bilan vorisiy bo'liq ekanligini ham ifodalaydi. Eskining o'rniga yangining kelishi, uning kundan- kunga mustahkamlanishi, rivojlanishi, taraqqiyotning boshlanishi xususiyatini belgilaydi. Yangi eskining o'rnini egallab borishda eskidan ijobiy, muhim tomonlarni o'zida mujassamlashtirib, yuqoriroq sifat xususiyatlariga aylanadi. Eskining o'rniga kelgan yangi, davrlarni, zamonlarni o'tishi bilan o'zi eskiga aylanib qoladi. Bu jarayon inkorni - inkor qonuni asosida davom etaveradi.

Tayan tushunchalar

Qonun tushunchasi, Tabiat qonunlari, jamiyat qonunlari, miqdor, sifat, me'yor, sakrash, ziddiyat, tafovut, qarama- qarshilik, kurash, inkor, inkorni- inkor, yangilik, eskilik.

Takrorlash uchun savollar

1. Qonun nima? Tabiat, jamiyat va falsafiy qonunlar deganda nimalarni gapirgan bo'lar edingiz?
2. Miqdor va sifat nima? Me'yor va sakrash-chi?
3. Qarama- qarshilik birligi va kurashini gapirib bering?
4. O'zgarish va rivojlanishda o'z- o'zini inkor etish tamoyilini gapirib bering?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston: Iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish yo'lidan. T.: «O'zbekiston», 1995
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T.: «O'zbekiston», 1992
3. Saifnazarov I.S. O'zbekiston istiqloli va yangi falsafiy ta'limot. T., 2004
4. Tulenov J. Hayot falsafasi T.: 1993
5. Filosofiya i metodologiya nauki M.: 1996
6. Falsafa asoslari T., 2005, 145-155 betlar
7. Filosofiya. Osnovno'e idei i printsipi. M., 1990
8. Filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar. M.: 1999

10 - MAVZU: MAVJUDLIK, O'ZGARISH, BO'LIKLIKNING ASOSIY SHAKLLARI. FALSAFIY KATEGORIYALAR.

Reja:

1. Mavjudlik, o'zgarish va o'zaro aloqadorlikning namoyon bo'lishining asosiy tamoyillari.
2. Falsafiy kategoriyalar tizimi, ularning mazmuni.
3. Falsafiy kategoriyalar o'rtasida bo'lanishlar va ularning hozirgi davrda namoyon bo'lishi.

O'quv - uslubiy maslahatlar

1. Sizga ma'lumki, dialektika, o'z mohiyati jihatidan umumiy aloqadorlik, bo'lanish, harakat, o'zgarish to'rtinchi ta'limot sifatida tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga xos, eng umumiy aloqadorlik va bo'lanishlarni to'rtinchi ochib berish asosida, kishilarga dunyoni bilish va o'zgartirish yo'llarini ko'rsatuvchi uslubiy

qurol bo'lib xizmat qiladi. Dialektika, avvalo, umumiy aloqadorlik va o'zaro bo'lanishlar haqidagi ta'limotdir.

Borliqning xilma-xilligi, materiyaning ko'rinishlari, uning asosiy mavjudlik usullari, harakatning turli shakllari bir-birlari bilan o'zaro umumiy aloqadorlikda bo'lib, bir-birlariga ta'sir va aks ta'sirda, lekin o'zaro bo'lanishda bir-birlarini taqazo qilib turadi. Dialektikaning o'zaro aloqadorlik tamoyili umumiy xarakterga egadir. Uning bu yalpi umumiyligi shundaki, birinchidan, bu aloqadorlik bir butun borliqqa, ya'ni tabiat, jamiyat, inson tafakkuri va bilishiga xosdir. Ikkinchidan, bu aloqadorlik borliqning hamma ko'rinishlariga oid barcha narsa va hodisalarni, ularga xos hamma narsa va holatlarini, bir butun inson bilish jarayonini, xullas bir butun moddiy va ma'naviy olamning hamma bo'lanishlarini o'z ichiga oladi. Shuni yodda tutish kerakki, borliq cheksiz aloqadorliklar va bo'lanishlar majmuidir.

Kategoriya so'zi yunoncha bo'lib, lu'aviy ma'nosi «guvoh», «ta'rif», «ifodalovchi» demakdir. Falsafiy kategoriyalar ob'ektiv olamdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim tomonlarini, hususiyatlari va munosabatlarini aks ettiruvchi tushunchadir.

Falsafa tarixida kategoriyalar masalasi Arastu tomonidan «Metafizika» asarida batafsil ishlab chiqilgan. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining, jumladan Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulu'bek asarlarida ham mazkur kategoriyalar ko'p ishlatilib kelingan. Har bir fan o'zining kategoriya, ya'ni tushunchalar tizimiga ega bo'lib, u orqali materiya harakati shakllarining u yoki bu qonuniyatlarini o'rganadi.

Dialektika kategoriyalari, boshqa fanlar kategoriyalaridan bir qator muhim hususiyatlari bilan farq qiladi. Bular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, dialektika kategoriyalari- ob'ektiv olamning eng umumiy qonunlar taraqqiyotining in'ikosidir. Ikkinchidan, dialektika kategoriyalari eng umumiy tushunchalar sifatida inson fikri shakllari bo'lib, shu taxlitda ular mantiqiy mazmunga ham egadirlar.

Uchunchidan, dialektik kategoriyalar ilmiy bilishda muhim metodologik vazifani bajardi, ob'ektiv dunyoni yangidan yangi sirlarini ochishga yordam berdi.

To'rtinchidan, dialektik kategoriyalarning shakllanishi va rivojlanishi asosida moddiy, hissiy faoliyatning yi'indisi bo'lgan amaliyot yotadi

2. Falsafada o'z xususiyatlariga ko'ra «juft kategoriyalar» deb ataladigan; umumiy bo'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalovchi tushunchalar ham bor. Ular narsa va hodisalarning muayyan yo'nalishidagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorlanib turuvchi bo'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi. Falsafa kategoriyalari mazmunidagi ichki birlik, bo'lanish, aloqadorlik va munosabatlarning yaxlitligi bilish jarayonining uzliksizligini ta'minlaydigan umumiy qonuniyat tarzida vujudga kelgan. Endi

falsafada o'z xususiyatlariga ko'ra «Juft kategoriyalar» deb ataladigan, umumiy bo'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalovchi tushunchalarga juda qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Alohidalik, xususiylik va umumiylik Bu falsafiy kategoriyalar borliqdagi narsa va hodisalarning har biriga xos alohida ma'lum guruhga xos maxsus va hammasiga xos umumiy tomonlari, hususiyatlari hamda ular o'rtasidagi bo'lanish va aloqadorlikni ifodalaydi. Alohida narsa va hodisagagina xos bo'lib, bu narsa va hodisani boshqa narsa va hodisadan farq qiluvchiga alohidalik deyiladi. Ko'pchilik narsa va hodisalarga xos bo'lgan o'zaro o'xshash, bir xil, takrorlanuvchi belgi va xususiyatlar birligini aks ettiruvchi tushuncha umumiylik deb ataladi. Narsa va hodisalarga xos maxsus tomonlar xususiyatlari birligi xususiylik kategoriyasida ifodalanadi.

2. Sistema, struktura va element Sistema- bu borliqdagi o'zaro bo'liq, muayyan tartibdagi bir- biriga ta'sir va aks ta'sir qilib turuvchi narsalar, hodisalar va jarayonlarning qonuniyatli birligidir. Struktura esa shu sistemani tashkil etgan narsalar, hodisalar va jarayonlarning tartibi, tuzilishi, tarkibi, joylanishi va ifodalanishidir.

Element sistemani tashkil qilgan strukturaning o'zaro bo'lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta'minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir.

3. Mohiyat va hodisa Mohiyat narsa va hodisalarning ichki, eng muhim o'zaro bo'lanishlari shu bo'lanishlarning qonuniy aloqadorliklarini ifodalaydi. Hodisa esa shu narsa va jarayonlarni tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va bo'lanishlarning namoyon bo'lish shakli, mohiyatining ifodalanishidir. Bilishning vazifasi borliqning

ko'pdan- ko'p hodisalari, ularning tashqi tomonlari va belgilari ostida yashirilib yotgan mohiyatlarini izlab topishdan iborat.

4. Mazman va shakl Mazmun - narsa yoki hodisani aynan shu narsa yoki hodisa sifatida ifodalovchi jarayonlar, muhim elementlar va o'zgarishlarning Shakl- Mazmunning mavjudligi usulini, uning tuzilishini ifodalovchi, narsa va hodisalarning ichki va tashqi tomonlarining birligidan iborat.

5 Sabab va oqibat Sabab- biror narsa va hodisani rivojlanish jarayonining oqibatidir, boshqacha aytganda bir hodisadan oldin kelib uni vujudga keltirgan hodisa yoki hodisalar guruhi sabab deb ataladi. Sababni bevosita yoki bivosita ta'siri bilan yuz beradigan hodisa oqibat deyiladi.

6. Zaruriyat va tasodif Narsa va hodisalarning mohiyatidagi, ularning ichki, muhim bo'lanishlaridan muayyan sharoitda qat'iy ravishda kelib chiqadigan, kelib chiqishi muqarrar voqea yoki hodisa zaruriyat deyiladi. Narsa va hodisalarning mohiyati bilan bo'liq bo'lmagan, yuz berish ham bermasligi ham mumkin bo'lgan hodisa yoki voqea tasodif deb ataladi.

1. Imkoniyat va voqelik Voqelik bu hozir real mavjud bo'lgan, yashab turgan narsa va hodisalardir. Lekin bu hodisalar rivojlanish jarayonida birdaniga hozirgi holatda bo'lmay, balki dastlab imkoniyat holatida bo'lgan bo'lib, ular o'zlarini ma'lum kelib chiqish davriga, vaqtiga, tarixiga ega. Voqelik o'zining paydo bo'lish davridan oldin imkoniyat shaklida mavjud bo'ladi. Imkoniyat- bu voqelikni kurtak holatdagi ko'rinishidir, u yuzaga chiqmagan voqelikdir. Imkoniyat voqelikga birdan aylanmaydi. U eski voqelik ichida, avvalo kurtak shaklida mavjud bo'lib, so'ng rivojlanib borib tobora reallasha boradi va ma'lum davrda, ma'lum shart- sharoit tufayli voqelikka aylanadi.

Aziz talabalar! Falsafiy kategoriyalar haqida to'la ma'lumot olishni istasangiz «Falsafa asoslari» kitobining 155-184 betlarini o'qib, konspekt qilishlaringizni tavsiya qilamiz.

Tayanch tushunchalar

Kategoriya, sistema, struktura, element, mohiyat va hodisa, mazmun va shakl, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik.

Takrorlash uchun savollar

1. «Kategoriya» tushunchasini mohiyati va mazmunini qanday izohlaysiz?
2. Mavjudlik, o'zgarish va o'zaro aloqadorlik namoyon bo'lishining asosiy tamoyillarini gapirib bering?
3. Hozirgi davrda taraqqiyot va o'zaro bo'liqlik tamoyillari qanday namoyon bo'lmoqda?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Biz qurish, yaratish yo'lidan boraveramiz. T., «O'zbekiston», 1995
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1998.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: 1998
4. Filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar M., 2001
5. Falsafa ma'ruzalar matni. T., 2000
6. Falsafa asoslari. T., 2005
7. Falsafa T.: 2005
8. Filosofiya i metodologiya nauki M. 1994
9. Falsafa. Qomusiy lu'at. T., «Sharq», 2004

11- MAVZU: ONG VA RUHIYA.T. FALSAFIY TALQIN

Reja:

1. Ong va ruhiyat nima? Ular koinot evolyutsiyasi natijasimi yoki ilohiy mo'jizami?
2. Ong va ruhiyatning shakllanishi va rivojlanishi hiqida tabiiy- ilmiy tasavvurlar va qarashlar.
3. Inson ongining tabiiy ijtimoiy jihatlar.
4. Ong va in'ikos. In'ikosning mohiyati, asosiy shakllari

O'quv- uslubiy masahatlar

1. Ma'lumki, ong va ruhiyat muammosi faylasuflarning diqqat e'tiborini doimo o'ziga jalb qilib kelgan. Ong va ruhiyat masalasi eng qadimiy muammolardan bo'lib uni anglash jarayonida turli xil qarashlar bo'lganligi tabiiy. Bu savolga eng qadimiy javob mifologiya va diniy qarashlarda berilgan.

Ongni diniy tushinish uni ilohiy mo'ljiza, xudo yaratgan hodisa tarzida talqin qilishdir. Kimda- kim olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati ekanligini tan olishi tabiiy holdir.

Ko'pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning mittigina aks etishi, uning namoyon bo'lishi shakli tarzida tavsiflanadi. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimizning tashuvchisidir. Jon o'lishi bilan ong ham o'ladi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy o'lsada, ular hamon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Zero, u olam a odamning yaratilganligi ma'nosi bilan bevosita bo'liqdir.

Kimda- kim olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning udrati ekanligini tan olishi tabiiy. Ong moddiylikning miyada aks etishi deb tushunishda uning mohiyati inson tanasi faoliyati bilan bo'lab talqin etiladi. Uzoq vaqt davomida inson, uning ongi planetar, ya'ni er shari doriasidagi hodisa sifatida qarab kelindi. Hozirgi zamon fani masalaga kengroq doirada yondoshish zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki, fan dalillari inson paydo bo'lishini faqat erda kechgan jarayonlar bilan cheklab qo'yish to'ri emasligini, u koinot evolyutsiyasining tabiiy hosilasi ekanligini tobora chuqurroq isbotlamoqda. Bu haqda chuqurroq bilimga ega bo'lishni istasangiz «Falsafa asoslari» kitobining T.: 2005 yil, 202-211 betlarini o'qib chiqing. Ilmiy falsafada inson ongi yuksak darajada tashkil topgan materiya- inson miyasining faoliyati, voqelik inson miyasidagi in'ikosning oliy, ruhiy shakli, ijtimoiy taraqqiyot mahsuli deb qaraladi. Ong muammosini bunday tushunish, borliqning evolyutsiyasi natijasida unga xos in'ikos shakllarning rivojlanib, oddiy turlardan murakkab turlarga o'tib borishi asosida shakllangan degan ilmiy ta'limotlardan kelib chiqqan. Bu ta'limotlar ongning shakllanishida muhim rol o'ynagan mehnat, nutqning o'rnini to'ri e'tirof etish bilan ham bo'liqdir. Amaliy mash'ulot paytida o'qituvchingiz yordamida bularni o'zlashtirib olasiz degan umdamiz.

2. Ongning mohiyatini to'ri ochib berish uchun unga ilmiy ya'ni, ontologik, gnoseologik va ijtimoiy jihatdan yondoshmoq lozim. Ongga ontologik jihatdan yondoshishi, ong- bu tabiat tadrijiy taraqqiyotining mahsuli materiya evolyutsiyasi jarayonida vujudga kelgan ruhiy hodisalarning xossasi demakdir. Hozirgi zamon tabiatshunoslik fanlari, Er yuzida hayot milliard yillar davom etgan evolyutsion taraqqiyot natijasida, jonsiz dunyodan murakkab birikmalarni, oqsil moddalarini kelib chiqishi, ulardan hujayrani paydo bo'lishi, hujayralardan yirik ko'p xujayrali organizmlarning kelib chiqishi, sut emizuvchilar va odamning kelib chiqqanligi haqidagi ilmiy dalilarga asoslanadi. Fan, odam bilan hayvonot dunyosi o'rtasida biologik (fiziologik, gistologik, anatomik, psixologik) ma'noda o'tib bo'lmaydigan o'yalar va to'lar chegarasi yo'qligini isbotlaydi. Eng yuksak darajada tuzilgan biologik va ijtimoiy

mavjudod odam jonli mavjudod evolyutsiyasining oliy mahsuli ong, ruhiyat inson miyasining faoliyati hisoblanadi.

Odamning kelib chiqishi va rivojlanishida mehnat hal qiluvchi omil hisoblanadi. Faqat mehnat tufayli inson ulu'dir. Inson o'zining ma'lum maqsadga qaratilgan ongli mehnati va nutqi natijasida tabiatdan ajralib chiqdi. Odamzod o'zining mehnati natijasida hayvonot olamidan ajralib ijtimoiy hayotga erishdi. Insonning kelib chiqishi haqida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qarashlari alohida e'tiborga sazovordir. Masalan, Ibn Sinoning fikricha, avval to'- toshlar, so'ng o'simlik va hayvonlar va rivojlanishning yakuni sifatida inson vujudga kelgan.

«Insonning eng asosiy vazifasi va o'rni - deb yozgan edi Beruniy, mehnat bilan belgilanadi». Mehnat inson ongini shakllantirgan va kamolga etkazgan asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Mehnat, tafakkur organi bo'lgan inson miyasining rivojlanishiga ham hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Seminar mash'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda va seminar paytidagi muzakarlardan bu haqda batafsil tasavvurga ega bo'lasiz.

3. Ongning tabiiy- ijtimoiy mohiyati, deganda nimani tushunasiz? Ongni hosil qiluvchi asosiy omillar nimalardan iborat? Bu savollarga javobni amaliy mash'ulotda batafsil ko'rib chishingiz lozim bo'ladi. Insonda ong uning dunyoga kelib, o'z tevarak atrofidagi predmet va hodisalarni anglay boshlagandan boshlab paydo bo'la boshladi. Bunda ongni paydo qiluvchi asosiy omil insonni qo'rsab va unga uzluksiz ta'sir qilib turuvchi ijtimoiy muhit, ya'ni, uning bilan doimo munosabatda bo'ladigan kishilar va ularning munosabatlaridir. Bu munosabatlar ta'sirida insonda ma'naviy- ahloqiy jihatlar rivojlanib boradi. Ongning vujudga kelishi uchun, albatta ijtimoiy muhit, ya'ni ijtimoiy hayot, ijtimoiy omillar bo'lishi zarur. Insonning ongi, uning barcha ruhiy va ahloqiy qobiliyatlari, uning jamiyatdagi hayoti, faoliyati, davomida tarkib topadi va ma'lum ijtimoiy shart- sharoitlar bilan taqazo qilinadi. Odam bolasi faqat jamiyatdagina ijtimoiy muhit ta'sirida ijtimoiy ongli zot- insonga aylanadi, shaxs darajasiga ko'tariladi. Ijtimoiy taraqqiyot bilan birga rivojlanib borgan ong insonda tafakkur qonunlari, axloq normalari, diniy, ilmiy, etik va estetik qarashlarning shakllanishiga asos bo'ladi. Inson ongining muhim jihatini uning ijodiy faolligi tashkil qiladi. Bu haqda quyidagi adabiyotlarni o'qib o'rganishigizni tavsiya qilamiz. Falsafa (Ma'ruzalar matni) T.: 2000 yil, 194-203 betlar; Falsafa (o'quv qo'llanma) T.: 1999 yil, 317- 386 betlar. Falsafa asoslari. T: 2005 yil, 202 - 227 betlar.

4. Ong borliqning inson miyasidagi oliy in'ikos shaklidir. In'ikos deganda nima tushuniladi? In'ikos borliqdagi narsa va hodisalarning o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladigan aks etish jarayonidir. Borliqning turli xil ko'rinishlarida turli xil in'ikos shakllarini kuzatish mumkin. In'ikosning eng sodda «Elementar»

shakllarini noorganik tabiatda uchratish mumkin. Masalan, qorda, tuproqda, toza polda oyoq kiyimi bilan yurganimizda u erlarda iz qoladi.

Bu mexanik in'ikosdir. Temir yo'l relslari, stolbalarga tortilgan simlar yozda issiqdan kengayadi. Bu- fizik in'ikosdir. Biror bir temir buyum zax erda qolsa u zanglib oksidlanadi. Bu ximik in'ikosdir. Noorganik tabiatdagi shunga o'xshash in'ikoslarni «passiv» in'ikoslar yoki aks etish deb qabul qiligan. Organik tabiatning paydo bo'lishi bilan in'ikos shakllari butunlay o'zgaradi. Tirik tabiatning evolyutsion taraqqiyoti natijasida in'ikos his qilish, ta'sirlanish, seskanish kabi ko'rinishlarda shakllanadi. Murakkab organizmlarning paydo bo'lishi bilan ularga xos in'ikos shakllari ham o'zgarib yangi- yangi turlari paydo bo'lib boradi. Taraqqiyot natijasida nerv sistemalarining paydo bo'lishi bilan biologik in'ikos, shu paytgacha bo'lmagan, butunlay o'zgacha ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlar kasb etadi. Tirik tabiat evolyutsiyasi natijasida yuksak tashkil topgan hayvonlarning paydo bo'lishi bilan yuqori darajada shakllangan miya qaror topadi. Sezish qobiliyati rivojlanib borib, shartsiz va shartli reflekslarni vujudga keltirdi. Shuni yodda tutish kerakki, odam ruhiy in'ikos shakllari hayvon in'ikos shakllaridan tubdan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilardan iborat.

A) Inson ijtimoiy munosabatda bo'ladi, mehnat quroli yaratadi, ijod qiladi, moddiy, ma'naviy boyliklar yaratadi.

B) Odam, hayvonlar ega bo'lmagan nutq va tilga ya'ni, ikkinchi signal sistemasiga ega.

V) Odamning ruhiy in'ikosi shakllari paydo bo'lishida nutq va til hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Demak, odamga hos in'ikosning ruhiy in'ikos ekanligi, bu uning ma'naviy olamning tashkil qilishi odamning hayvonlar psixik in'ikosidan farq qildiruvchi asosiy jihati.

Tayanch tushunchalar

Ong, ong tarixi, in'ikos, ong va miya, ong va ruhiyat, ong va til, ong va ahborot, psixika va ong.

Takrorlash uchun savollar

1. Ong va ruhiyat koinot evolyutsiyasining tabiiy natijasi deganda nimani tushunasiz?
2. Ong nima? Uning ijtimoiy- tarixiy xarakteri nimada?
3. Ong va tilni birligi deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lidan. T.: «O'zbekiston», 1995
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: «O'zbekiston», 2000
3. Farobiy. Fozil odamlar shahri T.: 1993
4. Falsafa. T.: 2005
5. Falsafa asoslari. T.: 2005
6. Falsafa. Qomusiy lu'at. T.: «Sharq», 2004
7. Filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar. M.: 1998.

12 - MAVZU: BILISH FALSAFASI

REJA:

1. Bilish - ob'ektiv olamning inson ongidagi in'ikosi.
2. Inson bilishining asosiy bosqichlari.
3. Bilish va haqiqat. Falsafada haqiqat muammosi
4. Fan- inson bilishining maxsus shakli. Ilmiy bilishning usullari va shakllari.

1. Ilmiy- texnika taraqqiyoti davrida fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuch sifatidagi roli tobora ko'proq namoyon bo'layotgan hozirgi davrda dunyoni bilish- murakkab dialektik jarayon bo'lib, inson ongining bilmaslikdan bilishlikka, to'la va aniq bilishga tomon harakat qilishi tabiiy ehtiyojga aylanib bormoqda. Binobarin, insonlar o'zlarining kundalik hayotlarida ob'ektiv borliq- tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning «sirlarini» fan yutuqlaridan foydalangan holda ochmoqdalar va ulardan o'zlarining hayoti va turmushlarida foydalanmoqdalar.

Bilimga qaratilgan inson faoliyati samarali usullarini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan shu'ullanuvchi maxsus sohasi- gnoseologiya vujudga keldi. Gnoseologiya grekcha so'z bo'lib «dhjsis»- bilish, «logos»- nazariya, ya'ni bilish nazariyasi, bilish to'rtida ta'limot ma'nolarini anglatadi. Gnoseologiya umumiy bilish haqidagi ta'limot bo'lsa, episistemologiya asosan ilmiy bilish to'rtidagi fan hisoblanadi. U asosan ilmiy bilish taxlili bilan shu'ullanadi.

Gnoseologiya va ontologiya bir biri bilan uzviy bo'liq. Ontologiya borliq to'rtidagi umumiy ta'limot bo'lib, borliqning fundamental asoslarini, umumiy mohiyatini va mavjudlik kategoriyalarini o'rganuvchi falsafani bilish sifatida gnoseologiya masalalari uchun asos, manba bo'lib hisoblanadi.

Falsafiy bilishning o'z qonunlari va talablari mavjud. Insonga xos bo'lgan hususiyat bu o'z bilimini, tajribalarini chuqurlashtirish, ko'proq bilishga harakat qilishdir. Falsafiy bilim dunyoni kengroq, chuqurroq bilishdan iborat. Dunyoni bilishga umidsizlik (pessimizm) bilan qaraydigan oqim falsafada agnostitsizm deb ataladi.

2. Bilish- jarayoni umumiy tarzda quyidagilarni amalga oshiradi: bilish- amaliyot; hissiy- bilish; aqliy bilish. Bilish jarayonining ikki bosqichi bor: Hissiy bilishni - quyidagi shaklda tasavvur etish mumkin:

Hissiy bilish: 1. Sezgi; 2. Hissiy idrok; 3. Tasavvur, xotira.

1) Sezgi bilishning eng sodda, birinchi va boshlan'ich nuqtasidir. U jonli mushohada va har qanday bilishning har qanday manbai hamda uni muayyan fakt, material bilan tanlov maquldir. Sezish beshta sezgi organlari yordamida vujudga keladi. (ko'rish, eshitish, hidlash, tam bilish va teri sezgi organlari. Sezish ob'ektiv olamning sub'ektiv obrazidir, moddiy olam haqidagi barcha bilimlarning manbaidir.

2) Hissiy irok- olamni bilishning sezishga nisbatan yuqoriroq, murakkabroq shaklidir. U ob'ektiv olamni, buyum va hodisalarni yaxlit holda, hamma belgilari, xususiyatlari bilan birga in'ikos ettiradi.

3) Tasavvur muayyan narsa va hodisalarning bevosita ta'siridan holiligidir. Buning boisi shundaki, voqelik bilan bevosita emas balki sezgi va hissiy idrok orqali bo'lgan. Tasavvur o'tmishidagi hissiy qabul natijasidir. Tasavvurda narsa va hodisalar bilan o'tmishda hissiy qabullangan buyum va hodisalarni tiklash va ularning muhim xususiyatlarini ajratiladi. Tasavvur tafakkurga yaqin hisoblanadi.

Aqliy bilish- o'z navbatida quyidagi shaklda bo'ladi: tushuncha, hukm, xulosa, gipoteza, nazariya.

Tushuncha- buyum hodisalardagi umumiy, muhim, zaruriy xususiyat va belgilarning in'ikosidir. Tushuncha aqliy bilishning muhim shakli bo'lib, u real narsalar bo'lib, jarayonlarning eng umumiy, muhim xossalari, belgi va sifatlarini aks ettiradi. Tushunchasiz hech qanday fikrlash faoliyati amalga oshmaydi.

Hukm- narsa va hodisalarning belgilari to'rtisidagi biror narsani tasdiqlab, maqullab yoki inkor etib aytilgan fikrdir. Masalan: paxta- texnik ekindir. Ahmad a'lochi student. Xulosa - narsalar, hodisalar to'rtisida ikki yoki undan ko'proq bo'lgan hukmlardan keltirib chiqarilgan muxokama, xulosa deyiladi.

Xulosalar ilmiy bilishning qudratli vositasi bo'lib, ma'naviy hayotda juda ham muhim xizmatni bajaradi. Fanning poydevori ilmiy xulosalar asosida quriladi.

Gipoteza ilmiy asoslangan ma'lumotlarga zid bo'lmagan, birorta hodisaning sababi to'rtisidagi ma'lum taxminga aytiladi. Gipotezalar predmetning tadqiqotini ma'lum maqsadga qaratadi, tabiat va jamiyat qonunlarini ochishga yordam beradi. Tadqiqotchi yangi faktlarni tajriba qilar ya'ni, kuzatib borar ekan, gipotezaga amal qiladi.

Nazariya - tajribaning ilmiy xulosasidir, voqelikning kishi ongidagi in'ikosidir. Nazariya tajriba asosida vujudga keladi. U dunyoni rivojlantirish, o'zgartirish, taraqqiyot yo'lini ko'rsatib beradi.

3. Bilishda haqiqatni inson borli'ining mohiyati bilan baholashda, uning mantiqiy, metodologik, sotsial- madaniy tomonlari bilan, inson borli'ini bir butun gnoselogik nazariya sifatida qarash va o'rganish bilishning ob'ektiv va sub'ektiv bilish mezonini to'rtisidagi muammoni to'laroq bilishga imkon beradi. Demak, haqiqat borliqning aks etishigina emas, balki sub'ektning bilishi, amaliyoti, madaniyatning qo'shilishi natijasidir. Bilish falsafiy fikrning erishgan yutu'i bo'lib, haqiqatni yaxlit shaklda ifoda etadi. Haqiqat voqealikka mos kelishning ikki shaklining hissiy va aqliy bosqichlarini sistemalashtirish muammolarni rasmiylashtirish uchun ham xizmat qiladi. Shuning uchun ham «Haqiqatning mohiyati erkinlikdadir», bu esa inson bilishining imkoniyatlari doim haqiqatni izlashga, uni topishga harakat qiladi.

4. Fan olam haqidagi nazariy jihatdan ma'lum bir tizimga ega bo'lgan bilimlar yig'indisidir. Fanda shu jumladan falsafa fanida ilmiy bilishning usullari va shakllari mavjud: kuzatish, o'lchash, taqqoslash, ilmiy tajriba, Abstraktsiya (mavhum tasavvur), analiz, sintez, induktsiya, deduktsiya, Analogiya (moslik, ayniqlik, o'xshashlik), modellash, aniqlik usuli, tasavvur, aksimatik usul, gipotetik- deduktiv usul, nazariya, tarixiylik, mantiqiylik, empirik va nazariy darajalar va hokozalar mavjud. Ijtimoiy bilimlarda sistemalilik va kompleks yondoshish tomonlari mavjud bo'lib, jamiyat taraqqiyotini oldindan ko'ra bilishda katta ahamiyat kasb etadi. Natijada fan jamiyatda ma'naviy, madaniy, ahloqiy, ijtimoiy, nazariy, iqtisodiy, siyosiy bilishda insonning markaziy o'rnini uning yaratuvchilik qobiliyatini belgilab beradi.

Tayanch tushunchalar

Gnoseologiya, episistemologiya, ontologiya, gnostiklar, agnostiklar, agnostitsizm, sezgi, hissiy idrok, tasavvur, tushuncha, hukm, hulosa, gipoteza.

Takrorlash uchun savollar

1. «Gnoseologiya» va «Episistemologiya» tushunchalarini gapirib bering?
2. Gnoseologiya va ontologiyaning bo'liqligi.
3. Hissiy bilish va uning shakllarini gapiring?
4. Aqliy bilish shakllariga nimalar kiradi?
5. Tafakkurning ijtimoiyligi nimada?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T., «O'zbekiston», 1999.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari T.: «O'zbekiston», 1998.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T: «O'zbekiston», 1999
4. Mir filosofii M., 2001.
5. Falsafa asoslari T.: 2005, 227-243 betlar
6. Falsafa T.: 2005
7. Tulenov J.T. Hayot falsafasi. T. 1997.
8. Falsafa. Qomusiy lu'at T.: «Sharq», 2004.

13- MAVZU: JAHON SIVILIZATSIYASI VA O'ZBEKISTON ISTIQBOLINING FALSAFIY MASALALARI

Reja:

1. Jahon sivilizatsiyasining hozirgi davrdagi xususiyatlari va rivojlangan mamlakatlar taraqqiyoti.
2. O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish yo'lining falsafiy- metodologik muammolari.
3. XXI asrda O'zbekistonning istiqboli va sivilizatsiyalashgan taraqqiyotning muhim xususiyatlari.
4. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat rivojining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati.

1. Hurmatli talabalar! Siz jahon sivilizatsiyasi deganda umuminsoniyat taraqqiyotini, jamiyatning umumiy taraqqiyotini tushunasiz. Jahon ham jamiyati o'zida umumiylilikni, har bir mustaqil mamlakat esa ayrimlik va o'ziga xoslikni ifodalaydi. Bu holda Osiyo yoki Markaziy Osiyo mamlakatlari xususiylilikni aks ettirsa, O'zbekiston alohidalikni ifodalaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishganiga ko'p bo'lmaganiga qaramay, jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega. Uning Markaziy Osiyodagi mavqei esa bu mintaqaning asosiy taraqqiyot yo'nalishlarini ko'p jihatdan belgilaydi.

Mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan halqlarning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligini e'tirof etish, xalqaro huquq me'yorlariga amal qilish, inson huquqlarini himoya etish, demokratiya tamoyillariga amal qilishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish natijasida nafaqat iqtisodiy sohada balki xalqlar ma'naviyati, siyosati va dunyoqarashida ham muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi. Bunday jarayonga tushgan xalqlar o'rtasida bir- biriga ishonch, o'zaro hurmat, hamkorlik hamda sodir bo'ladigan ziddiyat va ixtiloflarni o'zaro kelishuv, konsensus asosida hal qilishga intilish vujudga keladi. Bir - birining madaniy yutuqlari, qadriyatlaridan, tajribalaridan bahramand bo'lish xohish – istagi shakllanadi. Xalqlarning bir- biri bilan jipslashish tendentsiyasi yaxlit, bir butun sivilizatsiyani, insoniyatni e'zozlash kabi sayyoraviy ongni shakllantiradi.

Jahon hamjamiyati tarkibidagi taraqqiy etgan AQSh, Yaponiya kabi mamlakatlar ko'p jihatdan jahon tizimi rivojiga ta'sir ko'rsatadi, muayyan jarayonlarning yo'nalishlarini belgilaydi. Lekin, har bir mamlakat, jumladan, O'zbekiston jahon sivilizatsiyadagi teng huquqli a'zo va bu tizimning muhim elementidir. Milliylik va umuminsoniylikning uy'unligi jahon tsivilizatsiyasida yaqqol namoyon bo'ladi va dunyo hamjamiyatining harakat dasturiga aylanadi. Ushbu savol bo'yicha atroflicha ma'lumot olishlari uchun talabalarga quyidagi adabiyotlarni o'qishlarini tavsiya etamiz: I. Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sa'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. T.,1997; O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., 2000; Gepolitika i mirovoe razvitie M., 1995; Falsafa asoslari. T., 2005; 348- 356 betlar 2. Mustaqil O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilishining falsafiy - metodologik

muammolarini o'rganish nihoyatda muhim. O'zbekiston o'zining ko'p asrlik milliy davlatchiligi, madaniyati, ilm- fani, sa'nati, o'ziga xos va betakror hayot falsafasi bilan jahon tsivilizatsiyasi rivojiga muhim hissa qo'shdi. O'zbek halqi jahonga fan, sa'nat, falsafa, tibbiyot, siyosat, huquq, tarix sohalarida o'lmas asarlar yaratgan, buyuk allomlarni bergan. Biroq mustamlakachilik yillarida ro'y bergan quyidagi jarayonlar halqimizning jahon tsivilizatsiyasiga qo'shilishi uchun imkon bermagan. o'z milliy davlatchiligiga ega bo'lmaganligi; milliy madaniyatning tabiiy rivojlanish imkoniyatining cheklanganligi; mustabid tuzum mafkurasining tazyiqi ostida dunyodan uzib qo'yilganligi; tarixi, ona tili, ma'naviy merosdan begonalanishishalomatlari paydo bo'lganligi; Milliy qadriyatlari, an'ana va urf- odatlarining yo'qolib borganligi, ularni asrab - avaylash imkoniyatining kamligi va boshqalar.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini erkin tanlash, milliy davlatchilik asoslarini yaratish va jahon tsivilizatsiyasiga qo'shilish imkoniga ega bo'ldi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligining dastlabki yillaridanoq jahon tsivilizatsiyasiga qo'shilish yo'lini tanladi. Mustaqillik milliy falsafaning negizi, uning umumjahon falsafiy jarayoni bilan qo'shilishi va uy'unlashuvining eng asosiy shartidir. Mustaqillikka erishmagan xalq milliyligini, o'ziga xos qadriyatlari, urf- odatlari, ruhiyati va dunyoqarashini o'z falsafasida to'la - to'kis aks ettira olmaydi. O'zbekistonning jahon tsivilizatsiyasiga qo'shilishining falsafiy metodologik muammolaridan biri baxtli va farovon hayotini biz o'z kuchimiz, aqlimiz bilan yaratishimiz zarur ekanligini anglashni taqozo etadigan dunyoqarashni shakllantirishga intilishimizda ko'rinadi. Ma'lumki, taraqqiyotga tsivilizatsiyali yondashuv o'z xususiyatlariga ega. O'zbekiston va jahon tarixini o'rganishga bunday qarash hozirgi zamon falsafasida muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaror topmoqda. Bunday yondashuv tarixiy haqiqatni holisona baholashga, milliy xususiyatlarning o'ziga xosligini anglashga, insoniyatning il'or taraqqiyot tajribalarini bilishga va ulardan ijobiy jarayonlarini xolisona falsafiy taxlil qilish, undan nazariy va amaliy xulosalar chiqarish imkoniyati vujudga keldi. Talabalarga ushbu savol bo'yicha atroflicha ma'lumot olishlari uchun quyidagi adabiyotlarni o'qishlarini tavsiya etamiz: I. Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T., 2000; Geopolitika i mirovoe razvitie M., 1995. 3. O'zbekistonning dunyo sivilizatsiyasiga qo'shiluvining yo'nalishlari, mamlakatimiz istiqloli va o'ziga xos tadrijiy taraqqiyot yo'lining nazariyasi va amaliyoti I.A. Karimovning «O'zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy yo'nalishlari», «O'zbekiston iqtisodiy istiqbolining asosiy yo'nalishlari», «O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston XXI asr bo'sa'sida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada asosiy yo'nalishlari» kabi asarlari, nutq va maqolalarida

keng yoritilgan. Bu kontseptsianing mohiyati nimadan iborat? O'zbekiston milliy jihatdan mustaqil bo'lishi ob'ektiv zaruriy jarayon, ajdodlarimizning azaliy orzusi, o'zbek halqining buyuk tarixiy yutu'idir. Bunda quyidagilar alohida e'tiborga molik.

O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi; milliy mustaqillik ramzlari bo'lgan davlat bayro'i, davlat madhiyasi, davlat gerbining qabul qilinishi; milliy davlatchilik demokratik tizimning shakllanganligi; halqimiz tabiat ato etgan barcha boyliklarga egalik huquqini o'z qo'lga olganligi; milliy armiya va xavfsizlik tizimi yaratilganligi; milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish.

O'zbekistonning I.A. Karimov tomonidan asoslanib berilgan o'ziga xos taraqqiyot yo'li quyidagi tamoyillarini nazarda tutadi: iqtisodning siyosatdan ustuvorligi; davlatning bosh islohatchi ekanligi; qonun ustuvorligi; kuchli ijtimoiy siyosat; bozor munosabatlariga bosqichma- bosqich o'tish. O'zbekistonning tadrijiy taraqqiyot yo'li ayrim davlatlarning bozor munosabatlariga "shok terapiya"si usuli bilan o'tish tajribasidan keskin farqlanadi. O'zbekistonning mustabidlikdan qutulgan dastlabki davrdagi o'ziga xos iqtisodiy ahvoli, sobiq Ittifoq davrida o'lkaning xomashyo etkazib berishga ixtisoslashishi kabi o'ir meros bilan birga halqning ming yillik tajribasi, undan kelib chiqadigan xulosalar bozor munosabatlariga tadrijiy ravishda bosqichma- bosqich o'tishini taqozo etayotganligini talabalar va magistrlar chuqur anglab olishlari zarur.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar negizida kishilarning mehnatga, mulkka, mehnat mahsuliga bo'lgan munosabatini o'zgartirish o'yasi yotadi. Uzoq yillar davomida mehnatga bo'lgan qarashlarda biryoqlamalik hukm surib keldi. Ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan ijtimoiy mulkchilik - kishilar mehnat faolligining asosi barcha ijtimoiy illatlarning bosh sababchisi- xususiy mulkchilik degan noto'ri qarash o'zini oqlamaydi. Shaxsiy manfaatdorlikni inkor etish, jamoa, jamiyat uchungina faol mehnat qilish, iqtisodiyotni mafkuraviy maqsadlarga bo'ysundirish, mehnat raqobati o'rniga soxta musobaqani joriy etish insonning mehnatdan, o'z-o'zidan va jamiyatdan begonalashuviga, boqimandalik kayfiyatining shakllanishiga olib keldi. Bunday xolat jamiyat inqirozini tezlashtirishga sabab bo'lganligini talabalar va magistrlar atroflicha bilishlari uchun aniq hayotiy misollar keltirilsa o'rinli bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida bozor munosabatlarini shakllantirishda mehnatga, mulkka va insonning o'z - o'ziga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirishning nazariy- falsafiy asoslarini ishlab chiqish zaruriyati ujudga keldi va bu I.A. Karimov asralarida o'z ifodasini topdi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat xususiy mulkni qo'llab quvvatlaydi, mulkchilikning turli shakllarini rivojlantiradi, xususiy mulk daxlsizligini huquqiy kafolatlaydi, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar berishni yo'lga qo'yadi.

Bu esa ularning mulkdor bo'lishi, o'rta mulkdorlar sinfining shakllanishi uchun keng imkoniyat yaratadi. O'zbekistondagi demokratik jarayonlar jahon

sivilizatsiyasi bilan uy'unlashishining yana bir imkoniyatidir. O'zbekistonning jahon tsivilizatsiyasiga qo'shilib borishida demokratik jarayonlarni va rivojlangan davlatlarning siyosiy tajribalarini ijodiy o'rganish va hayotga tatbiq etish muhim o'rin tutadi. O'zbekiston qonunchiligini halqaro huquq talablariga muvofiqlashtirish, nufuzli halqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi, hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlariga bo'lish, mamlakat Prezidentini muqobillik asosida saylash, fikrlar xilma-xilligi va ko'ppartiyaviylik tizimini qaror toptirish, demokratik qadriyatlarni hayotga tatbiq etish, O'zbekistonning XXI asrda jahon tsivilizatsiyasiga qo'shilib borayotganidan dalolat beradi. Ushbu savol bo'yicha kengroq ma'lumot olish uchun talabalar va magistrlar quyidagi adabiyotlarni o'qishlari zarur. I. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., 2000; O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. T., 2002.

4. O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishidagi tajribalarni falsafiy idrok etish va umumlashtirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Prezident I.A. Karimovning qator asarlarida yuksak ma'naviyat jamiyat taraqqiyotida muhim omil ekanligi to'g'risidagi o'ya yangicha falsafiy tafakkurning metodologik asosi, jahon tsivilizatsiyasiga qo'shilishi nazariyasi, yo'llarini yaqqol aks ettirdi.

O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish tajribasi, uning milliy o'yasi va mafkurasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun o'yat muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon sivilizatsiyasining muxim xususiyatlarini va O'zbekistonning sivilizatsiyali taraqqiyot yo'lidan jahon hamjamiyatiga qo'shilib borishini, milliy o'ya va mafkurani falsafiy idrok etish talabalar va magistrlarda vatan tuy'usi, ma'rifatparvarlik, milliy urur, burch, ma'suliyat hissini tarbiyalashga yordam beradi.

Bu milliy istiqlool mafkurasining bosh o'yasi bo'lgan, O'zbekiston halqining milliy taraqqiyot yo'lidagi ozod va obod Vatan, Erkin va farovon hayot barpo etishga, adolatli, kuchli demokratik jamiyat qurilishiga, iqtisodiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy hayotning erkinlashib, dunyoda o'zimizga xos va mos o'rniga ega bo'lishimizga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu savol bo'yicha kengroq ma'lumot olishlari uchun talabalarga quyidagi adabiyotlarni o'qishni tavsiya ettamiz:

I. Karimov O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. T., 2002; O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., 2000; Falsafa ma'ruzalar matni. T., 2000; Milliy istiqlool o'yasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqacha izohli tajribaviy lu'at) T., 2002; Falsafa asoslari. T.: 2005 y.

Tayanch tushunchalar

Jahon sivilizatsiyasi, jahon hamjamiyati, milliy davlatchilik, milliy qadriyatlar, sivilizatsiyalashgan bozor.

Takrorlash uchun savollar

1. Jahon sivilizatsiyasining hozirgi davrdagixususiyatlarni gapirib bering?
2. Taraqqiyotning o'zbek kontseptsiyasini qanday tushunasiz?
3. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li deganda nimalarni tushunasiz?
4. O'zbekiston va jahon hamjamiyati degani nima?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 1998
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: «O'zbekiston», 1992
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: «O'zbekiston», 1995
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999.
5. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. T., «O'zbekiston», 2002
6. Falsafa asoslari T.: 2005, 348-36
7. Milliy istiqlol 'oyasi. T., «Akademiya», 2005.

Mundarija

1- Mavzu: Falsafaning predmeti, fanlar sistemasidagi o`rni, muammolari va vazifalari.....	4
2-mavzu: Qadimgi sharq va antik dunyo falsafasi.....	12
3- mavzu: O`zbekiston hududidagi ilk o`rta asrlar va temuriylar davri falsafasi, uning jahon madaniyatidagi o`rni.....	20
4- mavzu: xvi-xx asrlardagi jahon falsafiy tafakkuri.....	30
5- mavzu: Olam va odam: falsafiy talqin	39
6- mavzu: Borliq va uning falsafiy tahlili.....	42
7- mavzu: Tabiat falsafasi	45
8 - mavzu: Taraqqiyot va aloqadorlik tamoyillar va talqinlar Falsafada metod muammosi.	51
9- mavzu: Rivojlanish va o`zaro aloqadorlikning umumiy qonuniyatlari. falsafiy qonunlar	56
10 - mavzu: Mavjudlik, o`zgarish, bo`liklikning asosiy shakllari. falsafiy kategoriyalar.....	59
11- mavzu: Ong va ruhiyat. falsafiy talqin.....	62
12 - mavzu: Bilish falsafasi.....	66
13- mavzu: Jahon sivilizatsiyasi va o`zbekiston istiqbolining falsafiy masalalari.....	69

Bosishga ruxsat berildi 17.03.07. Bichimi (60x84) 1/16. Shartli bosma tabog'i 4.7.
Nashriyot bosma tabog'i 4.7. Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining 21-0941 sonli guvohnomasi
asosida ToshDAU nashr tahririyati bo'limining **RIZOGRAF** apparatida chop etildi.

